

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**Z.N.QURBONOV, K.M.MISIROV,  
K.R.HOTAMOV, F.I.ISAYEV**

**SOLIQ HISOBOTI**

*O'QUV QO'LLANMA*

**Toshkent -2019**

Mazkur o'quv qo'llanmada soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar miqdorini hisoblash, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish, soliq hisobotlarini tuzish va davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish xamda davlat soliq xizmati organlarida byudjetga hisoblangan, to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni tezkor hisobini yuritish tartiblari batafsil yoritilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma "Soliq va soliqqa tortish" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Soliq hisoboti" fanidan o'quv adabiyoti sifatida tavsiya etilgan. Shuningdek o'quv qo'llanmadan iqtisodiy yo'nalishda ta'lim olayotgan bakalavr, magistrantlar va sohaga qiziquvchi boshqa mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

*Taqrizchilar:* **А.Ибрагимов** - O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi "Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit" kafedrasida professori, i.f.d.

**О.Қулjonov** – Toshkent moliya instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrasida dotsenti, i.f.n.

## KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida soliqlar davlat byudjetini shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi. Lekin soliqlarni xususiyati, uni hisoblash, hisobga olish va hisobotini yuritish bilan bog'liq masalalarni o'rganishda faqat uning fiskal xususiyati bo'yicha bir tomonlama yondoshib bo'lmaydi. Soliqlar davlat xarajatlarini qoplash manbai, iqtisodiyotni tartibga solish vositasidan tashqari soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish mexanizmi ham hisoblanadi.

Respublikamizda olib borilayotgan byudjet va soliq siyosati sohasidagi islohotlar, eng avvalo, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash, sub'ektlar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish hamda soliq xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan. “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi”ni “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”i davlat dasturida “soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishini inobatga olgan holda byudjet barqarorligini ta'minlash choralari, QQSni keng joriy qilinishi bilan iste'mol tovarlarining narxi o'sishining oldini olish, davlat korxonalarida moliyaviy hisobot tuzish va audit o'tkazishda xalqaro standartlarni joriy qilish”<sup>1</sup> kabi vazifalar belgilab berilgan.

Soliq soliq solish ob'ektlari hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish soliq nazoratini amalga oshirish shakllaridan bo'lib, uni to'g'ri tashkil etish davlat byudjeti mablag'larini to'g'ri hisoblanishi va to'liq undirilishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari iqtisodiyotning barcha sohalari samarali rivojlanishida soliq yukining optimal miqdorda belgilanishi bilan birga soliq to'lovchilar majburiyatlari tizimi, uni bajarish tartib, tamoyillari sodda hamda qulay bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Soliq munosabatlari ishtirokchisi hisoblangan soliq tizimi xodimlari soliqlarni to'g'ri hisoblash va byudjetga undirilgan tushumlar

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-sonli “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida”gi Farmoni.

hisobini yuritish tartiblarini bilgan taqdirda nazoratni ta'minlashi mumkin. Bu esa soliq munosabatlari ishtirokchilarining o'z majburiyatlarini bajarishi uchun zarur malaka va ko'nikmaga ega bo'lishini talab etadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va byudjetga to'lash bilan bog'liq soliq to'lovchining majburiyati ijrosini ta'minlash uchun soliq munosabati ishtirokchisi bo'lgan soliq to'lovchiga etarli bilim zarur bo'ladi. Soliq nazorati va soliq to'lovchiga o'z soliq majburiyatini bajarishi uchun zarur bo'lgan axborotlar "Buxgalyeriya hisobi" ma'lumotlaridan olinadi. Lekin soliq va buxgalyeriya hisobi qonunchiliklaridagi o'ziga xos xususiyatlar soliq hisobotlarini tuzish uchun buxgalyeriya hisobi ma'lumotlarini qayta ishlashni talab etadi. Ushbu zaruriyatlar buxgalyeriya hisobi ma'lumotlarini qayta ishlash hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tushumlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga olishga oid bilimlarni o'rgatadigan maxsus "Soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisobi" fanini bakalavriat talabalariga o'qitish zarurligini keltirib chiqaradi.

"Soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisobi" fanini "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishidagi talabalarga o'qitiladigan mutaxassislik fani hisoblanadi. Mamlakatimizda boshqa sohalar kabi hisobot tizimida ham amalga oshirilayotgan islohotlar soliq hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish taqdim etishga yangicha yondoshuvni talab etadi.

## **I BOB. SOLIQLAR HISOBINING NAZARIY ASOSLARI.**

### **1.1-§. Soliq hisobining mohiyati.**

Iqtisodiyotni integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini kirib kelishi buxgalyeriya hisobini nazariy va metodologik jihatdan takomillashuvini zaruriyat qilib qo'ydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy va boshqaruv hisoblarni buxgalyeriya hisobining tarkibiy qismi sifatida qayd etilgan bo'lsa, keyingi davrda iqtisodiy adabiyotlarda "soliq hisobi", "strategik hisob", "ekologiya hisobi" tushunchalari buxgalyeriya hisobining quyi tizimi sifatida yoritilmoqda.

CHet ellik iqtisodchi olimlar moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblarini hisobning alohida turi va quyi tizimi sifatida e'tirof etishmoqda.

Jumladan iqtisodchi olimlar D.Morse va J.Zimmyermanlar buxgalyeriya hisobini uchta quyi tizimga ajratadi: (1) boshqaruv hisobi; (2) moliyaviy hisob; (3) soliqlar hisobi. R. Aynsvors, D. Deines, R.D. Riumli va K.X. Larsonlar buxgalyeriya hisobini o'zaro bog'liq bo'lgan to'rtta quyi tizimga bo'ladi: (1) moliyaviy hisob quyi tizimi; (2) boshqaruv hisobi quyi tizimi; (3) soliqlar hisobi quyi tizimi; (4) tartibga soluvchi buxgalyeriya hisobi quyi tizimi.

V.Robyert, S.Entoni, S.Jemislar o'zlarining kitobida quyidagilarni qayd etadilar: "AQSHda moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi va soliq hisobi mohiyati jihatidan alohida jarayonlardir. GAAP – moliyaviy hisobning, oliy rahbariyat – boshqaruv hisobining, IRS va kongress esa soliq hisobining tamoyillarini belgilaydi". O.N.Volkovanning yozishicha, "Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimining rivojlanishi va murakkablashishi natijasida, soliqqa tortish bazasini aniq hisob-kitob qilish zaruriyati tug'ildi. Davlat ham, mulkdor ham va boshqaruvchilar ham bilardilarki, bunday hisob-kitoblar uchun yagona va obektiv ma'lumot bu umumqabul qilingan tamoyillarga mos ravishda jamlangan hisob ma'lumotlaridir. SHu tariqa soliq hisobi paydo bo'ldi".

V.V.Kachalin ham AQSH amaliyotida moliyaviy va boshqaruv hisoblaridan tashqari soliq hisobini yuritilishini e'tirof etgan.

YA.V.Sokolov, V.YA.Sokolovlarning “Istoriya buxgalyerskogo ucheta”<sup>2</sup> kitobida “YAgona buxgalyeriya hisobi moliyaviy va boshqaruv hisoblariga bo’lindi. Undan kichik korxonalar hisobi ajraldi. 2002 yildan boshlab bizning mamlakatda soliq hisobi rasman e’lon qilindi. Moliyaviy hisobning yangidan-yangi yo’nalishlari, turlari paydo bo’ldi (kreativ, hisobning ijtimoiy, inson resurslari hisobi, insaydyerlar bilan ishlash, ekologik)” deb e’tirof etgan. SHuningdek ularning yozishicha, “Hozirgi (1950 yildan) bosqich balansni dinamik va statistik talqin jihatdan qarashlarning rivojlanishiga olib keldi. Dinamik talqin va kalkulyatsiyani evolyutsiyaviy metodlari boshqaruv hisobining tug’ilishiga olib kelgan bo’lsa, statistik talqin esa – moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari (MHXS) va milliy schetlar tizimining paydo bo’lishiga olib keldi. Bu ikki talqin soliq hisobining shakllanishiga ta’sir qildi”.

Bir qator rossiyalik iqtisodchilar soliq hisobini buxgalyeriya hisobining quyi tizimi emas, balki buxgalyeriya va soliq hisoblarini alohida ikki turga bo’linishi tarafdorlaridir. A.Pochinok fikricha, “soliq va buxgalyeriya hisobi – hisob va hujjatlashtirishning ikki turidir”. Shu fikrni rus iqtisodchilari A.V. Brizgalin, V.R. Byernik, A.A.Golovkin, E.V.Demeshevalar ham qo’llab – quvvatlaganlar.

Amir Temur davlatni boshqarishda hisobga, shu jumladan soliq hisobiga ham alohida e’tibor byergan. Bobomiz o’zlarining “Temur tuzuklari” tarixiy kitobida soliq hisobi to’g’risida quyidagilarni e’tirof etganlar: “Yana har bir o’lkaga uch vazir tayinlashlarini buyurdim. Bulardan biri raiyat uchun (bo’lib), undan yig’iladigan oliq – soliqlarning undirilishini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliq – soliq miqdori, soliq to’lovchilarning nomlarini yozib borsin va raiyatdan yig’ilgan mablag’ni saqlasin. Ikkinchi vazir sipoh ishlarini boshqaradi. Sipohga byerilgan va byerilishi lozim bo’lgan mablag’ hisobini olib borsin. Uchinchi vazir esa daraksiz yo’qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar (sayohatchilar va savdogarlar), har xil yo’l bilan yig’ilib qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulki, vorissiz mol-mulkni, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan


---

<sup>2</sup> Соколов Я.В, Соколов В. Я, История бухгалтерского учета: М: Финансий и статистика, 2006. 243 с.

jarimalarni tartibga keltirsin».

Xo'sh, soliq hisobining shakllanish zaruriyati nimadan kelib chiqdi?

Rus iqtisodchisi A.V.Brizgalinning qayd etishicha, "1994 yilning oxirlariga kelib, soliqqa tortish tizimining takomillashishi natijasida, buxgaltyeriya hisobini soliqqa tortish maqsadiga bo'ysindirish, butun hisob tizimini qayta qurish va qayta moslashuv zaruriyati vujudga keldi". Bozor iqtisodiyoti sharoitida hisob integratsiyalashuv o'rniga differentsiallashuv tomon rivojlanmoqda. Hisob yangi turining, shu jumladan soliq hisobining paydo bo'lishi ilmiy fikrlarning progressivlashuvining natijasidir.



**1.1-Rasm. Makroiqtisodiyot darajasida soliq hisobining kelib chiqishi.**

Soliq hisobining kelib chiqishi – bu buxgaltyeriya (moliyaviy) hisobi bilan soliqqa tortish tizimini kesimida, ya'ni ularning o'zaro bog'liqligining natijasidir. Buxgaltyeriya hisobi, soliq hisobi va soliq tizimining o'zaro bog'liqligini quyidagi 1.1-rasmda Venn diagrammasi tarzida aks ettirish mumkin.

Bu rasm orqali buxgaltyeriya hisobi va soliqqa tortish tizimining o'zaro bog'liqligini optimal nuqtalarini topish printsiplial ahamiyatga ega. Ushbu bog'liqlikning optimal nuqtasi – bu soliq hisobining kelib chiqishidir.

Ma'lumotlardan foydalanuvchilar manfaatiga qarab hisobning uchta turi bo'lib, ular moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblaridir. Bularning har birining o'z maqsadi, vazifasi, ob'ekti, predmeti va metodi bor.

Buxgalyteriya hisobining bu 3 turi bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bu bog'liqlikni ham Venn diagrammasi tarzida aks ettirish mumkin (1.2-rasm).



### **1.2-Rasm. Buxgalyteriya hisobi turlari o'zaro bog'liqligining Venn diagrammasi.**

SHuni qayd qilish lozimki, bugungi kungacha soliq hisobi tushunchasi me'yoriy-hujjatlarda iqtisodchi olimlar va amaliyotchilar tomonidan turlicha talqin etib kelinmoqda.

Jumladan, Rossiya Fedyeratsiyasi Soliq kodeksining 25-bobi 313-moddasida soliq hisobi quyidagicha ta'riflangan: "Soliq hisobi – boshlang'ich hujjatlar asosida foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash uchun Soliq kodeksida belgilangan tartibga mos ravishda guruhlangan ma'lumotlarning umumlashtirilgan tizimidir"<sup>3</sup>.

Bu ta'rifda soliq hisobi faqat foyda (daromad) solig'ini soliqqa tortish bazasini aniqlash uchun kyerakli bo'lgan ma'lumotlar tizimini ko'zda tutgan. SHu sababli, soliq hisobiga tor ma'noda ta'rif byerilgan. Bizning fikrimizcha, soliq hisobining ob'ekti faqat foyda solig'i emas, balki u yoki bu mamlakatda amal qilayotgan barcha soliq va boshqa majburiy to'lov turlari hisoblanadi.

Rossiya Fedyeratsiyasining Soliq kodeksi 25-bob, 313-moddasida quyidagicha yozilgan: "Soliq to'lovchilar hisobot (soliq) davri natijasiga ko'ra soliqqa tortish bazasini soliq hisobi ma'lumotlari asosida hisoblaydi". O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining "Soliqni hisobga olish" deb nomlangan 10-moddasida quyidagicha yozilgan: "Yuridik shaxslarning daromadlari va soliqlarini hisoblab chiqish uchun ular bo'yicha tegishli chegirmalar, to'lov to'langan vaqt va

<sup>3</sup> Налоговый кодекс Российской Федерации (часть вторая). Глава -25, статья 313. М.: Вершина, 2005. с. 177.



pul kelib tushgan sanadan qat'iy nazar, ular taalluqli bo'lgan hisobot davrida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aks ettiriladi”.


Bu qiyoslashdan xulosa shuki, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida “soliq hisobi” alohida moddada bayon etilgan. Bunda respublikamiz iqtisodiyoti va soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “soliq hisobi»ga quyidagicha ta'rif byerish mumkin:

**Soliq hisobi – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash va soliq hisobotlarini tuzish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni hisobga olish tizimidir.**

Ushbu ta'rifga asoslangan holda soliq hisobining vazifasini, maqsadini quyidagicha bayon etish mumkin.

Soliq hisobining vazifasi – bu hisobot davrida soliq va boshqa majburiyat to'lovlarni to'g'ri hisoblash uchun zarur bo'lgan ishonchli ma'lumotlarni hisobga olish, hamda ichki va tashqi foydalanuvchilarni zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat. Buxgalteriya hisobi tarkibiga “soliq hisobi”ni kiritish natijasida hisob turlarining tasnifi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi. (1.3-rasm).



**1.3 – Rasm. Hisob turlarining tasnifi.**

1.3-rasmdan ko'rinib turibdiki, buxgaltyeriya hisobi moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblaridan tashkil topgan. Moliyaviy hisobning yakuni sifatida moliyaviy hisobotlar tuzilsa, boshqaruv hisobi natijasida boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi, soliq hisobining yakuniy natijasida esa soliqlar bo'yicha hisobot tuziladi. Moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, bir-birini ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Bu esa, buxgaltyeriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'liq olish imkoniyatini byeradi.

### **1.2-§. Soliq hisobini tashkil etishning xorij tajribasi.**

Soliq hisobini tashkil etishda, xorijiy mamlakatlarda soliq hisobining mavjudligi va ular tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Buxgaltyeriya hisobi va soliqqa tortish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikka asosan buxgaltyeriya hisobining quyidagi modellari mavjud: "kontinental", "inglizsakson", "janubiy amyerika", "islom".

Buxgaltyeriya hisobining modellarini ko'rib chiqishda ishlab chiqarishi va sanoati rivojlangan Germaniya, AQSH, Rossiya, Frantsiya, Yaponiya va Buyuk Britaniya mamlakatlarida buxgaltyeriya hisobini tashkil etishni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki, birinchidan, bu mamlakatlarda buxgaltyeriya hisobining tamoyillari bir-biridan farq qiladi. Ikkinchidan, bu mamlakatlarda buxgaltyeriya hisobi va hisoboti xalqaro standartlarining asosi yaratilgan va ular BHXS rivojlanishiga ta'sir qiladi. Uchinchidan esa, bu mamlakatlar respublikamizda buxgaltyeriya hisobining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan mamlakatlardir.

Bu modellar qaysi mamlakatlarda amal qilinishi va u yoki bu modelning ijobiy tomonlariga to'xtalib o'tamiz.

Kontinental modelda buxgaltyeriya hisobi tizimi bevosita soliqqa tortishning tamoyillari, qoidalari asosida shakllanadi va yuritiladi. Bu model tashkil qilinganda, moliyaviy buxgaltyeriya hisobi bilan soliq hisobining ko'rsatkichlari mos keladi. Shuning uchun ham adabiyotlarda «kontinental» model ba'zan «soliq»

modeli ham deb yuritiladi.

Buxgalyeriya hisobining kontinental modeli asosida milliy hisob tizimini tashkil qilgan mamlakatlarga Germaniya, Shvetsiya, Belgiya, Ispaniya, Italiya, Frantsiya, Shvetsariya, Yaponiya va boshqalar kiradi. Bu mamlakatlarda buxgalyeriya hisobining soliqqa tortish tizimiga bog'liqlik darajasi har xil. Germaniyada bu holat o'ta kuchli bog'langan bo'lsa, Frantsiyada kuchli ta'sirda, boshqa mamlakatlarda kuchsizroq bog'liqlikda bo'lib kelmoqda.

Yaponiyada buxgalyeriya hisobi kontinental modeli asosida tashkil qilingan bo'lsada, moliyaviy hisobni yuritishda nemis va amyerika tamoyillarining ba'zi elementlari amaliyotda qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda Yaponiyada buxgalyeriya hisobining tamoyillari bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda shakllantirilmoqda.

Yaponiyada buxgalyeriya hisobining standartlari Tijorat kodeksi va "Qimmatli qog'ozlar va birjalar to'g'risida"gi qonunlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Tijorat kodeksi kreditorlar huquqini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi hujjat esa, aktsionyerlar huquqini himoya qiladi. Bu mamlakatda buxgalyeriya hisobi tamoyillari Moliya vazirligi huzuridagi "Buxgalyeriya hisobi metodologiyasi bo'yicha kengash" tomonidan ishlab chiqiladi va amaliyotga tadbiq qilinadi.

Yaponiya milliy daromadlarining 29,9 foizi daromad solig'i, 26,2 foizi korporativ soliq, 23,1 foizi iste'mol solig'i hisobiga shakllanadi.

Yaponiyada soliqqa tortiladigan foydani hisoblashda Tijorat kodeksida ko'rsatilgan moliyaviy hisobning qoidalari qo'llaniladi. SHuning uchun ham Yaponiyada soliqqa tortish tizimining moliyaviy buxgalyeriya hisobiga ta'siri kuchsizroqdir.

Kontinental modelning ijobiy tomoni quyidagilardan iborat:

- oddiylik va hisob metodologiyasining yagonaligi (ya'ni moliyaviy hisobot yagona qoidaga asosan tuziladi);
- daromad pul kelib tushgandan keyin tan olinadi;
- yagona hisob tizimi mavjudligidan ikki xil moliyaviy natija kelib

chiqmaydi (aksionyerlar va soliq organlari uchun).

Buxgalyeriya hisobi va soliqqa tortishning o'zaro bog'liqligining kontinental kontseptsiyasi Prussiyada vujudga kelgan va bu qoidaga asosan balans foydasining summasi foydaning soliqqa tortish bazasiga teng bo'lishi kerak. Bu modelning asosiy xususiyati shundan iboratki, bunda moliyaviy hisobot davlat soliq organlari manfaatini ko'zlab tuziladi.

Buxgalyeriya hisobining "inglizsakson" yoki "ingliz-amerika" modeli asosan qimmatbaho qog'ozlar bozorlari rivojlangan mamlakatlarda amal qiladi. Bu model investorlar va kreditorlar manfaatlarini hisobga olgan holda yuritiladi. Mazkur model amal qilayotgan mamlakatlarda buxgalyeriya hisobi davlat tomonidan tartibga solinmaydi. Buxgalyeriya hisobining asosiy tamoyillari buxgalyerlar assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqiladi, davlat organlari shu tamoyillarni tan oladi.

Buxgalyeriya hisobining "inglizsakson" modeli quyidagi mamlakatlarda amal qiladi: Avstraliya, Buyuk Britaniya, Zimbabve, Isroil, Hindiston, Irlandiya, Kanada, AQSH, Pokiston va boshqalar. Bu mamlakatlarda buxgalyeriya hisobi va soliqqa tortish tizimlari o'rtasida kuchsiz bog'lanish bor. Ba'zi mamlakatlarda bu tizimlar o'rtasida bog'lanish yo'q bo'lib, moliyaviy va soliq hisoblari parallel holda yuritiladi. Masalan, AQSHning katta korporatsiyalarida moliyaviy va soliq hisoblari alohida olib boriladi. AQSHda buxgalyeriya hisobi bilan soliq hisobining asosiy farqi amortizatsiya ajratmalarini hisoblash metodi va xarajatlarni tan olishidadir. Buning asosiy maqsadi korxonaning moliyaviy natijalarini to'g'ri va aniq hisoblashdir.

Rossiya Federatsiyasida buxgalyeriya hisobi tizimi oldin kontinental model asosida rivojlangan bo'lib, uning shakllanishida frantsuz va nemis maktablarining ta'siri katta bo'lgan. Rossiyada buxgalyeriya hisobining rivojlanishida hisobning tarixiy o'ziga xosligi ham alohida ahamiyat kasb etgan.

Rossiyada 2000 yildan keyin buxgalyeriya hisobi tizimida "ingliz-sakson" modelining tamoyillari shakllana bordi. Buning asosiy sababi – Rossiya iqtisodiyotiga transmilliy kompaniyalarning kirib kelishi bo'lgan bo'lsa, keyingi

sababi Rossiyani jahon iqtisodiy integratsiyasiga intilishidir. Yana bir sababi, Rossiya buxgaltyeriya hisobi tizimining moliyaviy hisob va hisobotning xalqaro standartiga o'tishidir. Bularning ta'sirida Rossiyada soliq hisobi paydo bo'ldi va rivojlanmoqda.

Rossiya Federatsiyasida 2002 yildan boshlab moliyaviy, boshqaruv hisoblari bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliq hisobini ham yuritmoqda. Bunga asos bo'lib Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 25-bobiga Soliq hisobi tushunchalarini kiritilishidir, ya'ni ushbu kodeksning 313-moddasi "Soliq hisobi. Umumiy tartiblar" deb ataladi. Ushbu moddaga asosan soliq to'lovchilar soliq hisobi tizimini mustaqil ravishda tashkil qilishlari zarur. Soliq hisobini yuritish tartibi, soliq to'lovchi tomonidan soliq hisobi siyosatini ishlab chiqishda o'rnatiladi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan nafaqat soliq hisobi qaysi mamlakatlarda amal qilishi, balki soliq hisobi qaysi mamlakatlarda mavjud emasligi hamda uning sabablari ham o'rganilgan. Jumladan: O.N.Volkovning yozishicha, Portugaliyada soliq hisobining mavjud emasligi buxgaltyeriya hisobining yuqori darajada soliqqa tortish maqsadiga bo'ysundirilganligidadir. Soliq organlari to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita hisob metodologiyasini shakllantiradi. SHu asosida alohida soliq hisobini yuritishga zaruriyat bo'lmaydi.

Ya.V.Sokolovning fikricha, Frantsiyada soliq hisobining mavjud emasligi, Frantsiya buxgaltyeriya hisobi intizomining huquqiy mohiyatidan, ya'ni hisob tamoyillari to'g'ridan-to'g'ri tijorat va soliq qonunchiligidan kelib chiqadi. Korxonalar soliq bo'yicha majburiyatlarini aniqlashda buxgaltyeriya hisobida aks ettirilgan foydani korrektyrovka qilish jadvalini to'ldiradi. SHu asosida buxgaltyeriya hisobida aniqlangan foyda summasi bilan soliqqa tortish bazasi o'rtasida farq bo'lmaydi.

S.Qodirxonov va SH.Mamatqulovlarning e'tirof etishicha, Xitoy Xalq Respublikasida soliq hisobining mavjud emasligi quyidagilar bilan bog'liq. Buxgaltyeriya hisobini me'yoriy tartibga solish, soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va topshirishning qat'iy tartibi mavjud.

Xitoy Xalq Respublikasining “Buxgalyeriya hisobi to’g’risida”gi Qonunida barcha korxonalar moliyaviy hisobotni maxsus talablariga binoan tayyorlashlari lozimligi ta’kidlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turli mamlakatlarda buxgalyeriya hisobi bilan soliqqa tortish mexanizmlari o’rtasida bog’lanish turlicha. Bundan mamlakatlar iqtisodiyotida soliq hisobining tutgan o’rni har xil bo’lib, ular tajribasini o’rganib, mamlakatimiz buxgalyeriya hisobi va soliq siyosatini takomillashtirishda foydalanish konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Soliq hisobining xorijiy mamlakatlarda qanday tashkil etilganligini o’rganishdan asosiy maqsad, ular tajribasidan Respublikamiz buxgalyeriya hisobi tizimini tashkil etishda foydalanishdir. SHuni alohida qayd etishimiz kyerakki, xorij tajribasini olib, ko’r-ko’rona tadbiq etish emas, balki respublikamiz buxgalyeriya hisobi tizimining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanishimiz zarur bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasi buxgalyeriya hisobi tizimiga soliq hisobini qo’llash muammosini hal etishdan oldin, hisob tizimimiz qaysi buxgalyeriya hisobi modeliga yaqinroq degan savolga javob byerishimiz kyerak.

Mamlakatimiz buxgalyeriya hisob tizimining qaysi hisob modeliga tegishli yoki yaqinroq degan savolga javob byerishda mavjud omillarni hisobga olishimiz maqsadga muvofiq. Bu omillar quyidagilar:

1. Buxgalyeriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarning manfaatlari.
2. Korporativ boshqaruv modeli.
3. Investorlar huquqini himoya qilish darajasi.
4. Kapital bozorining kimga qaratilganligi.
5. Moliyaviy hisobning soliqqa tortish tizimiga nisbatan bo’lgan mavqei.

Bizning fikrimizcha, keyingi yillarda qabul qilingan qonunlar, respublikamizda buxgalyeriya hisobining halqaro standartlari asosida milliy standartlarning ishlab chiqilishi, soliq qonunchiligining rivojlanishi va soliq siyosatining takomillashishi mamlakatimiz hisob tizimini «kontinental» model

asosida olib borilmoqda degan asos yo'q. Chunki amaliyotda buxgaltyeriya hisobi va soliqqa tortishning obektlari bo'lgan bir qator kategoriyalarni aniqlashda soliq tizimi va buxgaltyeriya hisobida har xil usullar qo'llanilmoqda. Masalan, asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalar summasini aniqlashda, farq kelib chiqadi. Bu masalaning echimini topishda soliq hisobining elementlarini qo'llashga zaruriyat tug'iladi.


Ikkinchidan, soliq qonunchiligimiz moliyaviy buxgaltyeriya hisob ma'lumotlari asosida aniqlangan moliyaviy natijalarni soliqqa tortish maqsadida tan oladi.

Uchinchidan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining soliq hisobotlarini tuzishda moliyaviy hisob axborotlaridan foydalangan holda bajariladi. To'g'ri moliyaviy hisob axborotlari soliqqa tortish maqsadida korrektirovka qilinadi va o'zgartirishlar kiritiladi.

To'rtinchidan, soliq qonunchiligi, juda ko'p o'zgartirishlar kiritildi, qo'shimcha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Buning natijasida buxgaltyeriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga ham o'zgartirishlar kiritilishi zaruriyati tug'ildi. Bu holat, soliqqa tortish tizimini buxgaltyeriya hisobi tizimiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda degan xulosani keltirib chiqaradi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizda amal qilayotgan buxgaltyeriya hisobi tizimi "Ingliz-Amyerika" – "Inglizsakson" modeli yo'nalishida rivojlanmoqda degan xulosa qilishimiz mumkin. Bu bilan bizda respublikamiz buxgaltyeriya hisobi tizimi xuddi AQSH yoki Buyuk Britaniya mamlakatlaridagi hisob tizimidek degan fikr tug'ilmasligi kyerak. Bizda moliyaviy va soliq hisoblari "avtonom" holda yuritilmaydi. Bu to'g'risida hali me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmagan. Masalaning ikkinchi tomoni bor, u yoki bu mamlakat hisob tizimidan bizga mos tomonlarini olib, o'zimizning xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llashimiz zarur.

Rossiya Fedyeratsiyasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida moliyaviy va soliq hisoblari quyidagi sxemada yuritiladi (1.4-rasm).



**1.4-Rasm. Rossiya Fedyeratsiyasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida moliyaviy va soliq hisoblari.**

Bundan ko'rinib turibdiki moliyaviy va soliq hisoblarini bir-biridan umuman ajratish mumkin emas, chunki soliq hisobi va uning registrlarini yuritish juda murakkab jarayondir. Bu murakkablikning soliq hisobini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish asosida echimi topiladi.

Hozirgi vaqtda Rossiya Fedyeratsiyasida soliq hisobini yuritishda quyidagi axboriy tizimlar (AT) qo'llanilmoqda:

“1 S: Buxgalyer”, “1 S: Predpriyatiya 7.7.”, “Nalogoviy uchet 1.0” va boshqalar.

Mazkur axborot tizimlarning amaliyotda qo'llanishi buxgalyerlar uchun qulayliklar tug'diradi va ularning ishlarini engillashtiradi. Jumladan, moliyaviy va soliq hisobi ma'lumotlarini taqqoslash, soliq hisobini olib borishda yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida to'g'rilash imkoniyatlarini yaratadi. SHuningdek, bu axboriy tizimlardan soliq hisobini registrlarda yuritish va soliq qonunchiligiga rioya qilish bo'yicha hujjatli tekshirishlarni osonlashtirish maqsadida ham foydalaniladi.

Soliq hisobini tashkil etish borasida Ukraina va Belorusiyada ham juda ko'p nazariy, metodologik va amaliy ishlar qilingan.

Bizning fikrimizcha, xorij tajribasini mamlakatimiz buxgalyeriy tizimida qo'llash va shu asosda respublikamizda soliq hisobini nazariy, amaliy va metodologik jihatdan takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'lardi.



## **2-BOB. SOLIQ HISOBINING OB'EKTI VA PREDMETI.**

### **2.1-§. Soliq hisobining ob'ekti va predmeti haqida tushuncha.**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgaltyeriya hisobi, shu jumladan soliq hisobi predmetiga bozor modelini o'zida aks ettiruvchi ta'rifini byerish nazariy ahamiyatga ega.

Soliq hisobining predmeti va obektiga ta'rif byerishda umumqabul qilingan buxgaltyeriya hisobining predmeti va obektini evolyutsiyaviy rivojlanish tarixidan kelib chiqishi kyerak.

Biz tomonimizdan o'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, buxgaltyeriya hisobi predmeti ta'rifining aniq konseptual chegarasi yo'q. Masalan, Ispan olimi Diego del Kastillo buxgaltyeriya hisobi predmeti deb shartnomani ko'zda tutgan bo'lsa, italyan olimi K.Bellini buxgaltyeriya hisobining predmeti deb, xo'jalik jarayonlarini hisoblagan bo'lsa, I.F.Shyer esa buxgaltyeriya hisobining predmeti deb, ro'y byergan ichki va tashqi xo'jalik, yuridik holatlarni tan olgan<sup>4</sup>. Rus buxgaltyeri K.I.Arnold – “buxgaltyeriyaning yagona predmeti – kapitalning aniq va ishonchli o'zgarishi” deb e'tirof etgan<sup>5</sup>.

Bunday yondashuvlar har xil e'tiroz va munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Endi buxgaltyeriya hisobining tarkibiy qismi bo'lgan soliq hisobining predmeti to'g'risida fikr yuritsak.

Soliq hisobining predmetiga ta'rif byerishda hisob va soliqqa tortish nazariyasi nuqtai nazardan kelib chiqishi kyerak. Soliq hisobi predmetining ta'rifida hisob va soliqqa tortish nazariyasining asosiy tamoyillari o'z aksini topishi zarur. YUqoridagilardan kelib chiqib, soliq hisobining predmetiga quyidagicha ta'rif byerish mumkin.

Soliq hisobining predmeti deganda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va tadbirkorlarning xo'jalik faoliyatini yuritish asosida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kelib chiqadigan majburiyatlarni hisoblash, to'lash va tahlil

---

<sup>4</sup> Соколов Я.В. Бухгалтерский учет: от истоков до наших дней. – М. : Аудит, ЮНИТИ, 1999, с. 153.

<sup>5</sup> Соколов Я.В., Соколов В.Я. История бухгалтерского учета: Учебник.-М.: Финансы и статистика, 2005, с.122.

qilish tushuniladi.

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, buxgalyeriya hisobining predmeti soliq hisobi predmetiga nisbatan keng tushuncha bo'lib, soliq hisobi buxgalyeriya hisobi predmetining tarkibiga kiradi va uning mohiyatini yanada aniqlashtiradi.

Soliq hisobi o'zining sub'ekti va obektiga ega.

Soliq hisobining sub'ekti bo'lib soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Soliq hisobining obektlarini aniqlashda bevosita buxgalyeriya hisobining obektiga murojaat qilishimiz kerak. Chunki buxgalyeriya hisobining obektlari moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblari obektining asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalyeriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida "Buxgalyeriya hisobi obektlari. Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zahiralar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik operatsiyalari buxgalyeriya hisobining ob'ektlaridir"<sup>6</sup> deb ko'rsatilgan bo'lib, ob'ektga ta'rif byerilmagan.

O'rganilgan adabiyotlardan ko'rinib turibdiki, buxgalyeriya hisobi metodologiyasida hisobning predmeti va obekti kategoriyalariga bir xil ta'rif byerilmagan, hisob obektlarining ilmiy asoslangan tasnifi byerish oxiriga etkazilgan emas. Bularning barchasi hisob ob'ektining nazariy kontseptsiyasiga keng ma'nodagi qarashlar bilan birga, ularning har xilligidan dalolat byeradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, soliq hisobining obektiga quyidagicha ta'rif byerish mumkin:

"Korxonalarda ro'y byergan xo'jalik operatsiyalar, aktivlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar va foyda soliq hisobining obektlaridir".


Bu sxema tarzida 2.1-rasmda aks ettirilgan. Hisob nazariyasida uning tamoyillari muhim o'rin egallaydi. Chunki tamoyillar hisob metodologiyasining asosi va negizi bo'lib hisoblanadi. Buxgalyeriya hisobi metodologiyasining asosiy

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining «Buxgalyeriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni.-Toshkent: 30.08.1996.

maqsadi ham umumiy hisob tamoyillarini ishlab chiqishdir. Bu hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yana dolzarb bo'lib qolmoqda.

Keyingi paytda buxgaltyeriya hisobi tamoyillarining nazariy masalalariga me'yoriy hujjatlarda alohida e'tibor byerilmoqda. Buxgaltyeriya hisobining tamoyillari soliq hisobi uchun ham umumiy tamoyillar bo'lib, ularga asoslangandir. SHuning uchun ham buxgaltyeriya hisobining tamoyillarini keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



**2.1-rasm Soliq hisobining obektlari.**

### **2.1-§. Soliq hisobi tamoyillari va metodi.**

“Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida”gi Qonunning 3-moddasida Buxgaltyeriya hisobining asosiy printsiplari:

- uzluksizlik;
- ishonchlilik;
- ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi buxgaltyeriya hisobining asosiy printsiplaridir<sup>7</sup>.

“Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual (tamoyil)

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni. 2016 y.

asoslari” O-BHMS da quyidagi tamoyillar keltirilgan:

“Tamoyillar:

- hisoblash;
- ikki yoqlama qayd etish usuli bilan hisob yuritish;
- uzluksizlik;
- xo’jalik muomalalari, aktivlar va passivlarni baholash;
- ishonchlilik;
- ehtiyotkorlik (konsyervatizm);
- mazmunni shakldan ustunligi;
- ko’rsatkichlarning qiyosiyliigi;
- betaraflik;
- hisobot davri daromadlari bilan xarajatlarining muvofiqligi;
- aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi;
- tushunarlilik;
- ahamiyatlilik;
- muhimlilik;
- haqqoniy va xolis taqdim;
- tugallanganlik;
- izchillik;
- o’z vaqtida taqdim etish”<sup>8</sup>.

Tamoyilar yig’indisi hisob kontseptsiyasini tashkil qiladi. SHunga asoslangan holda soliq hisobi kontseptsiyasiga ta’rif byeramiz. Soliq hisobining kontseptsiyasi – soliq hisobini yuritish va soliq hisobotini tuzishning asosiy tamoyillarining majmuasidir. Bu ta’rifdan ko’rinib turibdiki, kontseptsiya elementlari bo’lib soliq hisobining tamoyillari hisoblanadi.

Har qanday hisob turi yoki hisobning quyi tizimidek, soliq hisobining ham o’ziga xos bo’lgan tamoyillari mavjud. Soliq hisobining tamoyillari to’g’risida ham olimlar turli fikrlarni bildirishgan va tamoyillar mazmun va son jihatidan ham farq qiladi. Masalan, V.YA.Kojinov: “Agar soliq hisobi axborot konturida

---

<sup>8</sup> O’zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining Milliy standartlari.-Toshkent 2004. 7-b.

mustaqil quyi tizim turi sifatida shakllangan bo'lsa, umumiy tamoyillardan tashqari, u o'zining maxsus tamoyillariga asoslangan bo'lishi kerak"<sup>9</sup>, degan fikrni bildirib, soliq hisobining quyidagi tamoyillarini sanab o'tadi va qisqacha har bir tamoyilga tushuntirish berib ketadi:

- alohidalik (avtonomiya) tamoyili;
- univyersallik tamoyili;
- nazorat kiluvchanlik tamoyili;
- komplekslilik tamoyili;
- globallilik tamoyili<sup>10</sup>.

E.V.Kreynina ham o'zining tadqiqotlarida soliq hisobining quyidagi tamoyillarini qayd etgan:

- o'ziga xoslik tamoyili;
- qonunlar bilan mustahkamlanganlik tamoyili;
- doimiylik tamoyili<sup>11</sup>.

I.V.Kalniskaya o'zining ilmiy-tadqiqotlariga asoslanib, soliq hisobi tamoyillari tarkibiga quyidagilarni kiritgan:

- o'ziga xoslik (isklyuchitelnost);
- soliq bo'yicha majburiyatlarni tan olish;
- obektivlik;
- muvofiqlik;
- bo'linganlik;
- bajaruvchanlik;
- soliq kalendarini yuritish va rioya qilish;
- ketma-ketlik<sup>12</sup>.

K.A.Ivanov soliq hisobining tamoyillariga quyidagilarni kiritgan:

- korxonalar mulkining yaxlitligi;

---

<sup>9</sup> Кожинов В.Я. Бухгалтерский счёт и налоговый учет: управление прибылью.-М.: Экзамен 2005, с. 44.

<sup>10</sup> O'sha joyda 44-45 b.

<sup>11</sup> Крейнина Е.В. Интеграция бухгалтерского учета и налоговой системий. Дисс.на соискание степени к.е.н.- СПб. 1996, с. 116.

<sup>12</sup> Калниская И.В Бухгалтерский учет и налогообложение: проблемий взаимодействия». Дисс. на соискание степени к.е.н.- СПб. 2001, с. 63.

- davriylilik;
- pulda o'lchash;
- qo'llashning ketma-ketligi;
- uzliksizlik;
- hisoblash;
- daromadlar va xarajatlarning muvofiqligi;
- hujjatlar bilan tasdiqlanganlik<sup>13</sup>.

Rossiya Fedyeratsiyasi Soliq kodeksi 25-bobining 246, 285, 274, 313, 314, 271, 272-moddalarida ham soliq hisobining yuqorida e'tirof etilgan tamoyillari o'z aksini topgan<sup>14</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq hisobi buxgaltyeriya hisobining umumiy tamoyillari bilan birga o'zining maxsus tamoyillariga asoslangan holda olib boriladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. SHuningdek, soliq hisobi tamoyillarini soliqqa tortishning va buxgaltyeriya hisobining tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqish kerak. SHuni alohida qayd etish kerakki, umumiylik bilan bir qatorda, soliq hisobi tamoyillari moliyaviy hisobi tamoyillaridan farq qiladi.

E'tirof etilganlardan kelib chiqqan holda, soliq hisobi tamoyillariga quyidagicha ta'rif byerildi.

**Soliq hisobi tamoyillari – soliq hisobini yuritishning metodologiyasi asosini tashkil etuvchi qoidalar tizimidir.**

Bu ta'rif va yuqoridagilarga asoslangan holda soliq hisobining tamoyillariga quyidagilar kiradi: ikki yoqlama yozish, davriylik, soliqlar bo'yicha majburiyatlarni tan olish, daromad va xarajatlar mos kelishi, konunlar bilan mustaxkamlanganlik tamoyillari.


Soliq hisobi predmeti va tamoyillarining o'ziga xosligi uning metodini ham aniqlashga imkon yaratadi. Bevosita metod va usullar yordamida soliq hisobining obekti o'rganiladi. Bizning fikrimizcha, buxgaltyeriya hisobining, shu jumladan

---

<sup>13</sup> Иванов К.А. Налоговой учёт и контрол расчётов на контрол в производнийх организациях. Автореферат.- М.: 2004

<sup>14</sup> Глава 25 Налогового Кодекса Р.Ф.– М.: Вершина. 2005, с. 248.

soliq hisobining metodi va usullarini aniqlashda bevosita ularning maqsadi, funktsiyasi, vazifasi hamda metodlarini hisobga olishimiz kerak.




## 2.2-rasm. Soliq hisobini tashkil etish variantlari

Soliq hisobining metodi umumqabul qilingan buxgalteriya hisobining metodi va usullariga asoslanishdan tashqari, o'zining maxsus metod va usullariga ega.

**Soliq hisobining metodi – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xo'jalik operatsiyalari, aktivlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar, daromad, xarajat va foyda ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi usullar majmuasidir.**

Soliq hisobini yuritish korxonalarining hisob siyosati bilan tartibga solinadi.

Soliq hisobini tashkil etishning quyidagi variantlari mavjud (2.2-rasm).



**2.3-rasm. Soliq tortish tamoyillari.**

1. Soliq hisobi siyosatini tasdiqlash asosida soliq hisobi registrlaridan foydalanilgan holda soliq hisobini tashkil etish;

2. Moliyaviy hisob ma'lumotlari asosida soliq hisobi registrlarini shakllantirish asosida tashkil etish.

Buxgaltyeriya hisobining registrlari deb, boshlang'ich va yig'ma hujjatlarda aks ettirilgan xo'jalik mablag'lari, ularning tashkil topish manbalarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash hamda xo'jalik muomalalarining tarkibi va harakatini hisobga olishda qo'llaniladigan maxsus shakldagi jadvallarga aytiladi. Bu jadvallar buxgaltyeriya hisobida hisobvaraqlarning o'zaro aloqasi va hisobvaraqlardagi yozuvlarning iqtisodiy mazmunini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.



### 2.3-§. Soliq hisobining registrlari.

Buxgalyeriya hisobi registrlariga jurnallar, qaydnomalar, daftarlari, kartochkalar hamda tasdiqlangan blanklar kiradi.


Hisob registrlari ulardagi ma'lumotning hajmiga qarab ikki turga bo'linadi:

- Sintetik hisob registrlari;
- Analitik hisob registrlari.

**Sintetik hisob registrlarida** yozuvlar umumlashgan holda pul ifodasida hech qanday tushuntirishsiz qayd etiladi. Sintetik hisob registrlarida yozuvlar olingan ayrim hujjatlarga muvofiq olib borilmaydi, bunda oldindan iqtisodiy mazmunga ko'ra guruhlangan bir xildagi hujjatlar yig'indisi bo'yicha aks ettiriladi. Ushbu turdagi hisob registrlariga bosh daftar, xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish jurnali va boshqalar kiradi.

**Analitik hisob registrlari** xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari, xo'jalik jarayonlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarni aks ettirib, analitik guruhlariga bo'lib ro'yxatga olib borish uchun mo'ljallangan. Analitik hisob registrlarida korxonada amalga oshiriladigan xo'jalik muomalalari sintetik hisob registrlaridagiga nisbatan detallashtirilgan holda aks ettiriladi. Bunday turdagi hisob registrlariga "Asosiy vositalar", "Debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar" va boshqa hisobvaraqlar bo'yicha yuritiladigan kartochkalar misol bo'la oladi.

Soliq hisobining analitik registrlari - buxgalyeriya hisobi schyotlariga taqsimlanmagan (aks ettirilmagan) holda hisob davridagi soliq hisobi ma'lumotlarini guruhlashtirilgan, tizimlashtirilgan yig'ma shakllardir. Analitik registrlar soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va hisob siyosatiga ilova qilinadi. Hisob registrlarini yuritish asosida soliq hisobini tashkil etish tizimi ishlab chiqiladi (2.4-rasm).



**2.4-Rasm. Soliq hisobini tashkil etish tizimi.**

Soliq to'lovchilar soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash uchun zarur bo'lgan soliq hisobi ma'lumotlari bilan ta'minlashga kyerak bo'ladigan registrlar mustaqil holda ishlab chiqadi hamda yuritiladi.

#### **2.4-§. Soliq hisbotini tuzish tartibi.**

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq to'lovchilar, shuningdek ushbu soliq yoki boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar belgilab qo'yilgan taqdirdagina soliq to'liq o'rnatilgan deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari quyidagilardir:

<i>Element nomi</i>	<i>Ta'rif</i>
Soliq solish ob'ekti	Soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir.
Soliq solinadigan baza	Soliq solish ob'ektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.
Stavka	Soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdor. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.
Hisoblab chiqarish tartibi	Soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to'lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish majburiyati davlat soliq xizmati organi yoki soliq agenti zimmasiga yuklatilishi mumkin. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim turdagi soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarishda ularning to'lanishi lozim bo'lgan eng kam miqdor belgilanadi.
Soliq davri	U tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan

hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davr.

Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi.

Joriy to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelgan davr hisobot davri bo'lmaydi.

Soliq hisobotini taqdim etish tartibi	Soliq hisobotini taqdim etish har bir soliq turi bo'yicha Soliq kodeksida alohida belgilanadi va oy, chorak, yilga bo'linadi.
To'lash tartibi	U Soliq kodeksida har bir soliq uchun alohida belgilanib, ularga muddatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Soliq to'lovchilar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari har bir soliq yoki boshqa majburiy to'lovga tatbiqan belgilanadi.

Soliq kodeksida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga byeriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar deb e'tirof etiladi.

Mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlarni byerish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Soliq to'lovchi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e'tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar bo'shagan mablag'larni muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan byerilishi mumkin. Bunday mablag'lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o'rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda byudjetga undirib olinadi.

### ***Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:***

- davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;

- o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;

- soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

- soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;

- Soliq kodeksida hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash;

- soliq solish ob'ektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

- soliq tekshiruvlari matyeriallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

- soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar byerish;

- davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining Soliq kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli

etkazilgan zararning o'rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliq to'lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to'lovchi vakillarining mazkur soliq to'lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to'lovchining harakati (harakatsizligi) deb e'tirof etiladi.

***Soliq to'lovchilarning majburiyatlari:***

- o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;
- qonun hujjatlariga muvofiq buxgalyeriya hisobini yuritishi, Moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

- soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

- Soliq agentlari yuqorida nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari:

- soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;

- soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingani hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi

bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

- Vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari Soliq kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Soliq to'lovlarini to'lash majburiyati. Soliq to'lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash, shuningdek Soliq kodeksida nazarda tutilgan holatlar bo'lgan taqdirda, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati Soliq to'lovlarini to'lash majburiyati deb hisoblanadi.

Soliq to'lovlarini to'lash majburiyati soliq to'lovchining hisobvarag'ida etarlicha pul mablag'lari bo'lgan taqdirda, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash uchun bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e'tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to'lov naqd pul mablag'lari bilan to'langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e'tiboran bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq to'lovlari summasini o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasi soliq to'lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan soliq to'lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek agar soliq to'lovchi bankka to'lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu soliq to'lovchining hisobvarag'iga qo'yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan, bajarilmagan talablar mavjud bo'lsa hamda soliq to'lovchi barcha talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqda etarlicha pul mablag'lariga ega bo'lmasa, Soliq to'lovlari to'langan deb hisoblanmaydi.

Soliq to'lovlarini to'lash majburiyati soliq kodeksining 10-bobida belgilangan tartibda hisobga olish orqali ham bajarilishi mumkin.

Soliq agentining ushlab qolingani summalarni byudjetga yoki davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishga doir majburiyati yuqoridagilarga muvofiq bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq to'lovlarini to'lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Soliq majburiyatining soliq to'lovchi tomonidan bajarilmaganligi yoki Soliq kodeksida belgilangan tartib buzilgan holda bajarilganligi unga nisbatan soliq

majburiyatining bajarilishini ta'minlash choralari qo'llash uchun asos bo'ladi.

Soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan Soliq kodeksida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilgan hollarda Soliq to'lovlarini to'lash majburiyati davlat soliq organining yozma talabnomasi olingan sanadan e'tiboran yuzaga keladi.

**Soliq to'lovlari to'lanishining hisobi** soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuritiladi.

Soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organi bilan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlari bajarilishiga doir solishtirma dalolatnoma tuzishni talab qilishga haqli. Davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchiga solishtirma dalolatnoma tuzishni rad etishga haqli emas.

**Soliq hisoboti tushunchasi.** Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek ularga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjati bo'lib, u Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda (*AV tomonidan 21.01.2019yilda 3126-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan*) tuziladi.

**Soliq hisobotini tuzish.** Soliq hisoboti qog'ozda va (yoki) elektron hujjat tarzida tuziladi.

Hisobot soliq to'lovchi tomonidan imzolanishi kerak, shuningdek agar u yuridik shaxs bo'lsa, uning muhri bilan tasdiqlanadi. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan hisobot soliq to'lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Bugungi kunda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisobotlarni yuritish, soliqlarni to'lash tizimini takomillashtirish, soliq va Moliyaviy hisobot shakllarini soddalashtirish, hamda ular hajmini qisqartirish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yuridik shaxs - soliq to'lovchi qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda, har bir qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan soliq to'lovchiga soliq davri boshlanganidan e'tiboran qayta tashkil etish yoki tugatish tugallangan kunga qadar bo'lgan davr yuzasidan tegishincha topshirish



dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoxud tugatish balansi asosida alohida-alohida soliq hisoboti tuziladi. Mazkur hisobot topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoki tugatish balansi tasdiqlangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida taqdim etiladi. Yuqoridagi qoidalar o'zgartirish, shuningdek boshqa yuridik shaxsni qo'shib olish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.**

1. Buxgalyeriya hisobining predmeti;
2. Soliq hisobining predmeti;
3. Buxgalyeriya hisobining ob'ekti nimadan iborat;
4. Soliq hisobining ob'ekti nimadan iborat;
5. Soliq hisobining vazifalari;
6. Buxgalyeriya hisobining tamoyillari;
7. Soliq hisobining tamoyillarining o'ziga xosligi nimalardan namoyon bo'ladi;
8. Metod nima;
9. Buxgalyeriya hisobining metodi;
10. Soliq hisobining metodi;
11. Soliq hisobining registrlari;
12. Hisobning analitik registrlari;
13. Sintetik hisob registrlari.

### **3-BOB. SOLIQ HISOBI TIZIMI VA HISOB SIYOSATI**

#### **3.1-§. Soliq hisobini tashkil etish va soliq hisobi siyosati.**

Hisob siyosatini o'rganishdan asosan maqsad uning mohiyatini ochish, soliq hisobi siyosatini ishlab chiqish hamda uni metodik jihatida to'g'risida bilimga ega bo'lish.

Respublikamizda qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobni, shu jumladan soliq hisobini yuritishni tashkil qilish maqsadida "hisob siyosati"ni ishlab chiqish va tasdiqlash ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunida hisob siyosati o'z aksini topmagan. O'zbekiston Respublikasi 1-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)da hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif byerilgan: "hisob yuritish siyosati deganda, xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish asoslari va qoidalariga mos ravishda usullarining qo'llanilishi tushuniladi"<sup>15</sup>.

Buxgalteriya hisobining metodologiyasi bilan bog'liq muammolar doimo dolzarb bo'lib kelgan. SHuning uchun ham uning tarkibiy qismi bo'lgan soliq hisobi metodologiyasini o'rganishimiz zarur.

Soliq hisobi metodologiyasi quyidagilardan tashkil topadi:

1. Soliq hisobi siyosatini ishlab chiqish va tasdiqlash.
2. Soliqqa tortish maqsadida soliq hisobida aks ettiruvchi hisob – soliq ko'rsatkichlarini shakllantirish. Masalan, soliq hisobi registrlari asosida foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani aniqlash.
3. Soliqqa tortiladigan bazani shakllantirish maqsadida soliq hisobi metodini aniqlash.
4. Umum qabul qilingan tamoyillari yo'riqnomalarni soliqqa tortish maqsadiga yo'naltirishning intyepretatsiyasi. Buning asosiy mazmuni shundan iboratki, bu metod soliq hisobining fiskal funksiyasini amalga oshiradi.
5. Soliq hisobi registrlari va soliqlar bo'yicha hisob-kitob hamda boshqa soliq

---


<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari. Toshkent. 2004. 16-b.

hujjatlar shaklini belgilash. Maxsus registrlar, hisob-kitoblar va soliq hujjatlarni yuritish soliq hisobi metodologiyasining texnik usullari bo'lib hisoblanadi.

Soliq hisobining registrlari: hisob-kitoblar, registrlardan iborat bo'ladi.

Soliq hisobi schyotlar rejasi va ishchi rejani ishlab chiqish hamda tasdiqlash.

Buxgalyeriya hisobi turlari moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblari bo'lgani singari hisob siyosati shu turlarga mos ravishda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. SHuni hisobga olgan holda hisob siyosatini umumiy tarkibiy qismini quyidagi 3.1-rasmda keltirilgan.



**3.1-rasm. Hisob siyosatining tarkibiy qismlari.**

SHundan kelib chiqqan holda «Soliq hisobi siyosati»ning mohiyatini ochishga hamda bu tushunchaga ta'rif byerishga harakat qilamiz.

Soliq hisobi siyosatiga quyidagicha ta'rif byerish mumkin:


**“Soliq hisobi siyosati – bu xo’jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan soliq hisobini yuritish va soliq hisobotini tuzish uchun tanlangan qoida va usullar majmuasidir”.**

Soliq hisobi siyosati xo’jalik yurituvchi sub’ektlar uchun ichki me’yoriy hujjat bo’lib hisoblanadi. Soliq hisobi siyosatini ishlab chiqishda quyidagi omillarni hisobga olish kyerak:

- mulk shaklini;
- xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyat turi;

- soliqqa tortish tizimi va to'lanadigan soliq turlari;
- korxonaning moddiy texnik bazasini;
- hisob xodimlarining malakasi va bilim saviyasini.
- axborotlarni yig'ish va nazorat qilishning yagona avtomatlashtirilgan tizimi;
- yagona dasturiy ta'minoti.


Soliq hisobi siyosati uchta, ya'ni, tashkiliy, texnik va uslubiy qismlardan iborat. Soliq hisobi siyosatining tarkibi chizma ko'rinishda byerilgan (3.2-rasm).



**3.2-rasm. Soliq hisobi siyosatining tarkibi.**

3.2-rasmdan ko'rinib turibdiki, soliq hisobi siyosatining tashkiliy qismida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda soliq hisobini yuritishning shakli, soliq hisobini olib borish kimga va qaysi bo'linmaga yuklatilganligi, buxgalteriya (moliyaviy) hisob

bilan soliq hisobining o'zaro bog'liqligi hamda hujjatlar aylanishini tashkil etish masalalari o'z aksini topgan. Soliq hisobi siyosatining texnik qismida soliq hisobining modeli uning registrlarining shakli, soliq hisobining ishchi schyotlar rejasi, soliq hisobi axborotlarini qayta ishlashning texnologiyasi hamda boshqa texnik masalalar bo'lishi kyerak.



3.3-rasm. Soliq hisobi siyosatining uslubiy aspekti.

Soliq hisobi siyosatining asosiy qismi bo'lib, uning metodologik tomoni hisoblanadi. Soliq hisobi siyosatining uslubiy qismini shakllantirishda buxgalyeriya (moliyaviy) va soliq hisobining o'zaro bog'liq hamda ularning farqli tomonlarini qiyosiy tahlil qilish zarur. Chunki, hisob siyosatining uslubiy tomonlari ko'p jihatdan shunga bog'liq. Shu asosda soliq hisobi tamoyillari metodlarini qo'llash va obektlarni hisobga olish uslubiyoti ishlab chiqiladi.

Soliq hisobi siyosatining uslubiy qismining tarkibi 3.3-rasmda aks ettirilgan. Bu qismda daromad va xarajatlarni tasnifi, ularni tan olish, mulk va TMZ ni baholash usullari, asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni amortizasiya ajratmasini hisoblash metodlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash va soliq hisobida aks ettirish metodikasi, soliq hisobotini tuzish va tegishli organlarga taqdim etish tartiblari ko'rsatiladi. Har bir obektning me'yoriy-huquqiy asosi hamda soliq hisobini tashkil etish va olib borish usullari e'tirof etilgan.

Soliq hisobi siyosatining uslubiy qismida quyidagi elementlarga alohida e'tibor berish kerak:

- aktivlar va majburiyatlarni baholash metodlariga;
- daromad va xarajatlarni soliq hisobida tan olishga;
- amortizasiyani hisoblash metodlariga;
- amortizasiya me'yorlarini qo'llashga;
- zahira (rezyerv)ni tashkil etishga;
- soliqlarni hisoblash, to'lash tartiblariga;
- soliqlar bo'yicha avans to'lovlarini amalga oshirish tartibiga;
- soliq hisobi analitik registrlari shakliga;
- soliq hisobida qo'llanadigan ishchi schyotlar rejasiga va boshqalarga.

Soliq hisobi siyosatining asosiy tarkibiy elementi bo'lib ishchi schyotlar rejasi hisoblanadi. Soliq hisobining ishchi schyotlar rejasi xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonida o'zining xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda ishlab chiqiladi.

Ishchi schyotlar rejasini shunday shakllantirish kerakki, schyotlardan olinadigan ma'lumotlar asosida qo'shimcha hisob-kitoblarsiz soliq turlari bo'yicha

hisobotlar tuzish imkoniyati yaratilishi lozim. Buning uchun schyotlar shunday tanlanishi kyerakki, bu schyotlarda daromadlar, xarajatlar hisobga olinib, schyotlardagi ma'lumotlar asosida soliq turlari bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash imkoniyatini byerishi zarur.

Soliq hisobi siyosatini shakllantirishda soliq turlarini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki soliqlarning har bir turi bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash usullari, hisob registrari yuritish, ularni schyotlarda aks ettirish bir-biridan farq qiladi.

### **3.2-§. Soliq bo'yicha operatsiyalarni hisobga olish**

2004 yilning 1 yanvaridan mulk shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda qo'llaniladigan yangi schyotlar rejasida byudjet bilan olib boriladigan operatsiyalarni hisobga olib borish uchun 11 ta balansli va 2 ta balansdan tashqari schyotlar belgilangan bo'lib, ular quyidagilar:

Balansli schyotlar: 0950 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan Foyda solig'i"; 3210 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan Foyda solig'i"; 4410 "Byudjetga soliqlar va yig'implar bo'yicha bo'nak to'lovlari"; 6240 "Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar"; 6250 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan Foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar"; 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz"; 7240 "Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar"; 7250 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan Foyda solig'i bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar"; 8840 "Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari"; 9810 "Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar"; 9820 "Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'implar bo'yicha xarajatlar" schyotlarni o'z ichiga oladi.

Balansdan tashqari schyotlarga esa: 012 "Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajat" 013 "Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo'yicha)" schyotlar kiradi.

Yuqorida keltirilgan schyotlarning oldiga qo'yilgan vazifalar turlicha. Bu vazifalarni buxgaltyerlar chuqur anglab amaliyotda ulardan to'g'ri foydalanishlari

zarur.

0950 “Vaqtinchalik farqlar bo’yicha kechiktirilgan Foyda solig’i” schyotida hisobot davrida to’lanadigan soliqning kechiktirilgan qismi hisobga olinadi. SHu bilan birga ushbu summa balansdan tashqari 012 “Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar” schyotning kirimiga yozib qo’yiladi.

Hisobot davri oxirida ushbu summa soliqqa tortiladigan bazaga qo’shib Foyda solig’iga tortiladi.

4410 “Byudjetga soliqlar va yig’imlar bo’yicha bo’nak to’lovlari” schyotida bo’nak soliq summolari, xususan, xarid qilingan xom-ashyo, matyeriallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa turdagi ishlab chiqarish zahiralari bo’yicha hisoblashish hujjatlarida alohida ko’rsatilgan qo’shilgan qiymat solig’i (QQS) hisobga olinadi.

4410 schyotida yig’ilgan soliq summalarini hisobdan chiqarish tartibi qonuniy va me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Buxgaltyeriya hisobida 4410 “Byudjetga soliqlar va yig’imlar bo’yicha bo’nak to’lovlari” schyotidan chiqarish operatsiyasi quyidagi buxgaltyeriya hisobi yozuvi bilan rasmiylashtiriladi: matyerial resurslari, tovarlar, ishlar va hizmatlarga tegishli QQS summasi qarz surishishga (zachetga) qabul qilinganda: D-t 6410 “Byudjetga to’lovlar bo’yicha qarz”, K-t 4410 “Soliqlar bo’yicha bo’nak to’lovlari” schyoti.

Amaldagi Nizom qonunchiligi asosida soliqlar bo’yicha imtiyozlar byerilgan quyidagi xo’jalik sub’ektlariga tegishli:<sup>16</sup>

- soliq, bojxona va majburiy to’lovlardan ozod qilish natijasida hosil bo’lgan mablag’larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo’naltiradigan xo’jaliklar;

- soliq to’lovlaridan vaqtinchalik ozod qilish natijasida hosil bo’lgan mablag’larni maqsadli foydalanishga yo’naltirmaydigan xo’jaliklar.

Chunonchi, 2003 yil 26 fevralda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Prezidentning Farmoni bilan Respublikada maxsus klinikalar va tibbiy markazlar tashkil etildi. Davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash maqsadida ushbu respublika ixtisoslashtirilgan markazlari o’z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan tibbiyot

---

<sup>16</sup> Soliqlar, boj va majburiy to’lovlarni byudjetga to’lash bo’yicha yuridik shaxslarga berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida aks ettirish to’g’risida»gi Nizom. 2002 yil 22 iyunda O’zR Adliya vazirligi tomonidan 1155-son bilan ro’yxatga olingan.



uskunalari va asboblari uchun 2003 yilning 1 martidan to 2012 yilning 31 dekabrigacha 10 yil muddatga barcha turdagi soliqlar, bojxona to'lovlari/bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'implardan tashqari/to'lashdan ozod qilinib, bushaydigan mablag'lar Markazlarni rivojlantirish va jihozlashga maqsadli tarzda yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Bunday maqsadlar uchun byudjetga to'lashdan ozod qilingan soliqlar summasi Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda (2-shakl) aks ettiriladi, demak korxonaning Moliyaviy natijalarini shakllanishiga ta'sir qiladi.

Byudjetga soliq to'lashdan byerilgan imtiyozlar yangi schyotlar Rejasi bo'yicha 8840 "Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari" schyotida hisobga olinadi.

Ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlar foydadan ajratma solig'idan qonunchilikka binoan vaqtinchalik imtiyozlarga aga bo'lishi mumkin. Bunday vaqtlarda umumiy belgilangan tartibda hisoblangan foydadan ajratma solig'i summasiga quyidagicha yozuv rasmiylashtiriladi: D-t 9810 "Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar", K-t 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz" schyoti bo'yicha ochilgan "Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar" schyoti.

Ushbu hisoblangan soliq summasi byudjetga o'tkazilmaydi, balki maqsadli foydalanish uchun byerilgan soliq imtiyozlari schyotiga o'tkaziladi: Dt 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz" schyoti bo'yicha ochilgan "Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar", 8840 "Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari" schyoti.

8840 – schyotda hisobga olinadigan qonunchilik bo'yicha soliqlardan ozod qilish natijasida hosil bo'lgan summa, agar imtiyozli davr ko'rsatilgan bo'lsa, ko'rsatilgan davr oxirida, boshqa hollarda esa har yili quyidagi hisobdan chiqariladi: D-t 8840 "Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari", K-t 8520 "Rezyerv kapitali" schyoti.

Maqsadli foydalanish uchun rezyerv kapitaliga o'tkazilgan mablag'dan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, shuningdek xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun foydalanganda 8520 "Rezyerv kapitali" schyoti debetlanib tayinlanishiga qarab

tegishli schyotlar kreditlanadi.

Soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlardan ozod qilinishi natijasida hosil bo'lgan mablag'lardan maqsadli foydalanganligini tasdiqlash uchun korxonalar va tashkilotlar har yili yillik Moliyaviy hisoboti bilan birga ushbu mablag'lardan foydalanishi to'g'risidagi hisob-kitobini topshiradi.

Soliq organlari tomonidan tekshirilganda soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlardan ozod qilinishi natijasida hosil bo'lgan mablag'larning belgilangan maqsadlarga emas, boshqa maqsadlar uchun foydalanganligi aniqlansa yoki imtiyozli davr tugaganga qadar import qilingan tovarlar sotilsa yoki boshqa tashkilotga byerilsa, belgilangan maqsad bo'yicha foydalanilmagan mablag'lar summasi, shuningdek, sotilgan mulklar bo'yicha bojxona to'lovlari summasi jarima choralarini qo'llagan holda boqimandasi bilan undirib olinadi.

Soliq organlariga topshirilgan hisob-kitoblarning to'g'riligi va o'z vaqtida topshirilishiga korxonalar va tashkilotlar javobgardir. Qonunchilik asosida soliq to'lovlardan vaqtinchalik ozod qilish natijasidada hosil bo'lgan mablag'larni maqsadli foydalanishga yo'naltirmaydigan korxonalar va tashkilotlarga misol qilib shuni ko'rsatish lozimki, yangi tashkil etilgan korxonalar ro'yxatdan o'tgan vaqtdan boshlab ikki yil davomida byudjetga mulk solig'i to'lashdan ozod qilinadi. Ushbu soliqdan ozod qilish natijasida hosil bo'lgan mablag' maqsadli foydalanishga yo'naltirilmaydi. Shunday shart bilan qonunchilikka binoan ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlar boshqa soliq, bojxona va majburiy to'lovlardan ozod qilinishi mumkin.

Hisoblangan boj to'lovlari, soliqlar (QQS to'lovchilar uchun QQS summasidan tashqari) va majburiy to'lovlar summasini tovarning sotish qiymatiga ham qo'shmaydi. Bunday xo'jalik yurituvchi sub'ektlar har bir byudjetga to'lov turi bo'yicha balansdan tashqari 013 "Vaqtinchalik soliq imtiyozlari" schyotida hisob yuritadi.

Umumiy belgilangan tartibda byudjetga hisoblangan soliq va to'lovlar summasi 013-schyotning kirimiga yozib boriladi. Byudjetga hisoblangan majburiy to'lovlar va soliqlar summasi Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettirilmaydi va Moliyaviy natijalarni shakllanishiga ta'sir etmaydi.

Soliqdan ozod qilish imtiyozli davri tugashi bilan soliqdan ozod qilish natijasida hosil bo'lgan mablag'lar balansdan tashqari 013 "Vaqtinchalik soliq imtiyozlari" schyotidan chiqim qilinadi. Bunda hisobdan chiqarilgan mablag'lar to'g'risidagi axborot imtiyozli davri tugagandan so'ng 5 yil ichida korxonada saqlanishi kyerak.

7240 "Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar" schyotida qonunchilikka binoan vaklotli hukumat organlari qarori bilan to'lashni bir necha yilga uzaytirishga ruxsat etilgan soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha byudjet oldidagi uzoq muddatli qarz aks ettiriladi.

Joriy yoki undan uzoqroq davrlarda to'lanishi kyerak bo'lgan to'lovlar summasi korxonaning kechiktirilgan majburiyatlari deb tan olinadi va ular kelajakda qaytariladi. Bu schyotning kreditida tegishli soliq va majburiy to'lovlarni hisobga oladigan schyotlar bilan korrespondentlangan holda uzoq muddatli kechiktirilgan to'lovlar summasi hisobga olinadi.

Masalan, korxonaga qonunchilikka binoan vakolati huquqiy organlari qarori bilan soliq to'lashni bir necha yilga uzaytirishga ruxsat etilgan bo'lsa, quyidagicha yozuv bilan rasmiylashtiriladi: D-t 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)", K-t 7240 "Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar" schyoti.

Shuningdek boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha to'lash muddati bir necha yilga kechiktirilgan hollarda 6510 "Sug'urta bo'yicha to'lovlar", 6520 "Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar" schyotlari debetlanib 7240 "Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar" schyoti kreditlanadi.

Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlarning joriy yilda to'lanadigan qismi 6240 "Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar" schyotining kreditida quyidagi aks ettiriladi: D-t 7240 "Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar", K-t 6240 "Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar" schyoti.

Bunday summani joriy yilda byudjetga o'tkazish hisoblanganda 6240 "Soliqlar

va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar" schyoti debetlanib, 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)" yoki 6510 «Sug'urta bo'yicha to'lovlar», 6520 "Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar" schyotlari kreditlanadi.

Ushbu summa byudjetga yoki sug'urta organlariga o'tkazib byerilganda yuqoridagi 6410, 6510 va 6520 schyotlari debetlanib, 5110 "Hisob-kitob schyoti" kreditlanadi.

7250 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar" schyotida vaqtinchalik farqlarning mavjudligi tufayli vujudga keladigan kechiktirilgan Foyda solig'i summasi aks ettiriladi.

Foyda solig'i bo'yicha xarajat hisob daromadidan hisoblab topiladi, to'lanadigan foyda solig'i esa soliqqa tortiladigan foydadan hisoblab topiladi. Hisob daromadi (foydasi) va soliqqa tortiladigan daromadi (foydasi)dan olinadigan soliqni aniqlashdagi yondoshishlar orasidagi farqi Moliyaviy hisobotda inobatga olinishi kyerak.

Korxonaning hisob siyosatiga binoan hisob ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan foyda solig'i daromad olish moboynida korxonadan tomonidan qilingan xarajat deb qaraladi va u tegishli daromad va xarajatlarni qaysi davrda vujudga kelgan bo'lsa, shu davrda hisoblanadi ham korxonaning Moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bunda hisob daromadidan hisoblab topilgan Foyda solig'i xarajati bilan soliqqa tortiladigan daromaddan hisoblab topilgan to'lashga tegishli foyda solig'i orasidagi farq vaqtinchalik farq sifatida hisobga olinib 7250 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar" schyotining kreditida quyidagi aks ettiriladi: D-t 9810 "Foyda solig'i bo'yicha xarajatlarni", K-t 7250 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan Foyda solig'i bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar" schyoti.

Har yili foyda solig'i bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlarning bir qismi Foyda solig'i bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlarning joriy qismidek 6250 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar" schyotida quyidagi aks ettiriladi: D-t 7250 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha

kechiktirilgan foyda solig'i bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar", K-t 6250 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan Foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar" schyoti.

Bunday summani joriy yilda byudjetga o'tkazish hisoblanganda 6250 "Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar" schyoti debetlanib, 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)" schyoti kreditlanadi. Ushbu summa byudjetga o'tkazib byerilsa 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)" schyoti debetlanib, 5110 "Hisob-kitob schyoti" kreditlanadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq Kodeksining 43-moddasiga binoan yilning hisobot choragida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan eng kam ish haqining ikki yuz barobaridan ko'proq miqdorda foyda olgan yuridik shaxslar Foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni har oyning 10 va 25 kunlarida yilning choragi bo'yicha Foyda solig'i summasining oltidan bir qismi miqdorida to'laydi.

Bu vaqtda hisoblangan bo'nak Foyda solig'i summasi 9810 "Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar" schyotining debetida quyidagicha yoziladi: D-t 9810 "Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar", K-t 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)" schyoti.

Ushbu summa belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkazib byerilsa 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)" schyoti debetlanib, 5110 "Hisob-kitob schyoti" kreditlanadi.

Hisobot davri tugagach yilik Moliyaviy hisobot tuzishda 9810 "Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar" va 9820 "Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'implar bo'yicha xarajatlar" schyotlarining debetida hisobga olingan soliqlar summasi 9910 "Yakuniy Moliyaviy natija" schyotining debetiga o'tkaziladi: D-t 9910 "Yakuniy Moliyaviy natija", K-t 9810 "Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar" va 9820 "Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'implar bo'yicha xarajatlar" schyotlari.

Demak, Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) summasidan Foyda solig'ini (9810-schyoti) va foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'implar (9820-schyoti) summasini ayrib tashlagandan so'ng hisobot davrining sof foydasi (zarari)

chiqadi va u Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-sonli shakl)ning 270-satrida ko'rsatiladi.

Sub'ektlar o'zining faoliyati jarayonida Soliq kodeksiga asosan belgilangan soliqlar bo'yicha yil davomida o'rnatilgan grafikka asosan soliqlar bo'yicha bo'nak summalarini to'lab boradilar. Ushbu to'langan bo'naklar yilning ohirida yakuniy Moliyaviy natijalaga olib boriladi va quyidagi schyotlarda hisoblanadi.

- 9810- Foyda solig'i bo'yicha sarflar.

- 9820- Foyda hisobidan ajratmalar bo'yicha sarflar.

9810- Foyda solig'i bo'yicha sarflar, 9820- Foyda hisobidan ajratmalar bo'yicha sarflar schyotlarining debeti yil davomida to'langan soliqlar, yig'imglar va byudjetga boshqa ajratmalar hisobga olinadi. Ushbu schyotlardagi summalar 9910- yakuniy Moliyaviy natija schyotining debeti bilan yopiladi (Debet 9910 va Kredit 9800).

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.**

1. Buxgalyeriya hisobining me'yoriy-huquqiy asoslarini ayting.
2. Soliq siyosatini takomillashuvi buxgalyeriya hisobiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
3. Soliq hisobi shakllanishining zaruriyati.
4. Soliq hisobi deganda nimani tushunasiz?
5. Soliq hisobining maqsadi nimadan iborat?
6. Soliq hisobining vazifalari.
7. «Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi» fanining predmeti.
8. Moliyaviy va soliq hisobining o'zoro bog'liqligi.
9. Buxgalyeriya hisobining qanday modellari mavjud?
10. "Inglizsakson" modelining mohiyati nimadan iborat?
11. Soliq hisobi qaysi mamlakatda rivojlangan?
12. Soliq hisobi ma'lumotidan foydalanuvchilar.
13. Hisob siyosati nima?
14. Hisob siyosatining tarkibi nimalarni o'z ichiga oladi?
15. Soliq hisobi siyosati.

16. Soliq hisobi siyosatida nimalar o'z aksini topadi?
17. Soliq hisobining uslubiy qismi nimalarni o'z ichiga oladi?
18. Hisob siyosati qaysi me'yoriy huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan?
19. Schyotlar rejasi va ichki schyotlar rejasi qanday tasdiqlanadi?
20. Soliqlar bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblar qaysi schyotlarda hisobga olib boriladi?

## IV- BOB. BEVOSITA SOLIQLAR HISOBI VA HISOBOTI

### 4.1-§. Bevosita soliqlar hisobini yuritishning ahamiyati va hisob registrlari.

Soliqlar mazmuni, uni ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va soliqqa tortish amaliyotini nazariy-uslubiy jihatdan o'rganib borishni talab etadi. SHu bois ham soliqlar o'zining turli xususiyatlariga ko'ra guruhlariga bo'lib o'rganiladi. Byudjetga yo'naltirilishiga ko'ra ular umumdavlat va mahalliy, soliq to'lovchilar maqomiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, soliqqa tortish manbaiga ko'ra daromad (foyda) va yalpi tushumdan to'lanadigan, soliq yukini taqsimlanishiga ko'ra esa bevosita va bilvosita hamda resurs soliqlariga bo'linadi. Soliqlarni yuqorida ta'kidlanganidek guruhlariga bo'lib o'rganish, hisob-kitobini yuritish nafaqat ular mazmun va mohiyatini chuqurroq o'rganishga balki, ular manbai, to'lovchilari hamda soliq yukini soliq to'lovchilarga taqsimlanishi kabi ko'rsatkichlarni ham anglashga xizmat qiladi.

#### **Bevosita soliqlar tarkibi:**

- *Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;*
- *Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;*

Ma'lumki xo'jalik yurituvchi sub'ektda sodir bo'lgan har bir xo'jalik jarayoni buxgaltyeriya hisobida o'z aksini topadi va ushbu jarayonlar to'g'risidagi axborotlar ular hisobini yuritish hamda jamlash uchun mo'ljallangan schetlarda umumlashtirilib boriladi.

Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyatlaridan biri bu uning moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi hisoblanadi. Ushbu majburiyatni bajarmaslik yoki belgilangan muddatlardan kech bajarish soliq to'lovchiga nisbatan huquqiy ta'sir chorasini ko'rish bilan bog'liq oqibatni keltirib chiqaradi.

Buxgaltyeriya hisobi soliq to'lovchining moliyaviy va soliq hisobotlarini tuzish hamda davlat soliq xizmati organlariga topshirish majburiyatini ta'minlash uchun



asosiy axborot manba bo'lib xizmat qiladi. Soliq to'lovchi buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlarisiz nafaqat moliyaviy hisobotlarni, balki soliq hisobotlarini ham to'ldira olmaydi. Chunki hisobot davrida amalga oshirilgan xo'jalik jarayonlarini sodir bo'lganligini hujjatli guvohlantirish va dastlabki hujjatlar asosida sodir bo'lgan jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qiymat shaklida jamlab borish buxgaltyeriya hisobi yordamida amalga oshiriladi. Mazkur ma'lumotlar ichki va tashqi foydalanuvchilarga axborotlar etkazib berish hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektning soliq to'lovchi sifatidagi soliq majburiyatlarini bajarishi uchun zarur axborot bazasi vazifasini o'taydi.

Lekin hisobot davrida buxgaltyeriya hisobida jamlab borilgan axborotlardan soliq hisobotlarini to'ldirishda to'g'ridan-to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Chunki buxgaltyeriya va soliq qonunchiligi sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlarini tan olishda turli usullardan foydalanadi. Qonunchilikda belgilangan me'yorlar buxgaltyeriya hisobi xalqaro va milliy standartlar talablariga muvofiq ma'lumotlarini guruhlariga bo'lib foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu zaruriyat tufayli buxgaltyeriya hisobining tarkibida alohida soliq hisobini yuritishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida qayd etilgan hisob hujjatlaridan biri bu, buxgaltyeriya hisobi registrlaridir. Bunday registrlar turiga O'zbekiston Respublikasining "Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq (15-modda) buxgaltyeriya hisobi registrlari ikki yoqlama yozuv usuliga muvofiq yuritiladigan jurnallar, qaydnomalar, kitoblar va tasdiqlangan blankalardan (shakllardan) iboratdir. Buxgaltyeriya hisobi registrlari texnika vositalaridan, axborot tizimlaridan va axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda elektron hujjat tarzida yaratilishi, ishlov berilishi va saqlanishi mumkin. Buxgaltyeriya hisobi registrlarida boshlang'ich hisob hujjatlaridagi ma'lumotlar tizimlashtirilishi va to'planishi kerak. Registrlarni shakllantirish tartibi buxgaltyeriya hisobining milliy standartlari bilan belgilanadi.

Hisob hujjatlarining boshqa turlariga soliq to'lovchining moliyaviy ko'rsatkichlarni va soliq ob'ekti, bazasini aniqlash va soliq imtiyozlarini tasdiqlovchi

solliq to'lovchi tomonidan tuziladigan solliq hisobi registrlari tushiniladi. Solliq hisobi va uning registrlari yordamida buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlaridan solliq xisobotlarini tuzish uchun zarur bo'lgan axborotlarni ajratib olinadi. Buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlaridan solliq hisobotlarini to'ldirish uchun talab etiladigan axborotlarni ajratib olish uchun solliq hisobi registrlarini tuzish zarur bo'ladi.

Solliq hisobi registrlarining turlari me'yoriy tartibda tasdiqlanmagan. SHu sababli ular har bir solliq to'lovchi tomonidan solliq hisobini yuritish bo'yicha tasdiqlangan hisob siyosatida uning nomi, shakli va boshqa rekvizetlari mustaqil ravishda belgilab qo'yilishi mumkin.

Bevosita solliqlar guruhiga kiruvchi yuridik shaxslardan olinadigan foyda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solliqlari bo'yicha belgilangan hisobotlarni tuzishda quyidagi solliq hisobi registrlaridan foydalanish mumkin:

- *solliq ob'ektlari to'g'risida ma'lumotnoma;*
- *solliq bazasining kamaytiriladigan miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;*
- *solliq imtiyozlari to'g'risidagi hisob-kitoblar;*
- *solliq bazasini aniqlash hisob-kitobi;*
- *jismoniy shaxslarning solliqdan ozod qilinadigan daromadlar to'g'risida ma'lumotnoma;*
- *infratuzilma ob'ektlari va ularni saqlash xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotnoma.*

Mazkur solliq hisobi registrlari ma'lumotlari dastlabki buxgaltyeriya hujjatlari va xo'jalik jarayonlarini hisobga olib boruvchi schetlar ma'lumotlari yordamida to'ldiriladi. Buxgaltyeriya hisobi maxsus elektron dasturiy mahsullar bo'yicha yuritilgan hollarda hisob registrlari va hisobotlar dasturiy mahsul yordamida to'ldiriladi. Hisob-kitob ishlarini yuritishda elektron dasturiy mahsuldan foydalanishning qulayligi yuqorida qayd etilgan hisob registrlar mustaqil ravishda dasturiy mahsul tomonidan to'ldirilib, ulardagi solliq bazasi, imtiyozlar, stavkasi, hisoblangan solliq miqdori kabi ma'lumotlar moliyaviy va solliq hisobotlari shakllarida aks ettirilishi bilan xarakterlidir.

#### **4.2-§. Bevosita soliqlar hisobi ob'ektlari va ular hisobini tashkil etish.**

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalyeriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining (6-modda) talabiga ko'ra Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan sho''ba korxonalari, vakolatxonalari, filiallari va boshqa tarkibiy bo'linmalari buxgalyeriya hisobi sub'ektlaridir.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxonalari, filiallari va boshqa tarkibiy bo'linmalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisob yuritadi hamda hisobot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxslar belgilangan tartibda buxgalyeriya hisobini yuritish tartiblari va moliyaviy xo'jalik faoliyatiga oid hujjatlarni saqlash muddatlari belgilangan. Soliq to'lovchining hisob-kitob ishlarini yuritmasligi yoki buxgalyeriya hujjatlarini yo'qotishi uning soliq majburiyatini bajarishidan ozod qilmaydi. Aksincha, bunday holatlarga yo'l qo'yish buxgalyeriya hisobini belgilangan tartibda yuritmaslik yoki hujjatlarni yo'q qilish javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Soliq to'lovchi tomonidan moliyaviy xo'jalik faoliyatiga oid hujjatlar yo'q qilingan taqdirda, soliq va majburiy to'lovlar bank hujjatlari, qarama-qarshi tekshiruv hamda shu toifadagi soliq to'lovchilarga hisoblangan soliq va majburiy to'lovlarga asoslanib hisoblanadi. Soliq va majburiy to'lovlarni hisoblashning bunday tartibi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq to'lovchining soliq majburiyatlaridan biri soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlash hamda ularning hisobini yuritish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 6-bobi aynan mazkur majburiyat va uning mazmunini belgilab byeradi. Soliq to'lovchilar tomonidan ushbu majburiyatni bajarish buxgalyeriya hisobi qonunchiligi va buxgalyeriya hisobining milliy standartlarida belgilangan talablar asosida hisob ishlarini yuritish yo'li bilan

ta'minlanadi.

Bevosita soliqlarni hisoblashda soliqlarni hisoblashning hisoblab yozish usuli bo'yicha, ya'ni tushum tovar, ish va xizmatlar uchun mablag' kelib tushgan sanadan qat'i nazar yuklab jo'natilgan tovar, bajarilgan ish hamda ko'rsatilgan xizmat hajmi asosida aniqlanadi.

**Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ob'ekti:**

*- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi;*

*- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ushbu bo'limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.*

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ob'ekti** bo'lib esa,

*- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;*

*- O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.*

*- Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, ushbu Kodeksning XX bo'limiga muvofiq yagona soliq to'lovi yoki qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.*

Bevosita soliqlar hisobining asosiy vazifasi ushbu soliq ob'ektlari va ular asosida aniqlanadigan soliq bazasini aniqlashni amalga oshirish hamda ular yordamida soliq hisobotlarini to'ldirish uchun axborotlarni jamlash hisoblanadi. Buning uchun soliq ob'ektlari bilan bog'liq hisob ob'ektlarini aniqlab olish zarur.

**Bivosita soliqlar hisobining ob'ektlari** ushbu soliq ob'ekti, bazasi, soliq turlari bo'yicha imtiyozlar va soliq miqdori kabi ma'lumotlarni aniqlash bilan bog'liq xo'jalik jarayonlari va ular natijasi hisoblanadi. Lekin har bir bevosita soliq bo'yicha soliq hisobi ob'ekti soliq elementlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. SHuning uchun har bir korxonada soliq hisobini tashkil etishda mustaqil yondoshuv talab etiladi.

Korxonada hisob siyosatida soliq hisobini tashkil etish va uni yuritishdagi o'ziga xos yondoshuvlar o'z aksini topishi shart.

**Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisobi ob'ektlarini** aniqlashda mamlakatimiz soliq qonunchiligi talablariga alohida e'tibor qaratish zarur. Mazkur soliq bazasi va byudjetga to'lanadigan soliq miqdori korxonada jami daromadini shakllantirish manbalari va faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar tarkibiga bog'liq. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisobi ob'ektlari aynan daromad va xarajat bilan bog'liq quyidagi jarayonlar hisoblanadi:

- *tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiyasidan olingan daromadlar;*
- *tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiyasidan olingan daromadga tuzatish kiritish bilan bog'liq jarayonlar;*
- *boshqa daromadlar;*
- *asosiy vositalar va boshqa mol-mulklar chiqimidan olingan daromadlar;*
- *mol-mulknini ijaraga berishdan olingan daromadlar;*
- *tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar;*
- *majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;*
- *talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;*
- *ilgari chegirilgan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzida olingan daromadlar;*
- *xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olingan daromadlar;*
- *kursdagi ijobiy farqdan olingan daromadlar;*
- *soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar;*
- *kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar;*
- *imtiyozlar va soliq hisob-kitobi.*

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha:**

- *mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;*
- *mulkiy daromadlar;*
- *moddiy naf tarzidagi daromadlar;*
- *boshqa daromadlar;*

– *imtiyozlar va soliq hisob-kitobi* soliq hisobining ob'ektlari bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz qonunchiligida tadbirkorlar uchun keng shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, ular qonun bilan ta'qiqlanmagan bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin soliq qonunchiligiga muvofiq faoliyat turlari uchun soliq solish rejimi va soliq stavkasi turlichadir. SHuning uchun soliq to'lovchi bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanganda soliq miqdorini to'g'ri hisoblashi uchun soliq ob'ektlari hisobini har faoliyat turi bo'yicha alohida yuritishni talab etadi.

Masalan, umumbelgilangan soliq to'lash tartibida faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchi asosiy faoliyat bilan birga umumiy ovqatlanish faoliyati bilan shug'ullanadi. Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i uchun soliq ob'ekti foyda bo'lib, mazkur soliq turi bo'yicha soliq stavkasi 12 foiz qilib belgilangan. Hisob ishlarida soliq ob'ektlarini alohida hisobini yuritmasdan soliq hisoblash va to'lash soliq to'lovchidan ortiqcha yoki kam miqdorda soliq undirishga olib keladi. SHuning uchun ham soliq solishning adolatlilik printsipli nuqtai-nazaridan kelib chiqib har bir faoliyat turi bo'yicha alohida hisob yuritish davlat uchun ham, soliq to'lovchi uchun ham manfaatlidir.

Soliq to'lovchi tomonidan soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar alohida-alohida hisobi ikki xil usulda, ya'ni mutanosib usul yoki to'g'ridan-to'g'ri hisob usuli bilan yuritilishi mumkin. Soliq to'lovchi yil boshida kalendar yili uchun korxonaga buyrug'i bilan tasdiqlanadigan o'z hisob siyosatini belgilab olishda buxgalyeriya hisobini yuritishning qanday usulni tanlagani ko'rsatadi. Soliq ob'ekti va ular bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olishni tanlangan usuli yil davomida korxonaga hisob siyosatida belgilangan tartibda olib boriladi va kalendar yili davomida o'zgartirilishi mumkin emas.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo'natilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo'natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish hajmlarini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar asosida aniqlanadi. Bunday hujjatlar:

- *shartnoma, tovar transport yuk xati;*

- *schet-faktura*;

- *ishlar bajarilgani yoki xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlovchi dalolatnoma kabi hujjatlar bo'lishi mumkin.*

Vositachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar uchun tushum, yuridik shaxs tomonidan mijozga ko'rsatilgan vositachilik xizmati uchun olinishi lozim bo'lgan haq summasi hisoblanadi. Vositachilik faoliyati deganda, mijozlarga ma'lum haq evaziga shartnomada belgilangan xizmat turini ko'rsatish tushuniladi. Bunday xizmat turlariga dilyerlik, brokyerlik, oldi-sotdi ishlari, maklyerlik kabi vositachilik ishlarini misol sifatida ko'rsatish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda bir-birlari bilan uzoq muddatli ishlarni bajarishga mo'ljallangan shartnomalar tuzishi mumkin. Bunday xo'jalik munosabatlari natijasida daromad va xarajatlar turli soliq davrlariga bo'linadi. SHuning uchun bunday operatsiyalar bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlashda yuridik shaxslar tomonidan uzoq muddatli kontraktlarni bajarishdan olinadigan daromadlar kontraktning haqiqatda bosqichma-bosqich bajarilishiga qarab hisoblanishi lozim. Uzoq muddatli kontraktning hisobot davri oxirida haqiqatda bajarilganligi kontraktni bajarish boshlangan paytdan qilingan xarajatlarning ushbu kontrakt ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan jami xarajatlar umumiy summasidagi solishtirma salmog'ini hisob-kitob qilish asosida belgilanadi.

Hisobot davri oxiridagi daromad kontrakt bo'yicha qilingan xarajatlarning hisoblangan solishtirma salmog'i va jami daromad summasining hosilasi sifatida aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo'yicha ilgari hisobotlarda hisoblangan daromadlar joriy hisobot davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadni aniqlashda chegirib boriladi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar (xizmatlar) bo'yicha, shuningdek ob'ektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog'ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to'lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan (ko'rsatilgan) va tasdiqlangan ishlarning (xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan miqdori daromadga qo'shiladi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslarning tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan yoki olinishi lozim bo'lgan daromadlari uning jami daromadlarini aniqlashda hisobga olinishi zarur. Buning uchun korxonaning buxgaltyeriya hisobi schyotlari ma'lumotlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 21-sonli "Buxgaltyeriya hisobi milliy standartlari"ga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumni buxgaltyeriya hisobida hisobga olish uchun quyidagi schyotlardan foydalaniladi:

9010- *"Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad"*

9020- *"Tovarlarni sotishdan olingan daromad"*

9030- *"Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar"*

9040- *"Sotilgan tovarlarning qaytarilishi"*

9050- *"Xaridor va buyurtmachilarga byerilgan chegirmalar"*.

9010- *"Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar"*,

9020- *"Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar"*,

9030- *"Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar"*

*schyotlarining kreditida korxonaning asosiy faoliyatidan (mahsulot sotish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish) olingan daromadlar aks ettiriladi va 4010- "Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar", 4110- "Alohida balansga ajratilgan bo'linmalardan olinadigan schyotlar" hamda pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti bilan o'zaro korrespondentsiyada bo'ladi. Oldingi davrda olingan, ammo hisobot yiliga tegishli bo'lgan daromadlar (avans) summasiga pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar debetlanib, 6210- "Muddati uzaytirilgan daromad» yoki 6310- «Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar" schyotlari kreditlanadi.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlar (ish va xizmatlar) narxlari erkindir. Ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi shart-sharoit va vaziyatdan kelib chiqib tovari (ish yoki xizmat) narxini oshirishi yoki pasaytirishi ham mumkin. Tovar (ish yoki xizmat) narxi haqiqiy qiymatidan yuqori bo'lganda, narxlar o'rtasidagi ijobiy farq daromad tarkibiga kiritiladi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi yoki xarid bahosi va xarajatlardan past baholarda realizatsiya qilingan, bepul byerilgan hollarda soliq



solish bazani aniqlashda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi yoki tovarlar xarid bahosi va xarajatlarini hisobga olgan holda aniqlanishi zarur bo'ladi.

Sotilgan tayyor mahsulot, tovarlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi to'g'risidagi axborotlar quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

9110 "Sotilgan mahsulot tannarxi"

9120 "Sotilgan tovarlar tannarxi"

9130 "Sotilgan ish va xizmatlar tannarxi"

9140 "Davriy hisobda TMZlarni xarid qilish va sotish"

9150 "Davriy hisobda TMZlar bahosiga tuzatishlar".

Sotilgan tayyor mahsulot, tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi 9110, 9120, 9130-schyotlarning debeti va 2010-"Asosiy ishlab chiqarish", 2810-"Ombordagi tayyor mahsulot", 2910-"Ombordagi tovarlar" schyotlarining krediti bilan o'zaro korrespondentsiyada aks ettiriladi.

Ushbu xo'jalik jarayonlari buxgaltyeriya xisobida quyidagi yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

#### 4.1-jadval

#### Xo'jalik jarayonlari buxgaltyeriya xisobida schyotlarning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi		Summa
		Debet	Kredit	
1	Mahsulotlar, tovarlar jo'natish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish (QQS, aktsizlardan tashqari) jarayoni	4010,4020	9010, 9020, 9030	Xaridorlarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlaridagi summaga
2	Mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni naqd pulga sotish	5010,5020	9010, 9020, 9030	Sotuvdan tushgan tushum miqdoriga
3	Korxonada xodimiga mahsulot, tovar, sotish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish	4790	9010, 9020, 9030	Mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmat summasiga
4	Dividendlarni mahsulot, tovar, ish va xizmat shaklida to'lash	6610	9010, 9020, 9030	Mahsulot, tovar, ish va xizmat summasiga
5	Vositachilik operatsiyalari bo'yicha komission mukofotlar to'lash	4010	9010	Mukofot summasi miqdoriga
6	Mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlar sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga sotish	4120	9010, 9020, 9030	taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlari-dagi summaga
7	Kechiktirilgan daromadlar summasi taalluqli hisobot davri sotish hajmiga kiritildi	6230	9010, 9020, 9030	Kechiktirilgan daromad summasiga

8	Sotilgan tovarlarning qaytishi	9040	4010	Hisob hujjatida aks ettirilgan summaga
9	Xaridorga chegirmalar byerish	9050	4010	Hisob hujjatidagi chegirma miqdoriga
10	Hisobot davrining oxirida 9040 schyotining yopilishi	9010,9020	9040	9040 schyotdagi qoldiq summaga
11	Hisobot davrining oxirida 9050 schyotini yopilishi	9010,9020, 9030	9050	9030 schyotdagi qoldiq summaga
12	Asosiy (opyeratsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	9010,9020, 9030	9910	9010, 9020, 9030 schyotlardagi qoldiq summaga

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilingandan so'ng turli sabablarga ko'ra sotuvchiga qaytarilishi yoki shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Ushbu holatlarda olingan daromadlarga tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganligi uchun tuzatish kiritiladi. Yuridik shaxslarning daromadiga quyidagi hollarda tuzatish kiritishga ruxsat etiladi:

- tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- bitim shartlari o'zgarganda;
- baholar o'zgarganda, sotib oluvchiga chegirma byerilganda;
- bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganlik holati bo'yicha tuzatish kiritish uchun ularni qaytarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi zarur. Bunda tovarni (ishni, xizmatni) etkazib byeruvchi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritishda yangi hisob varaq faktura rasmiylashtiriladi.

Mazkur xo'jalik jarayonlarini hisobini yuritish uchun buxgaltyeriya hisobi schyotlar rejasida alohida schyotlar mavjud bo'lib, daromadlarga tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganlik holati bo'yicha tuzatish kiritish uchun ularni qaytarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida tegishli buxgaltyeriya yozuvlari bilan rasmiylashtirish talab etiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt sotilgan mahsulotining qaytarib olinishini quyidagi buxgaltyeriya yozuvlari bilan rasmiylashtiradi:

**D-t – 9040 “Sotilgan mahsulotning qaytarilishi” schyoti**

**K-t - 4010 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”**

Qaytarib olingan mahsulot va tovarlarning tannarxiga ham tegishli tartibda buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi. Hisobot davri oxirida 9040-schyotning debet saldosi yakuniy moliyaviy natijaga o'tkaziladi:

**D-t – 9900 “YAkuniy moliyaviy natija” schyoti**

**K-t – 9040 “Sotilgan tovarlarning qaytarilishi” schyoti**

9050-“Xaridor va buyurtmachilarga byerilgan chegirmalar” schyotida tayyor mahsulot va tovarlar qiymatidan xaridor yoki buyurtmachilarga byerilgan chegirmalar hisobga olinadi. Xaridor va buyurtmachilarga chegirmalar byerilganida quyidagi buxgalteriya yozuvlari rasmiylashtiriladi:

**D-t-9050 “Xaridor va buyurtmachilarga byerilgan chegirmalar” schyoti**

**K-t- 4010 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”,**

**4110 “Ajratilgan bo'linmalardan olinadigan schyotlar”.**

Hisobot davri oxirida 9050-schyotning debet saldosi yakuniy moliyaviy natijaga kuyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan o'tkaziladi:

**D-t - 9900 “YAkuniy moliyaviy natija” schyoti**

**K-t-9050 “Xaridor va buyurtmachilarga byerilgan chegirmalar” schyoti**

Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq schyotlar rejasida byudjetga foyda solig'i bo'yicha yil davomida joriy to'lovlar hisoblash, to'lash, hisob davri uchun solik miqdorini hisoblash, to'lash va ushbu soliq turi bo'yicha qayta hisoblashlar bilan bog'liq jarayonlarni hisobga olish uchun 9810 “Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar” schyoti rejalashtirilgan. Soliq to'lovchining foyda solig'i bo'yicha yil davomida byudjetga hisoblagan va to'lagan soliqlari miqdoriga quyidagi buxgalteriya yozuvlari rasmiylashtiriladi (4.2-jadval)

#### 4.2-jadval

#### Soliq to'lovchining foyda solig'i bo'yicha yil davomida byudjetga hisoblagan va to'lagan soliqlarining buxgalteriya yozuvlari rasmiylashtirilishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi		Summa
		Debet	Kredit	
1.	Foyda solig'i bo'yicha byudjetga joriy to'lov va soliqlarni hisoblash	9810	6410	Joriy to'lov va hisoblangan soliq summasiga
2.	Foyda solig'i bo'yicha byudjetga	6410	5110	Byudjetga to'langan joriy

	hisoblangan joriy to'lov va soliqlarni to'lash			to'lov, soliq summasi miqdoriga
3.	Hisoblangan foyda solig'i miqdoriga tuzatish kiritilgandan	9810	6410	Kiritilgan tuzatish summasiga
4.	Hisobot davrining oxirida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotning yopilishi	9910	9810	Xisobot davri oxirida 9810 schyotidagi debit qoldiq summaga

Soliq to'lovchi tomonidan byudjetga hisoblangan obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lov, soliq miqdoriga:

**D-t: 9820 “Foydadan hisoblanadigan boshqa soliq va yig'implar bo'yicha xarajatlar” schyoti;**

**K-t: 6410 “Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar (turlari bo'yicha)” schyoti.**

Soliq to'lovchi tomonidan hisoblangan obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i byudjetga o'tkazib byerilganda quyidagi buxgaltyeriya yozuvlari rasmiylashtiriladi:

**D-t: 6410 “Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar (turlari bo'yicha)” schyoti;**

**K-t: 5110 “Hisob-kitob schyoti”.**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ish byeruvchi (soliq agenti) tomonidan ushlab qolinganda quyidagi buxgaltyeriya yozuvlari rasmiylashtiriladi:

**D-t: 6710 “Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashlar” schyoti;**

**K-t: 6410 “Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar (turlari bo'yicha)” schyoti**

Soliq to'lovchi tomonidan ushlab qolinganda soliq summasi byudjetga o'tkazib byerilganda quyidagi buxgaltyeriya yozuvlari qayd etiladi:

**D-t: 6410 “Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar (turlari bo'yicha)” schyoti;**

**K-t: 5110 “Hisob-kitob schyoti”.**

Xo'jalik yurituvchi sub'ektda bevosita soliqlar bo'yicha byudjetga bo'naklar, soliqlarni hisoblash va to'lash bilan bog'liq sodir bo'lgan jarayonlarni buxgaltyeriya

hisobining tegishli schyotlari aks ettirib borish axborotlardan foydalanuvchilarni tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlash hamda soliq nazoratini o'tkazish samaradorligi va sifatini yaxshilash uchun xizmat qiladi.

#### **4.3-§. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisobi hisoboti.**

Ma'lumki soliq qonunchiligi soliq to'lovchi zimmasiga soliq munosabatlari ishtirokchisi sifatida bajarishi shart bo'lgan bir qator soliq majburiyatlarini yuklaydi. Soliq to'lovchining majburiyatlari tizimi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 32-moddasida belgilab qo'yilgan. Soliq to'lovchilar:

o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;

qonun hujjatlariga muvofiq buxgaltyeriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;

davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Soliq agentlari ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari:

soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;

soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingan hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan, har bir soliq to'lovchi

bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq, soliq to'lovchilar zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

**Soliq hisoboti** soliq to'lovchining buxgalyeriya hisobi ma'lumotlari asosida tuziladigan soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan **hujjat** hisoblanadi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchida hisobot davridagi soliqlarni hisoblash va to'lash bilan bog'liq ob'ektlar, ular tarkibi hamda miqdorlari kabi axborotlarni o'zida mujassam qiladi. Soliq to'lovchi soliq hisobotlarini har bir soliq turi bo'yicha qonunda belgilangan shakl va muddatlarda davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha davlat soliq xizmati organlariga topshiriladigan soliq hisobotlari turlari va ularning tarkibi kuyidagilardan iborat:

– *Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash uchun ma'lumotnoma;*

– *Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchisi to'g'risida ma'lumotlar;*

– *Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobi;*

– *1- ilova. Chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar);*

– *2-ilova. Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirilmaydigan, biroq keyingi hisobot davrlarining soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadigan xarajatlar (9440-hisobvaraqa hisobga olingan xarajatlar);*

– *3-ilova. Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadigan ilgari qilingan xarajatlar (012-balansdan tashqari hisobvaraqa ma'lumotlari bo'yicha);*

– *4-ilova. Soliq solishdan ozod qilinadigan foyda;*

- 5-ilova. Soliq solinadigan foydani kamaytirish;
- 6-ilova. Mahalliyashtirilayotgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan foyda hisob-kitobi;
- 7-ilova. Hisobot (soliq) davri uchun soliq solinadigan foydani kamaytiradigan, investitsiyaga (modyernizatsiyalash, o'z ishlab chiqarishini texnik va texnologik qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun byerilgan kreditlarni uzishga, lizing ob'ekti qiymatini qoplashga) yo'naltiriladigan mablag'lar summasi hisob-kitobi;
- 8-ilova. Hisobot (soliq) davridagi soliq solinadigan foydani kamaytiradigan o'tgan yil (o'tgan yillar) zarari yoki zararining bir qismi summasining hisob-kitobi;
- 9-ilova. Plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlardan olingan foydaning hisob-kitobi;
- 10-ilova. Eksport ulushiga qarab foyda solig'i stavkasiga tuzatish kiritish
- 11-ilova. Nogironlar mehnatidan foydalanadigan korxonalar uchun foyda solig'ining tuzatish kiritilgan summasi;
- 12-ilova. Daromadlar hisobini yuritish hisobvaraqlarida hisobga olinadigani va soliq solish maqsadida daromad sifatida qaralmaydigan foyda (daromad) summasi;
- Soliq agentlari tomonidan dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlardan to'lov manbaida ushlab qolinadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobi;
- To'lov manbaida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini ushlab qoladigan yuridik shaxs to'g'risida ma'lumotlar;
- Jami daromad summasi va to'lov manбайдan ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining umumiy summasi to'g'risida ma'lumotnoma
- Daromad summasi va ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining jami summasi to'g'risida ma'lumotnoma

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha hisobot davri yilning choragi hisoblanadi. Soliq to'lovchilarning hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydasi eng kam ish haqining ikki yuz baravari miqdorni tashkil etsa, ular mazkur soliq turi bo'yicha byudjetga joriy to'lovlarni to'laydi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar summasi joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda miqdori va soliq stavkasi asosida hisoblanadi. Soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining byudjetga hisoblangan joriy to'lovlari bo'yicha hisobot davri birinchi oyi 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga kuyidagi shakldagi ma'lumotnomani taqdim etadilar (1-jadval).

#### 4.3-jadval.

### Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash uchun MA'LUMOTNOMA

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Hisobot davrida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda	010	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasi, foizda	020	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi (010-satr x 020-satr)	030	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha har oylik joriy to'lovlar summasi (030-satr / 3)	040	

Mazkur soliq turi bo'yicha joriy to'lovlar byudjetga hisobot choragi har oyi 10-sanasigacha hisoblangan soliq summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi. Soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga to'lanishi zarur bo'lgan joriy to'lov miqdorini to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida to'lab byerish davlat majburiyatining bajarilishi bilan bog'liq hisoblanadi. Chunki har bir soliq turi bo'yicha hisoblangan soliqlar va joriy to'lovlar byudjetda rejalashtirilgan xarajatlarni belgilangan muddatlarda moliyalashtirishning manbai hisoblanadi. Soliq to'lovchilarda byudjetga to'lovlar



bo'yicha mas'uliyat hissini tarbiyalash va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i byudjetga hisoblangan joriy to'lov miqdorini to'g'ri hisoblashni ta'minlash maqsadida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoning miqdori belgilab qo'yilgan.

Soliq qonunchiligi talabiga ko'ra soliq to'lovchi tomonidan joriy to'lov miqdori chorak yakuni bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq miqdorga kamaytirilgan bo'lsa, davlat soliq xizmati organlari tomonidan foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblanadi va joriy to'lov miqdori qayta hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalyeriya hisobi schetlari va dastlabki hisob hujjatlari asosida aniqlangan soliq bazasi hamda belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda quyidagi tartibda hisoblanadi (4.4-jadval).

#### 4.4-jadval.

### Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i HISOB-KITOB

Ko'rsatkichlar (o'sib boruvchi tartibda to'ldiriladi)	Satr kodi	Summa
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langunga qadar foyda (zarar) ("Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" - 2-sonli shaklning 240-satri)	010	
Soliq solish maqsadida daromad sifatida e'tirof etilmaydigan daromadlar (Hisob-kitobning 1-ilovasi 010-satri)	011	
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tannarxidan past baholarda realizatsiya qilishdan va tekin byerishdan ko'rilgan zararlar	020	
Soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar	030	
Davlatning ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining eng kam stavkalaridan kelib chiqib hisoblangan ijara haqi miqdorini shartnomada belgilangan ijara haqi miqdoridan oshgan summasi	040	
Chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga qayta qo'shiladigan xarajatlar) (Hisob-kitobning 2-ilovasi 010-satri)	050	
Kelgusida soliq solinadigan foydadan chegiriladigan hisobot davrining xarajatlari (Hisob-kitobning 3-ilovasi 010-satri 3-ustun - 010-satri 4-ustun)	060	
Olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar va foizlar – jami (071-satr + 072-satr)	070	
O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan	071	
O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan	072	

Soliq solinadigan foyda (010-satr - 011-satr + 020-satr + 030-satr + 040-satr + 050-satr + 060-satr - 070-satr)	080	
Imtiyozlar - jami (Hisob-kitobning 4-ilovasi 3-ustun 030-satri)	090	
Soliq solinadigan baza (080-satr – 090-satr)	100	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasi, foizda	110	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi – jami (100-satr x 110-satr)	120	
Nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanayotgan korxonalar uchun foyda solig'ining tuzatish kiritilgan summasi	130	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisobot davri uchun hisoblangan summasi, jami (120-satr – 130-satr – Hisob-kitobning 7-ilovasi 090-satri + Hisob-kitobning 8-ilovasi 060-satri 3 va 4 ustunlar yig'indisi), shu jumladan:	140	
alohida bo'linmalar joylashgan joyi bo'yicha (alohida bo'linmaga to'g'ri keladigan foyda solig'i summalarini hisob-kitobidan kelib chiqib)	141	

Soliq to'lovchilar tomonidan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha hisob-kitob davlat soliq xizmati organlariga o'sib boruvchi yakun bilan yilning har choragida bir marta hisobot choragi keyingi oyi 25-sanasi, yil yakunlari bo'yicha hisobot keyingi yilning 15 fevraligacha bo'lgan muddatda taqdim etiladi.

Mamlakatimizda faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezidentlar doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi erkin shaklda tuzilgan hisobotni, shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobini hisobot yilidan keyingi yilning 25 martidan kechikmasdan taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan to'lov manbaida olinadigan foyda solig'i miqdori soliq to'lovchi tomonidan belgilangan stavkalarni chegirmalarni amalga oshirmasdan to'lanadigan daromad summasiga nisbatan qo'llab hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslarga dividendlar va foizlar, O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga daromadlar to'laydigan hamda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini ushlab qolish va byudjetga o'tkazish uchun majburiyati yuklatilgan O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi,

O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentlariga daromad to'lovchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari davlat soliq xizmati organlariga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobini to'lov amalga oshirilgan hisobot davri tugagandan keyin yigirma besh kun ichida va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, ularning nomi, daromadining umumiy summasi va soliq davri uchun ushlab qolingan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining umumiy summasi ko'rsatilgan belgilangan shakldagi ma'lumotnomani soliq davri tugaganidan keyin o'ttiz kun ichida taqdim etishi shart hisoblanadi.

Ushbu soliq to'lovchilar byudjetga hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga dividendlar, foizlar va to'lovlarni to'lash sanasidan kechikmasdan, banklar esa O'zbekiston Respublikasining norezidentlariga amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha to'lov amalga oshirilgan oydan keyingi oyning besh kuni mobaynida byudjetga to'lab byeradilar.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarisida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi mamlakatimizning xalqaro shartnomalariga muvofiq, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i respublikamiz byudjetiga to'lash paytida hisobga olinadi. Yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromad qilingan xarajatlar hamda O'zbekiston Respublikasidan tashqarisida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirib tashlanguniga qadar to'liq miqdorda soliq to'lovchining jami daromadiga qo'shiladi. Ushbu foyda olish uchun qilingan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar soliq solinadigan bazani aniqlashda belgilangan tartibda va miqdorlarda chegiriladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasini hisobga olish uchun chet davlat vakolatli organi to'lov xabarnomasi, ma'lumotnomasi yoki ushbu soliq to'langanligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobining 12 ta ilovalari ham buxgalyeriya hisobi schetlari va dastlabki hisob hujjatlari ma'lumotlari asosida

to'ldiriladi. Ushbu soliq turi bo'yicha hisob-kitobga ilovalar agarda ularni to'ldirish bilan bog'liq xo'jalik jarayonlari soliq to'lovchida mavjud bo'lgan hollarda davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi. Hisob-kitob qatorlarini to'ldirish bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektda xo'jalik jarayoni amalga oshirilmagan taqdirda, ushbu qatorga «0» raqami qo'yiladi. Bunday hollarda davlat soliq xizmati organiga «0» raqami qo'yilgan qatorni to'ldirish uchun zarur bo'lgan hisob-kitob ilovasi topshirilmaydi.

Bundan tashqari soliq agentlari zimmasiga dividend va foizlar ko'rinishidagi daromadlar to'langan hollarda to'lov manbaidan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini ushlab qolish hamda byudjetga o'tkazish vazifasi yuklatilgan. SHuning uchun soliq agentlari dividend va foizlar ko'rinishidagi daromadlar to'langanda quyidagi shakldagi hisob-kitobni buxgatyeriya hisobi tegishli schetlari ma'lumotlari asosida to'ldirib davlat soliq xizmati organiga taqdim etadilar (4.5-jadval).

#### 4.5-jadval.

#### **Soliq agentlari tomonidan dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlardan to'lov manbaida ushlab qolinadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i HISOB-KITOB**

<b>Ko'rsatkichlar</b> (o'sib boruvchi tartibda to'ldiriladi)	<b>Satr kodi</b>	<b>Dividendlar</b>	<b>Foizlar</b>
1	2	3	4
I. Yuridik shaxslarning dividend va foiz tarzidagi daromadlari			
Hisobot (soliq) davrida hisoblangan dividendlar va foizlar – jami	010		
Soliq solish bazasi – hisobot (soliq) davrida yuridik shaxslarga – to'langan dividendlar va foizlar, jami (021-satr + 022-satr), shu jumladan:	020		
O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga to'langan dividendlar va foizlar	021		
O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga to'langan dividendlar va foizlar	022		
Soliq solinadigan bazani kamaytirish – jami (031-satr + 032-satr), shu jumladan:	030		
davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha olingan foizlar	031	X	

boshqa imtiyozlar – jami (0321 – 032...-satrlar yig'indisi)	032		
	0321		
	0322		
	032...		
Kamaytirishlarni hisobga olgan holda soliq solinadigan baza (020-satr – 030-satr)	040		
Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlardan olinadigan soliq stavkasi, foizda	050		
Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi (040-satr x 050-satr)	060		

Soliq agentlari (rezident va norezidentlar) davlat soliq xizmati organlariga dividendlar va foizlar ko'inishidagi daromatlardan to'lov manbaidan ushlab qolgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobini to'lov amalga oshirilgan hisobot davri tugagandan keyin yigirma besh kundan kechiktirmay, daromad va soliq davri uchun ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumiy summasi ko'rsatilgan kuyidagi shakldagi ma'lumotnomani esa soliq davri tugaganidan keyin o'ttiz kun ichida taqdim etadilar (1-ilova).

Ma'lumotnoma 3-ustunidagi soliq to'lovchining indentifikatsiya raqamlari O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'yicha ko'rsatiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobini hisobot yilidan keyingi yilning 25 martigacha qadar taqdim etadi. Norezident faoliyatini kalendar yil tugashidan avval tugatgan bo'lsa, hisobotlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmasdan taqdim etiladi (2-ilova).

O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan davlat soliq xizmati organlariga topshiriladigan ushbu hisobotga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i miqdorini hisoblash bilan bog'liq daromad va xarajatlar tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan quyidagi ilovalarni ham taqdim etiladi:

❖ *Doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan daromadlar (1-ilova).*

❖ *Chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar)( 2-ilova).*

❖ *Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanmaydigan, biroq keyingi hisobot davrlarining soliq solinadigan bazasidan chiqariladigan xarajatlar (9440-hisobvaraqa da hisobga olinadigan xarajatlar) (3-ilova).*

❖ *Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadigan ilgari qilingan xarajatlar (012-balansdan tashqari hisobvarag'i bo'yicha ma'lumotlar) (4-ilova).*

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs-O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchisi hisoblanadilar. Amaldagi qonunchilik me'yorlari muvofiq soliqqa tortishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar hamda notijorat tashkilotlar ushbu soliqni to'lamaydi. Lekin notijorat tashkilotlari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansalar, byudjetga mazkur soliqni to'laydilar va belgilangan shakldagi hisobotlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etadi.

Hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan, ilgari hisobot davrida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlash xarajatlari summasi soliq solinadigan baza summasiga teng yoki undan ko'p bo'lgan soliq to'lovchilar hamda yagona soliq to'lovini to'lashga o'tmagan mikrofirmalar va kichik korxonalar hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni to'laydi.

Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasi hamda mazkur soliq turi uchun belgilangan stavkasi asosida soliq to'lovchi tomonidan hisoblanadi. Soliq to'lovchi tomonidan byudjetga hisoblangan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hisoblangan joriy to'lov summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 10-sanasi dan kechikmay to'lanadi.

#### **4.4-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobotini tuzish taqdim etish.**

Mamlakatimiz soliq siyosatida soliqqa tortish bo'yicha umume'tirof etilgan tamoyillar qo'llaniladi. Soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan biri uning adolatlilik tamoyili hisoblanadi. Ushbu tamoyil soliq solish umumiyligi hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo'lishi talab etadi. Dunyo soliqqa tortish amaliyotida eng keq tarqalgan soliq turlaridan biri bu, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblanadi. Jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq ob'ekti, bazasi, stavkasi va hisobot tizimi kabi elementlari har bir davlat soliq siyosati asoslaridan kelib chiqib belgilab olinadi.

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar soliq qonunchiligida belgilangan daromadlaridan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqni to'lovchilar hisoblanadi. Soliq qonunchiligi talabiga muvofiq jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi rezidenti va ushbu me'yorga mos kelmagan jismoniy shaxslar esa norezidenti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarning respublikasi va undan tashqarisidagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlariga soliq solinadi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga esa, faqat O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlariga soliq solinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ob'ekti bo'lib jismoniy shaxsning jami yillik daromadi hisoblanadi. Jismoniy shaxs jami daromadidan soliq qonunchiligida belgilangan chegirmalarni ayirish natijasida soliqqa tortiladigan baza aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasining rezidentlarining mamlakatimizdan tashqarida to'lagan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari

O'zbekiston Respublikasida soliq to'lash paytida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi. Lekin soliq to'lovchilarning hisobga olinadigan solig'i summasi miqdori jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliqning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo'yicha hisoblangan daromad solig'i summasidan oshmasligi lozim.

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslarga soliq to'lovchi yuridik shaxslar, norezidentlar va chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari jismoniy shaxslarga hisoblangan daromadlardan daromad solig'ini undirib, byudjetga o'tkazishni ta'minlash vazifasi yuklatilgan soliq agentlari hisoblanadi. SHu sababli qayd etilgan soliq agentlari davlat soliq xizmati organlariga jismoniy shaxslarning to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari, soliqqa tortilmaydigan daromadlari va ulardan ushlab qolingani daromad solig'i miqdorlari to'g'risidagi hisob-kitoblarni yuritib boradilar. Jismoniy shaxslarning to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari tarkibiga quyidagi daromadlar kiradi:

- *mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari;*
- *moddiy naf tarzidagi daromadlar;*
- *mulkiy daromadlar;*
- *boshqa daromadlar.*

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning hisoblangan summasini soliq to'lovchidan ushlab qolish soliq agenti soliq to'lovchiga to'layotgan har qanday pul mablag'lari hisobidan, mazkur pul mablag'lari haqiqatda soliq to'lovchiga yoki uning topshirig'iga binoan uchinchi shaxslarga to'lanayotganda amalga oshiriladi. SHuning uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'g'ri ushlab qolinishi va o'z vaqtida byudjetga o'tkazilishi uchun daromad to'layotgan soliq agenti javobgar hisoblanadi hamda soliq summasini ushlab qolmagan soliq agentlari byudjetga to'lanishi zarur bo'lgan soliq summasi va unga hisoblangan penyani to'lab byeradi.

Soliq agentlari jismoniy shaxslarga hisoblangan daromadlari bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni oyma-oy buxgaltyeriya hisobining tegishli schetlarida jamlab boradi. Lekin buxgaltyeriya hisobi schetlaridagi ma'lumotlar soliq hisobotini



to'ldirish uchun qayta ishlashni talab etadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq hisobini to'g'ri tashkil etish ushbu daromadlarni har bir turi bo'yicha hamda jismoniy shaxsning soliqqa tortiladigan va tortilmaydigan daromadlar miqdorlari to'g'risidagi axborotlarni aniqlash imkonini byeradi.

Soliq agentlari soliq davri tugaganidan so'ng o'ttiz kun muddatda davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida (asosiy ish joyi bo'yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslardan tashqari) belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma taqdim etadi.

Bundan tashqari soliq agentlari yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to'langan daromadlar, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summalari hamda soliq solishdan ozod qilingan daromadlar to'g'risidagi kuyidagi hisobotlarni taqdim etadi (4.6-jadval).

#### 4.6-jadval.

**Hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summalari to'g'risidagi MA'LUMOTLAR**  
(yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan to'ldiriladi)

*(so'mda)*

T/r	Ko'rsatkichlar	Satrlar	To'lovchining ma'lumotlari bo'yicha
1.	Yil boshidan daromad olgan jismoniy shaxslar soni, jami (kishi)	001	<i>Axborot 1-T Mexnat hisoboti ma'lumotidan olinadi.</i>
	jumladan: o'rindoshlik bo'yicha (kishi)	002	<i>Ushbu 002-006 satrlar ma'lumoti 1-T statistik hisobotidan olinadi.</i>
	001-satrdan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ish bajaruvchilar	003	
	001-satrdan xorijiy jismoniy shaxslar (kishi)	004	
	001-satrdan mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan, moddiy naf tarzida to'langan daromadlaridan ularning yozma arizasiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlab qolinmagan jismoniy shaxslar	005	
	001-satrdan asosiy ish joyi bo'yicha jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochilgan jismoniy shaxslar	006	
2.	<b>Soliq davri boshiga qarzdorlik:</b>		

2.1.	- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolar-ning sug'urta badallarini chegirgan holda jismoniy shaxslarga to'lanadigan daromadlar bo'yicha	007	<i>Satr ma'lumoti 6410 va 6520 schetlari kreditidan olinadi.</i>
2.2.	- SHJBPHga badallar chegirilgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash bo'yicha	008	<i>Satr ma'lumoti 6410 scheti kreditidan olinadi.</i>
2.3.	- SHJBPHga badallar bo'yicha	009	<i>Satr ma'lumoti 6530 scheti kreditidan olinadi.</i>
3.	Hisoblangan daromadlarning umumiy summasi, shu jumladan:	010	<i>Satr ma'lumoti 6710 schet krediti yoki ushbu ma'lumot-nomagi 1-ilova 01-satridan olinadi.</i>
3.1.	- soliq solishdan ozod qilingan daromadlar	011	<i>Ushbu satr ma'lumoti mazkur Ma'lumotnomaga 2-ilovaning 01-satrdan olinadi.</i>
3.2.	- soliq solinadigan daromadlar (soliq solinadigan baza)	012	<i>Satrga 010 va 011 satrlar ma'lumotlari farqi qo'yiladi.</i>
3.3.	- mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan jismoniy shaxslarga ular-ning yozma arizasiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlab qolinmay-digan moddiy naf tarzida to'lanadigan daromadlar	013	<i>Satr ma'lumoti xarajatlarni hisobga oluvchi schetlar ma'lumotlari asosida soliq hisobi registri yordamida aniqlanadi.</i>
4.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi (SHJBPHga badal chegirilgan holda)	014	<i>Satr ma'lumoti 6410 schet krediti va 6530 schet kreditidan olinadi.</i>
5.	SHJBPHga hisoblangan badallar summasi	015	<i>Satr ma'lumoti 6530 schet kreditidan olinadi.</i>
6.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolarning sug'urta badallari chegirilgan holdagi hisoblangan daromadlarning umumiy summasi	016	<i>Satr ma'lumoti 010-satr - 014-satr - 015-satlardan hisoblangan fuqarolarning sug'urta badallari yoziladi.</i>
7.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolarning sug'urta badallarini chegirgan holda jismoniy shaxslarga to'langan daromadlar summasi	017	<i>6710 schet kredit oborotidan 6520 schetdagi sug'urta badali miqdori farqi sifatida aniqlanadi.</i>
7.1.	- shu jumladan, avvalgi soliq davri uchun daromad to'lash bo'yicha qarzdorlik hisobiga	018	<i>Ushbu satrlar ma'lumoti solik hisobi registri yordamida dastlabki buxgaltyeriya hujjatlari axborotlari asosida jamlab olinadi.</i>
7.2.	020-satrdan mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan jismoniy shaxslarga ularning yozma arizasiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlab qolinmaydigan moddiy naf tarzida to'lanadigan daromadlar	019	
7.2.1.	- shu jumladan, avvalgi soliq davri uchun daromad to'lash bo'yicha qarzdorlik hisobiga	020	
8.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'langan summasi (SHJBPHga	021	<i>6410 schet debet oboroti ma'lumotlaridan olinadi.</i>

	badallar summasini chegirgan holda)		
8.1.	- shu jumladan, avvalgi soliq davri uchun daromad to'lash bo'yicha qarzdorlik hisobiga	022	<i>Ushbu satr ma'lumoti solik hisobi registri yordamida 6410 schet debet oboroti axborot-lari asosida jamlab olinadi.</i>
9.	SHJBPHga to'langan badallar summasi	023	<i>6530 scheti debet oborotidan olinadi.</i>
9.1.	- shu jumladan, avvalgi soliq davri uchun daromad to'lash bo'yicha qarzdorlik hisobiga	024	<i>6530 scheti debet oborotidan solik hisobi registri yordamida jamlab olinadi.</i>

Ushbu ma'lumotnoma bilan birga soliq agentlari davlat soliq xizmati organlariga 3 ta ilova ham taqdim etadilar. Ma'lumotnoma 1-ilovasi jismoniy shaxslarga hisoblangan daromadlar to'g'risida bo'lib, u buxgaltyeriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha quyidagi tartibda to'ldiriladi (4.7-jadval).

#### 4.7-jadval

**Jismoniy shaxslarga hisoblangan daromadlar**  
**RASSHIFROVKASI**  
**20\_\_yil \_\_\_-chorak uchun**  
**(yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan to'ldiriladi)**

(so'mda)

Ko'rsatkich nomi	Satr kodi	Daromad summasi
Jismoniy shaxslarning daromadlari - jami (02-satr+03-satr+04-satr+05-satr)	01	<i>Satr ma'lumoti 6710 schet kredit oborotidan olinadi.</i>
<b>shu jumladan:</b>		
a) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 172-175-moddalari)	02	<i>Satr ma'lumoti 6710 schet kredit oborotidan soliq hisobi registri asosida ajratib olinadi.</i>
<b>shundan:</b>		
- predmeti ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lovlar	021	<i>Ushbu satrlar ma'lumotlari 6710 schet kredit oborotidan soliq hisobi registri asosida alohida-alohida ajratib olinadi.</i>
- yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar	022	
b) mulkiy daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 176-moddasi)	03	
<b>shundan:</b>		
mol-mulkni ijaraga byerishdan olingan daromadlar	031	<i>Ushbu satrlar ma'lumoti 6910 "To'lanadigan opyerativ ijara", 6920 "Hisoblangan foizlar", 6610 «To'lanadigan dividendlar» schyotlardagi axborotlardansoliq registri asosida alohida-alohida tarzda jamlab olinadi.</i>
dividendlar	032	
foizlar	033	

v) moddiy naf tarzidagi daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 177-moddasi)	04	<i>Ushbu satr ma'lumoti 6710 scheti kredit oborotidan soliq registri</i>
g) boshqa daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 178-moddasi)	05	<i>asosida alohida-alohida tarzda jamlab olinadi.</i>

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ma'lumotnomasi 2-ilo-vasini to'ldirish uchun ham asosiy axborot manbai bo'lib, soliq agentining buxgaltyeriya hisobi schetlaridagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ma'lumotnomasining 2-ilovasi quyidagi shakldan iborat bo'lib, ilova jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod kilingan daromadlari to'g'risidagi axborotlarni o'zida mujassam etadi va quyidagi tartibda to'ldiriladi (4.8-jadval).

#### 4.8-jadval

**20\_\_ yil \_\_\_\_\_ chorak uchun jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari**

#### **RASSHIFROVKASI**

(yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan to'ldiriladi)

(so'mda)

<b>Ko'rsatkich nomi</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Imtiyozlar qo'llanilgan jismoniy shaxslar soni</b>	<b>Daromad summasi</b>
Imtiyozlar summasi - jami	01	X	(02-satr + 05-satr)
<b>shu jumladan:</b>			
a) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq - jami	02	<i>Satr ma'lu-moti 1-T sta-tistik hisobotidan olinadi.</i>	(03-satr + 04-satr):
- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 179-moddasi bo'yicha (bandi va imtiyoz mazmuni ko'rsatiladi)	03		(031-03...-satrlar yig'indisi)
<b>shu jumladan:</b>			
30-b) yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruk-tsiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonst-ruktsiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foiz-larni qoplash uchun yo'nalti-rilgan jismoniy shaxslar-ning soliq solinadigan ish haqi va boshqa	031	<i>Satr ma'lu-moti 1-T sta-tistik hisobotidan oli-nadi</i>	<i>Satr ma'lumoti 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schetidan olinadi</i>

daromadlari summalari			
30-b) "Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat bankining kreditlari hisobiga qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qu-ruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlari-ni hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summasi	032	Satr ma'lu-moti 1-T sta-tistik hiso-botidan oli-nadi.	Satr ma'lumoti 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-lashishlar" schetidan olinadi.
31-b) O'zbekiston Respub-likasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlari-ning o'qishi uchun) yo'naltiriladigan fuqaro-larning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromad summalari	033	Satr ma'lu-moti 1-T sta-tistik hiso-botidan oli-nadi.	Satr ma'lumoti 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-lashishlar" schetidan olinadi.
31-b) O'zbekiston Respub-likasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jam-g'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan fuqarolar ish haqi va boshqa daromadlari summalari	034	Hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi.	Satrlar ma'lumoti 6530 schetidan olinadi.
	03...		
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 180-moddasi bo'yicha (bandi va imtiyoz mazmuni ko'rsatiladi)	04		Satr ma'lumoti 041-04...-satrlar yig'indi-sidan iborat bo'ladi.
<b>shu jumladan:</b>			
	041	Hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi.	
	042		
	04...		
b) boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq - jami: (normativ-huquqiy hujjatning nomi, sanasi, raqami, shuningdek imtiyoz bandi va uning mazmuni ko'rsatiladi)	05	Hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi.	Satr 051-05...-satr-lar yig'indisidan iborat.
<b>shu jumladan:</b>			
	051	Hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi.	
	052		
	05..		

Hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingan summalari to'g'risidagi ma'lumotlarga 3-ilova to'langan daromadlar va o'tkazilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda SHJBPHga badallar summasi to'g'risidagi axborotlarni o'zida mujassam etadi.

Ushbu hisobotga ilovaning "Oy boshiga qoldiq" satrida o'tgan hisobot davrida topshirilgan rasshifrovkaning "Oy oxiriga qoldiq" tegishli ustunlaridagi ma'lumotlardan yoki buxgaltyeriya hisobi schetlarining tegishli schetlaridan olinadi. Rasshifrovka "Oy oxiriga qoldiq" ma'lumotlari ham buxgaltyeriya hisobi tegishli schetlaridan olinadi yoki quyidagi tartibda aniqlanadi:

**1. 3-ustun = "Oy boshiga qoldiq" satrining 3-ustuni va "Jami" satr 3-ustuni ma'lumotlari yig'indisidan "Jami" satr 6-ustuni ma'lumoti ayriladi.**

**2. 4-ustun = "Oy boshiga qoldiq" satri 4-ustuni va "Jami" satrining 4-ustuni ma'lumotlari yig'indisidan "Jami" satrining 10-ustuni ma'lumoti ayriladi.**

**3. 5-ustun = "Oy boshiga qoldiq" satrining 5-ustuni va "Jami" satrining 5-ustuni ma'lumotlari yig'indisidan "Jami" satrining 11-ustuni ma'lumoti ayriladi.**

Mazkur hisobotlarni soliq agentlari yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida o'zlari hisobda turadigan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etib boradi.

#### **Nazorat uchun savollar.**

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobotlari shakllarini to'ldirish tartibi qanday ?

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobotlari shakllarini to'ldirishning axborot manbalari bo'lib qanday ?

3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobotlarni topshirish tartiblari va muddatlari ?

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash va byudjetga o'tkazish jarayonlari buxgaltyeriya hisobida qanday yozuvlar bilan aks ettiriladi ?

5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini byudjetga o'tkazish tartibi va muddatlari ?

6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga 3- ilovani "oy boshiga qoldiq" va "oy oxiriga qoldiq" satrlari ma'lumotlarini to'ldirish qanday tartibda amalga oshiriladi ?

7. Soliq agentlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lov manbaidan ushlab qolmasligi huquqiy oqibat keltirib chiqaradimi ?

8. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha belgilangan hisobotlar soliq agentlari tomonidan taqdim etilmasa qanday choralar qo'llaniladi ?

## V-BOB. BILVOSITA SOLIQLARNING HISOBI.

### 5.1-§. Bilvosita soliqlar moliyaviy hisobining nazariy masalalari va uning vazifalari

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini erkinlashtirish, milliy iqtisodiyotimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda jahon hamjamiyatiga qo'shilish va integrallashish asosida hisob tizimini jumladan buxgalteriya hisobini ham xalqaro talab darajasiga moslashishini talab etadi.

Buxgalteriya hisobini xalqaro amaliyot talablari darajasidan kelib chiqqan holda, milliy xususiyatlarimizga mos ravishda yuritish, amalda yuritilayotgan hisob va hisobot tizimini yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek byudjetning daromadlarini shakllantirish, moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash davlat byudjetini barqaror suratda to'ldirib turilishi, mamlakat iqtisodiyotini yanada yuksaltirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi sohasida olib borilgan islohotlarning yaqqol misoli sifatida, 2016 yil 14 aprelda yangi qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan. "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom, xalqaro standart talablari darajasiga mos ravishda ishlab chiqilgan milliy standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlarning qabul qilinganligini aytib o'tish mumkin.

Bu esa buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni zamon talabi, iqtisodiy munosabatlarning zaruriyatidan kelib chiqqan holda isloh qilishni taqozo etadi<sup>17</sup>. Buxgalteriya hisobi va hisobotini bozor iqtisodiyotiga mos ravishda shakllantirish, muvofiqlashtirish, ularning moliyaviy hisobot ma'lumotlarini foydalanuvchilar uchun sodda tartibda yuritishdan iboratdir.

Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha byudjet bilan bo'ladigan

---

<sup>17</sup> Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonun, Buxgalteriya hisobi va statistikasi isloh qilish bo'yicha Davlat dasturi, BHMS lari va boshqa me'yoriy hujjatlar.



hisoblashishlarni, “Buxgaltyeriya hisobi to’g’risida”gi Qonun, Soliq Kodeksi, Buxgaltyeriya hisobining milliy standartlari talablari asosida olib borilishi, soliqlarning moliyaviy hisobining yanada takomillashishiga olib keladi.

Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini yuritishda, moliyaviy hisob va hisobot ma’lumotlarini shakllantirishda buxgaltyeriya hisobi muhim rol o’ynaydi. Buxgaltyeriya hisobi orqali xo’jalik sub’ektlar moliyaviy xo’jalik faoliyatini boshqarish bilan bir qatorda soliqlar hisobini, jumladan, bilvosita soliqlar hisobini to’g’ri tashkil etish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Xo’jalik sub’ektlarida soliqlar hisobini to’g’ri yo’lga qo’yish, uni takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

Bugungi kunda, buxgaltyeriya hisobi va hisobotini xalqaro talablarga muvofiq yuritish O’zbekistonda ham tobora dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida respublikada xalqaro standartlarga to’la-to’kis mos keluvchi buxgaltyeriya hisobining milliy standartlari ishlab chiqildi va amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. Buxgaltyeriya hisobi shakllari va usullarini tanlashda xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning mustaqilligini kengaytiribgina qolmasdan, soliqlarning moliyaviy hisobi va hisobot axborotining ishonchliligi uchun ularning mas’uliyatini yanada oshirdi.

N.A. Sokolova shunday deb ta’kidlaydi. Hisobotini milliy standart talabidagi soliqqa tortishni moslashtirishni aytib o’tdilar. Moliyaviy hisobotini (BHHS), ga muvofiq tayyorlanganligini, birinchidan mablag’ bozor talabiga xizmat qilishi kyerak, qaysiki soliq tashkilotlari manfaatlaridan jiddiy farq qilishi mumkin. SHunday qilib, moliyaviy va soliq hisobotini mumkin qadar farqlash kyerak. Korxonalar soliq hisobotini soliq qonunchiligi talablari asosida tashkil etishi kyerak, buxgaltyeriya hisobini esa boshqa foydalanuvchilar manfaatlari bo’yicha olib borilishi kyerak<sup>18</sup> deb o’z fikrini bildirgan.

Buxgaltyeriya hisobini isloh qilinishi, eng avvalo, xalqaro tajriba amaliyotidan

---

<sup>18</sup> Соколова Н.А. Стратегия перехода на МСФО разных странах.. управление прибилю. Журнал. Бухгалтерский учет. - М, 2007. - №9. - 52-56 с.

kelib chiqqan holda, buxgalteriya hisobini boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va soliq hisobiga ajratilgan holda tashkil etish nafaqat xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, balki barcha manfaatdor tomonlarning, shu jumladan, davlatimizning iqtisodiy istiqbolini oshirish uchun ham xizmat qiladi. Xo'jalik sub'ektlarida soliqlarning moliyaviy hisobi va hisobotini yuritish, yuqorida qayd etilgan me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida yuritishdan iboratdir.

Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobi, moliyaviy xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda, soliqlar hisobini yuritishda tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlovchi vosita bo'lib hisoblanadi.

Respublikamizning iqtisodchi olimlari monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalarida buxgalteriya hisobini uch turga bo'lib, ya'ni boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob, soliqlar hisobiga ajratgan holda o'rgangan.

Jumladan, respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A.A.Karimov, F.Islomov, A.Avloqulov<sup>19</sup>, B.A.Hasanov<sup>20</sup>, K.B.O'razov<sup>21</sup>, B.I.Isroilov<sup>22</sup>, Z.N. Qurbonov<sup>23</sup> kabi mamlakatimiz iqtisodchi olimlari o'zlarining monografiya, darslik, o'quv qo'llanma va boshqa ilmiy asarlarida soliqlar hisobini hisobning turi yoki buxgalteriya hisobining quyi tizimi sifatida e'tirof etishgan.

Rossiya Soliq kodeksi 25 bobining 313-314-moddalari soliqlar hisobiga bag'ishlangan.<sup>24</sup>

Iqtisodiy adabiyotlarda bir guruh rossiyalik iqtisodchi olimlar soliqlar hisobini o'z asarlarida keltirib o'tishgan.

Jumladan, rossiyalik iqtisodchi olimlardan A.N. Poponov, Ya.V. Sokolov G.G. Nastrov, A.V.Tyerzidi<sup>25</sup>, V.Ya.Kojinovlar<sup>26</sup> soliqlar hisobiga ta'rif byerishgan.

Iqtisodchi olimlardan A.A.Karimov, F.R.Islomov, A.Z.Avlaqulovlar «Soliqlar hisobi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda soliqlar va to'lovlarni o'z vaqtida va

---

<sup>19</sup> Karimov A.A, Islomov F.R., Avloqulov A.Z Buxgalteriya hisobi. - Toshkent.: «SHarq», 2004. - 86 b.

<sup>20</sup> Hasanov B.A., Xoshimov.A.A Boshqaruv hisobi. Darstlik. - Toshkent.: «IQTISOD-MOLIYA», 2005. - 32 b.

<sup>21</sup> O'razov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari. «Fan», 2005. - 29 b.

<sup>22</sup> Isroilov B.I. Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va yechimlari. - Toshkent.: «O'zbekiston», 2006. - 272 b.

<sup>23</sup> Qurbonov Z.N. Soliqlar hisobi: nazariyasi va metodologiya nomli. Monografiya. - Toshkent.: «Fan», 2006. - 21b.

<sup>24</sup> Налогового кодекса РФ 25 глава. М.: «Вершина», 2005. - 117-119 с.

<sup>25</sup> Попонов А.Н, Настров Г.Г, Терзиди А.В. Организация Налогового учета и налогового контроля.

<sup>26</sup> Кожин В.Я. Бухгалтерский и налоговый учет: управление прибылью. М.: «Экзамен», 2005. - 32 с.

to'g'ri hisobga olish, soliq imtiyozlarini qo'llash hamda ularni belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkazib byerilishini ta'minlovchi buxgalyeriya hisobi turidir»<sup>27</sup> deb e'tirof etishgan.

B.I.Isroilov "soliqlar hisobi-bu soliqlarni hisoblash, to'lash, ular bo'yicha imtiyozlar, kreditlar, kechiktirilgan xarajatlar, majburiyatlar va shu kabi boshqa jarayonlarni kuzatish, ular to'g'risida axborotlarni qayd etish, yig'ish, jamlash va foydalanuvchilarga taqdim etish vositasidir"<sup>28</sup>.

Z.N.Qurbanovning fikricha "Soliq hisobi-bu mustaqil faoliyat yurituvchi barcha jismoniy va yuridik sub'ektlarning soliq va majburiy to'lovlari bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish tizimidir"<sup>29</sup>.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni o'rganib va tahlil qilish natijasida soliqlar hisobiga quyidagicha ta'rif byerdik. Soliqlar hisobi – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qonuniy me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda to'g'ri hisoblash, zaruriy ma'lumotlarni yig'ish, qayd etish, qayta ishlash, guruhlash va umumlashtirish hamda byudjetga tushishini o'z vaqtida taminlashdir.

Soliqlar hisobining maqsadi va vazifalariga alohida to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Soliqlar hisobining maqsadi-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning byudjetga soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'g'ri hisobga olish va byudjetga to'lanishi ustidan nazorat qilishdan iboratdir.

Soliqlar hisobining vazifalari:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ob'ektini to'g'ri tanlash;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobini yuritish;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hujjatlarda aks ettirish;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar byudjetga to'lanishi ustidan uzluksiz

---

<sup>27</sup> Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. - Toshkent.: «SHarq», 2004. - 86 b.

<sup>28</sup> Isroilov B.I «Soliqlarning moliyaviy hisobi va tahlilining metodologik asoslari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi. - Samarqand.: 2006. - 40 b.

<sup>29</sup> Qurbanov Z.N «Soliq hisobi va auditing nazariy va metodologik asoslari» mavzusi doktorlik dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent.: 2008. 11-12 b.

nazorat olib borish.

Bilvosita soliqlar hisobining ob'ektlarini aniqlashda bevosita buxgalteriya hisobining ob'ektiga murojaat qilishimiz kerak. Chunki buxgalteriya hisobining ob'ektlari moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblari ob'ektning asosi bo'lib hisoblanadi. Bilvosita soliqlar hisobining ob'ekti bo'lib aktsiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisoblanadi.

Agarda uni har bir ob'ektlar bo'yicha tadqiq etish talab etilsa uning muammolari yanada oshadi. Ana shulardan biri bilvosita soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lanishidagi muammolardir.

Ob'ekt sifatida olingan "O'zvinosanoat-xolding" XK kompaniyasi tizimidagi xo'jalik sub'ektlarida bilvosita soliqlar hisobining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Birinchisi, aktsiz solig'i bo'yicha soliq summasining belgilangan ma'lum bir qismi "O'zvinosanoat-xolding" XKni rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish fondi hisob raqamiga o'tkazilishi bo'lsa, ikkinchisi, mazkur xolding kompaniyasi tizimidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda qo'shilgan qiymat solig'i mahsulot xo'jalik yurituvchi sub'ekt omboridan yuklab jo'natilishi bilan hisoblanishi va davlat byudjetiga o'tkazib berilishidir. Natijada, ushbu tizim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida bilvosita soliqlar xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy natijalariga va aylanma mablag'lar aylanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmasada, ammo, tovar va pul aylanmasiga bilvosita ta'sir etishi, tovar va xizmatlarning iste'molchilar uchun bilvosita soliqlar hisobiga qimmatlashishiga hamda iste'mol qobiliyatini pasayishiga sabab bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritishda, xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqqan holda, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning olib borayotgan faoliyati va iqtisodiy ahvoli to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantirishda, barcha foydalanuvchilarga, jumladan, chet el investorlari bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda buxgalteriya hisobi hujjatlaridan foydalanadilar. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritishda,

xalqaro standart (BHHS) lari talablaridan kelib chiqqan holda, buxgaltyeriya hisobi va hisobotini yuritish, xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy ahvoli to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantirishda, barcha foydalanuvchilarga, jumladan, chet el investorlari bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda buxgaltyeriya hisobi hujjatlaridan foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasi buxgaltyeriya hisobining milliy standartlari (BHMS), buxgaltyeriya hisobining asosida takomillashib bormoqda.

Bugungi kunda xalqaro buxgaltyeriya hisobi standartlari talablaridan kelib chiqqan holda, buxgaltyeriya hisobi va hisobotini yuritilishi, xo'jalik sub'ektlarining olib borayotgan faoliyati va iqtisodiy ahvoli to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantirishda yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, buxgaltyeriya hujjatlarini barcha foydalanuvchilarga, jumladan, chet el investorlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblarida yanada ishonchliligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi "Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1996 yil, 9-son, 142-modda) 5-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi buxgaltyeriya hisobining milliy standartlari (21-BHMS) ishlab chiqilgan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23 oktyabrda №1181-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Keltirilgan 2.2.2-2.3.2-jadvallardagi ma'lumotlarda xo'jalik sub'ektlarining byudjet bilan soliq to'lovlari bo'yicha hisoblashishda ularning turlari bo'yicha alohida sintetik schyotlarning mavjud emasligidan byudjet bilan hisoblashishda farqlarni vujudga keltirmoqda. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun amaldagi O'zbekiston Respublikasi buxgaltyeriya hisobining milliy standartlari (21-BHMS)ga xo'jalik sub'ektlarining byudjet bilan hisoblashishlarini takomillashtirish maqsadida quyidagi schyotlarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- 4420 – “Bilvosita soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlarini hisobga oluvchi schyotlar”;
- 6420 – “Bilvosita soliqlar bo'yicha byudjetga qarzni hisobga oluvchi schyotlar” dan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Taklif etilayotgan schyotlar xo'jalik sub'ektlarida bilvosita soliqlar bo'yicha

byudjetga to'lovlarni to'g'ri va aniq hisobga olinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xo'jalik sub'ektlarida buxgalteriya hisobi ma'lum tartib va qoidalar asosida yuritilishi lozim. Bunda asosiy muammo shunday qoidalarni ishlab chiqishni talab qiladiki, shu qoidalarni joriy etilishi buxgalteriya hisobini yuritishga samarali ta'sir ko'rsatishi lozim. Bunda moliyaviy va boshqaruv hisobini to'g'ri va o'z vaqtida tashkil etilishi tushuniladi. Xo'jalik sub'ektlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi ishchi schyotlar rejasini tuzadilar va u xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosatida aks ettiriladi. Bunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida soliqlarning moliyaviy hisobini to'g'ri tashkil etilishini va o'z vaqtida yuritilishini taminlash uchun hisob siyosatidagi ishchi schyotlar rejasini tashkil etilishi tushuniladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish asosini va tartibini hisob siyosati belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi 1-sonli (BHMS)da hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif byerilgan: "hisob yuritish siyosati deganda, xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish asoslari va qoidalariga mos ravishda usullarining qo'llanilishi tushuniladi"<sup>30</sup>.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar rahbari yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda hisob yuritish siyosatini asoslashi va to'g'ri yondashishi mumkin. Maxsus BHMSlar bo'lmaganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar rahbari hisob yuritish siyosatini ishlab chiqishda o'z tushunchalaridan foydalanishga haqli, chunki u foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotlardan foydali axborotlarni byera oladi.

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunda hisob siyosati o'z aksini topmagan. SHuning uchun mazkur qonunning 7-moddasini "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobot yili uchun o'z hisob siyosatlarini ishlab chiqishlari majbur" degan jumla bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir. Bu fikrimizni tasdig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1998 yil 12 dekabrda 604-sonli buyrug'iga muvofiq tasdiqlangan tartibga ko'ra "o'zining buxgalteriya hisobotini nashr qiluvchi tashkilotlar uchun hisob siyosatini

---

<sup>30</sup> O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari. - Toshkent.: 2004. – 16 b.

shakllantirish va ommaga ma'lum qilish yagona va majburiydir” degan talabni keltirish mumkin. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar “Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar” 1-son Buxgalyeriya hisobi milliy standarti (BHMS) asosida moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha olib boriladigan ishlarni belgilab olishi lozim. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosati sub'ekt rahbari tomonidan shakllantiriladi.

Xo'jalik sub'ektlari moliyaviy xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda dastlabki hujjatlar asosida buxgalyeriya hisobi hujjatlarini rasmiylashtirilishi korxonaning hisob siyosati orqali tartibga solib boriladi. Buxgalyeriya hisobi hujjatlari asosida soliqlarning moliyaviy hisobi va hisoblari shakllantiriladi, foydalanuvchilar uchun kyerakli bo'lgan axborot manbai bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida soliqlar bo'yicha bo'ladigan hisoblashishlarni to'g'ri yuritilishi, hisoblangan soliqlarni byudjetga o'z vaqtida to'lanishini boshlang'ich hujjatlar asosida olib boriladi.

## **5.2-§. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobi va hisoboti**

Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan bir paytda mamlakatimizda soliqlarlarning moliyaviy hisobini yuritish, soliq yukini kamaytirish asosida ishlab chiqarishning rivojlanishi, investitsiyalar jalb qilinishi, moliya-soliq mexanizmi va buxgalyeriya hisobi takomillashuvini talab qiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i XX asrning 70 – yillarida G'arbiy Evropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilingan. Ko'pgina manbalarda, qo'shilgan qiymat solig'i dunyoda birinchi marta Evropa davlati bo'lgan Frantsiyada joriy etilganligi, o'sha paytda qabul qilingan direktivaga asoson qo'shilgan qiymat solig'i bir vaqtning o'zida Evropaning bir necha davlatlarida joriy qilinganligi, qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Evropadagi integratsion jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaganligi bois, qo'shilgan qiymat solig'ini “Evropacha” soliq deb ham atashadi.

Hozirgi vaqtda ham qo'shilgan qiymat solig'i 160 dan ortiq mamlakatlarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekiston soliq tizimida 1992 yilda oborotdan va

sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga aktsiz solig'i bilan birga kiritilgan. Bu soliq oborot solig'idan farqli ravishda faqat qo'shilgan qiymatdan bosqichma-bosqich undirilib, oxirgi to'lovchisi iste'molchi bo'lib hisoblanadi. Oborot solig'i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi.

Qo'shilgan qiymat solig'i dunyoning bir necha mamlakatlari byudjetining bilvosita soliqlari ichida yuqori mavqeni egallagan soliq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida QQS stavkasi 1992 yilda 30 foizni, 1996 yilda 17 foizni, 1997 yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqatlar mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizni tashkil etgan. 1999 yilda respublikada QQSning 3 xil stavkasi (20,15, 0 foiz) amalda qo'llanildi. Faqat 3 ta band, ya'ni eksport, qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga byeriladigan minyeral o'g'it va yoqilg'i moylash matyeriallari hamda diplomatik va unga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilinadigan tovar(ish, xizmatlar) "0"darajali stavka bo'yicha soliqqa tortildi. 15 % li QQS stavkasi esa, un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari hamda import qilinadigan tirik mol va bug'doy kabi mahsulotlarga belgilandi. Bugungi kunda soliq tushumlari tarkibida yuqori salmoqqa ega bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 15 foizli hamda nol darajali stavkadan iborat.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobini ko'rib chiqishda QQS ning ob'ektlarini o'rganishda muhim jihat bo'lib tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 198-moddasida QQS ob'ektiga quyidagilar kiritilishi ko'rsatilgan.

- soliq solinadigan oborot;
- soliq solinadigan import.

Mahsulot (ish, xizmatlar) import qilinganida import qilinayotgan tovar qiymatiga bojxona to'lovi va aktsiz solig'i ham kiritilib, undan keyin qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi.


Byudjetga to'lanadigan soliq summasini hisoblashda qo'shilgan qiymat solig'ini buxgaltyeriya hisobida hisoblash ishlarining samarali yo'lga qo'yilishi



asosida korxonalar moliya xo'jalik faoliyatini yanada samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli korxonalarda soliqlar hisobini to'g'ri yuritilishini yo'lga qo'yish lozim.

Tovarlarni import qilish chog'ida qo'shilgan qiymat solig'i bojxona deklaratsiyasi qabul qilinishidan oldin yoki bir vaqtda to'lanadi. Import qilinayotgan ishlar va xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i ishlar va xizmatlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida hisoblab chiqariladi va import qiluvchi tomonidan yozilgan hujjat asosida to'lanadi.


Qo'shilgan qiymat solig'i summasi uch xil formula yordamida aniqlanadi (5.1-rasm).



**5.1-rasm. Hisoblanadigan va byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi**

Qoʻshilgan qiymat soligʻi hisobining oʻziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ushbu soliq ayrim hollarda sotishdan tushgan tushum hisobidan, ayrim hollarda Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlarlar, ayrim hollarda esa sotib olinayotgan mahsulot(ish, xizmat)ning narxi ustiga qoʻshilib kiritiladi hamda har xil schyotlarda aks ettiriladi.

Quyida qoʻshilgan qiymat soligʻini buxgalteriya hisobida hisobga olishning oʻziga xos xususiyati mavjud boʻlib, quyidagi rasm maʼlumotlarida uning aynan schyotlar bilan bogʻlanishidagi oʻziga xoslikni koʻrishimiz mumkin. (2-rasm).



**5.2-rasm. Mahsulot realizatsiyasi jarayonida qoʻshilgan qiymat soligʻini schyotlarda aks ettirish**

Umuman olganda bilvosita soliqlar hisoblanganda 6410-“Byudjetga toʻlovlar boʻyicha qarzlari (turlari boʻyicha)” schyoti kreditlanib, schyotning debet tomonida

esa muomala sodir bo'lishiga qarab bir necha schyotlar bo'lishi mumkin (3 - rasm).

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlashda tovar (ishlar, xizmatlar) oluvchi haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'ining summasini hisobga olish huquqiga ega, agar mazkur tovarlardan (ishlardan, xizmatlardan) soliq solinadigan oborotlar, shu jumladan nol darajali stavka qo'llaniladigan oborotlar maqsadlarida foydalanilsa, shuningdek, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun foydalanilsa va agar quyidagi shartlar bajarilsa:

- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lsa;

- olingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) etkazib byeruvchi tomonidan yozilgan schyot-faktura yoki taqdim etiladigan qo'shilgan qiymat solig'i alohida ajratib ko'rsatilgan boshqa hujjat mavjud bo'lsa;


- tovarlar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'langan bo'lsa.

Soliq kodeksiga asosan eksport korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida mahsulot (ish, xizmatlar) realizatsiya qilinganida ushbu oborot nol darajali stavkada soliqqa tortiladi. Bunda korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayonida to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini byudjetdan qaytarib olish yoki boshqa to'lovlarga o'tkazish huquqiga ega. Bu jarayon eksport korxonalariga byerilgan imtiyoz sifatida namoyon bo'ladi. Lekin amaliyotda eksport qiluvchi korxonalar tomonidan mahsulot eksport qilish jarayonida bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda.

Birinchidan, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida to'langan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha avans summalari hisobiga korxonada aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi pasaymoqda;

Ikkinchidan, byudjetdan qaytarilishi kyerak bo'lgan ortiqcha to'langan summani qaytarilish jarayonining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi orqali amalga oshirilishi tadbirkorlar tomonidan qo'shimcha hujjatlar taqdim etilishi va vaqt yo'qotilishiga sabab bo'lmoqda.

**Bilvosita soliqlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi**



**5.3-rasm. Bilvosita soliqlarni schyotlarda aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlari**

2019 yil 1 yanvardan qilingan o'zgartirishga ko'ra asosiy vositalar vositalar va nomoddiy aktivlar sotib olinganda ular uchun ta'minotchilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi byudjetga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i sifatida aks ettirilib, hisobga olish huquqi byerildi. YA'ni soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishga ko'ra:

Tadbirkorlik faoliyati doirasida foydalaniladigan ko'chmas mulk sotib olinganda, barpo etilganda, ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olinganda, oluvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini 36 kalendar oy davomida teng ulushlarda hisobga olish huquqiga ega bo'ladi.

Misol: 2019 yil xo'jalik yurituvchi sub'ekt boshqa tashkilotdan 600 ming so'mlik QQS bilan ko'chmas mulk sotib oldi. Korxonada ushbu qo'shilgan qiymat solig'i summasini 36 kalendar oy davomida teng ulushlarda hisobga olish huquqiga ega bo'lsa buxgalyeriya provodkalari quyidagi tartibda bo'ladi.

№	Opyeratsiya mazmuni	Provodka		Summasi
		Debet	Kredit	
1	Mol etkazib byeruvchilardan ko'chmas mulk sotib olindi	0820	6010	500 000
2	Mol etkazib byeruvchilardan ko'chmas mulkni xarid qilishda hisobga olinadigan QQS summasi, Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatga o'tkazish (Jami 36 kalendar oy uchun)	0990	6010	100 000
3	Mol etkazib byeruvchilardan olingan ko'chmas mulk summasi o'tkazib byerildi.	6010	5110	600 000
4	Xarid qilingan ko'chmas mulk ob'ektini asosiy vositalar tarkibiga o'tkazildi	0120	0820	500 000
5	Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatga o'tkazilgan soliq summasining joriy qismi	3210	0990	33 333.33
6	QQS summasi 1 kalendar oy uchun hisobga olindi (33 333 / 12 oy)	6410	3210	2777.77

Misol: 2019 yil xo'jalik yurituvchi sub'ekt 600 ming so'mlik ko'chmas mulkni o'z kuchi bilan barpo etdi. QQS 20 %. Korxonada ushbu qo'shilgan qiymat solig'i summasini 36 kalendar oy davomida teng ulushlarda hisobga olish huquqiga ega bo'lsa buxgalyeriya provodkalari quyidagi tartibda bo'ladi.

№	Opyeratsiya mazmuni	Provodka		Summasi
		Debet	Kredit	
1	Mol etkazib byeruvchilardan TMZ lar harid qilingan	1010	6010	300 000
2	Mol etkazib byeruvchilardan olingan TMZ bo'yicha QQS summasi, Uzoq muddatli soliq xarajatiga o'tkazilganda (Jami 36 kalendar oy uchun)	0990	6010	60 000
3	Mol etkazib byeruvchilarda ko'chmas mulkni barpo etish uchun qurilish matyeriallari sarflandi	0810	1010	300 000
4	Ko'chmas mulkni barpo etishda ishtirok etganlarga ish haqi hisoblandi	0810	6710	100 000
5	Ko'chmas mulkni barpo etishda ishtirok etgan xodimlar ish haqi fondiga YAIT hisoblandi	0810	6520	12 000
6	Eskirish hisoblandi	0810	0200	38 000
7	Ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar	0810	2510, 2310	50 000
8	Qurib bitkazilgan ko'chmas mulk ob'ektini asosiy vositalar tarkibiga o'tkazildi	0120	0810	500 000
9	Ushbu ko'chmas mulkni boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar tarkibiga kiritish (QQS summasi 12 kalendar oy uchun)	3210	0990	20 000
10	QQS summasi 1 kalendar oy uchun hisobga olindi (20 000 / 12 oy)	6410	3210	1666,6

Misol: 2019 yil xo'jalik yurituvchi sub'ekt ta'sischiidan 600 ming so'mlik ko'chmas mulkni ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida qabul qilinganda. QQS 20 %. Korxonada ushbu qo'shilgan qiymat solig'i summasini 36 kalendar oy davomida teng ulushlarda hisobga olish huquqiga ega bo'lsa buxgalteriya provodkalari quyidagi tartibda bo'ladi.

№	Opyeratsiya mazmuni	Provodka		Summasi
		Debet	Kredit	
1	Ta'sischiining ustav fondi e'lon qilindi.	4610	8330	600 000
2	Ta'sischi ulushini ko'chmas mulk sifatida kiritildi	0120	4610	500 000
3	Ta'sischiining ustav fondiga ulush sifatiga ko'chmas mulk ob'ektining QQS summasini boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar tarkibiga kiritish (Jami 36 kalendar oy uchun)	0990	4610	100 000
4	Ushbu ko'chmas mulk bo'yicha QQS boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar tarkibidan joriy qismiga o'tkazish (QQS summasi 12 kalendar oy uchun)	3210	0990	33 333,33
5	QQS summasi 1 kalendar oy uchun hisobga olindi (33 333 / 12 oy)	6410	3210	2777,77

Asosiy vositalar, bundan ko'chmas mulk mustasno, va nomoddiy aktivlar sotib olinganda, ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olinganda, oluvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini 12 oy davomida teng ulushlarda hisobga olish huquqiga ega bo'ladi.

Asosiy vositalar bundan ko'chmas mulk mustasno va nomoddiy aktivlar sotib olinganda ustav fondiga hissa sifatida olinganda oluvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini 12 oy davomida teng.

Misol: 2019 yil xo'jalik yurituvchi sub'ekt boshqa tashkilotdan 600 ming so'mlik nomoddiy aktivlar ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida qabul qilinganda.\_ QQS 20 %. Korxonada ushbu qo'shilgan qiymat solig'i summasini 12 kalendar oy davomida teng ulushlarda hisobga olish huquqiga ega bo'lsa buxgalyeriya provodkalari quyidagi tartibda bo'ladi.

№	Opyeratsiya mazmuni	Provodka		Summasi
		Debet	Kredit	
1	Ta'sischi ustav fondi e'lon qilindi.	4610	8330	600 000
2	Ta'sischi ulushini nomoddiy aktiv sifatida kiritildi	0410	4610	500 000
3	Ta'sischi ustav fondiga ulush sifatida nomoddiy aktiv ob'ektining QQS summasi kechiktirilgan xarajatlar joriy qismida hisobga olinganda (12 oy uchun)	3210	4610	100 000
4	QQS summasi 1 kalendar oy uchun hisobga olindi (100 000 / 12 oy)	6410	3210	8333,3

Qurilishi tugallanmagan ob'ekt sotib olinganda (barpo etilganda) soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini ushbu moddaning to'qqizinchi va o'ninchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda, uni foydalanishga topshirgan paytdan e'tiboran hisobga olish huquqiga ega bo'ladi.

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar ushbu moddaning to'qqizinchi - o'n birinchi qismlarida nazarda tutilgan davr tugaguniga qadar realizatsiya qilingan taqdirda, hisobga olinishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining qolgan summasi to'liq hisobga olinadi.

Mol-mulkni moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga byerishda hisobga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi to'liq hisobga olinadi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bevosita ishlab chiqarishning o'sishi, aholi turmush darajasini yaxshilanishi bilan birga eksport salohiyatining qay darajada ekanligi bilan ham baholanadi. Shu bois, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, eksport korxonalarini qo'llab – quvvatlashga qaratilgan islohotlar natijasida, respublikamizda eksport hajmi yildan yilga ortib bormoqda.

Mamlakatimizda doimiy ravishda eksport korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularga soliq va bojxona imtiyozlari byerilishi hamda boshqa ko'pgina tadbirlarning o'rni beqiyosdir. Jumladan, birgina eksport mahsulotlarining qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nol darajali stavka asosida soliqqa tortilishi ularga katta miqdordagi mablag'ni tejash imkoniyatini byeradi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga ko'ra, eksportyor korxonalarini qo'llab quvvatlash maqsadida asosan, mahsulot realizatsiya qilinishida ushbu oborot nol darajali stavka asosida soliqqa tortiladi. Bunda korxonalar mahsulot ishlab chiqarish jarayonida to'lagan qo'shilgan qiymat solig'i summasini byudjetdan qaytarib olish yoki boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish orqali hisobga olish huquqiga ega. Bu jarayon eksportyor korxonalarga byerilgan imtiyoz sifatida namoyon bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nol darajali stavka qo'llanilganda mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan matyeriallar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi byudjetdan qaytarib olinishi yoki boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorliklarni kamaytirilishi hisobiga hisobdan chiqarilishi mumkin.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan ortiqcha soliq summasi boshqa soliqlardan qarzi bo'lmasa 20 kun ichida qaytarib byerilishi ko'rsatib o'tilgan. Ammo, mazkur jarayonda, byudjetdan qaytarilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ortiqcha to'langan soliq summasini Moliya vazirligi orqali amalga oshirilishi, tadbirkorlar vaqtining ortiqcha sarflanishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 212-moddasiga ko'ra, mahsulot eksportini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgandagina soliq imtiyozi qo'llaniladi. Agar tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmasa yoki tegishli ravishda tovarlar



eksporti tasdiqlanmasa, soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'ini to'liq to'laydi.


Soliq kodeksiga asosan, tovarlarni chet el valyutasida eksport qilishdan tashqari chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining diplomatik syervis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga, «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga, tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashishga, yo'lovchilar, bagajlar, yuklar va pochmani xalqaro yo'nalishda tashishda, suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga ham qo'shilgan qiymat solig'i nol darajada undiriladi".

Yuqorida ta'kidlanganidek, agar tegishli hujjatlar asosida nol darajali stavkani qo'llanilishi asoslanmasa, qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'liq undiriladi. SHu bois, ortiqcha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarib olishda asoslovchi hujjatlar aniq, etarli darajada hamda ma'lumotlar to'liq bo'lishi lozim.

Me'yoriy hujjatlar va adabiyotlarda nol darajali stavkani qo'llash bo'yicha oborotlar va soliq to'lovchi tomonidan nol darajali stavkani qo'llash uchun soliq organlariga taqdim etiladigan asos bo'luvchi hujjatlar tarkibi ko'rsatib qo'yilgan. Bunga ko'ra, soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish uchun soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga nol darajali stavkani qo'llash uchun asos bo'luvchi hujjatlarni yozma arizaga to'rt nusxada ilova etgan holda taqdim etadi. (4-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 216-moddasida yo'lovchilar, bagajlar, yuklar va pochmani xalqaro yo'nalishda tashishda nol darajali stavkaning qo'llanilishi belgilangan. Soliq kodeksida va "Soliq to'lovchilarga nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasini qaytarish to'g'risida"gi Nizomda mazkur xizmat amalga oshirilganda nol darajali stavkani qo'llash uchun qanday hujjatlar taqdim etilishi ko'rsatib o'tilmagan. Bu esa

ushbu xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar hamda nazorat qiluvchi organlarga bir muncha noqulayliklar tug'diradi.



**5.4-rasm. Nol darajali stavkani qo'llashda asos bo'luvchi hujjatlar**

Shu moddaning o'zida qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha to'langan summasi soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, Soliq kodeksining 10 bobiga muvofiq soliq to'lovchiga qaytarilishi belgilangan. Ma'lumki, soliq kodeksining 57-moddasida ortiqcha to'langan soliqlarning qolgan summalari soliq to'lovchining bankdagi schyotiga pul mablag'larini o'tkazish orqali qaytarish kyerakligi belgilab byerilgan. Ushbu moddada nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining soliqni qaytarib byerish to'g'risidagi yozma arizasini olgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytarilishi belgilangan.

Soliq kodeksining 56-moddasida ortiqcha to'langan summa soliq qarzini quyidagi ketma-ketlikda uzish hisobiga hisobga olinishi kyerak:

- soliqning mazkur turi bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga;
- boshqa turdagi soliqlar bo'yicha qarzni uzish hisobiga;
- boshqa turdagi soliqlar bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga;
- mazkur soliq bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga;
- boshqa turdagi soliqlar bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga.

Ortiqcha to'langan soliq summasini mazkur soliq turi bo'yicha qarzdorlik, penya va jarimalarni uzish hisobiga hisobga olish soliq to'lovchilarning yozma arizasisiz davlat soliq xizmati organlari tomonidan mustaqil amalga oshiriladi, qolgan hollarda davlat soliq xizmati organlarining xulosasi taqdim etilganda soliq to'lovchilarning yozma murojaatlari asosida moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tovarlar eksporti tasdiqlangandan keyin yoki tasdiqlanmaganda sodir bo'lgan opyeratsiyalarning buxgaltyeriya hisobida aks ettirilishi 21-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatining buxgaltyeriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" asosida tartibga solinadi. Unga ko'ra soliqlar bo'yicha ortiqcha to'langan summa byudjetdan qaytarib byerilishi buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettirilgan:

Debet - 5110 "Hisob kitob" schyoti.

Kredit - 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha) lar (turlari

bo'yicha)" schyoti.

O'zbekiston Respublikasining 21-sonli BHMSga ko'ra 5110-"Hisob-kitob" schyotining debeti bo'yicha korxonaning hisob-kitob schyotiga pul mablag'larining kelib tushishi aks ettiriladi. 5110-"Hisob-kitob" schyotining kreditida korxonaning hisob-kitob schyotidan pul mablag'larining hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. 6410-"Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar (turlari bo'yicha) lar (turlari bo'yicha)" schyotining kreditida byudjetga to'lanishi kyerak bo'lgan majburiyat summasi olinadigan schyotlar, davr xarajatlari, soliqlar va boshqa majburiyatlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi, mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Tovarlar eksport qilinganligi tasdiqlanmagan taqdirda hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasi korxonadan hisobidan qoplanib, 9430-"Boshqa operatsion xarajatlar" schyotining debet tomonida, 6410-"Byudjet bilan hisob-kitoblar" schyotining kredit tomonida hisobdan chiqariladi.

#### 5.1 – jadval

##### Nol darajali stavkani qo'llash bo'yicha operatsiyalarni buxgaltyeriya hisobida aks ettirish tartibi

t/r	Xo'jalik muomalasining mazmuni	21 - son BHMS asosida	
		Dt	Kt
1.	Xom-ashyo va matyeriallar sotib olinganda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga (eksport korxonalarida)	4410	6010
2.	Nol darajali stavkani qo'llash bo'yicha byudjetdan mablag'ning qaytarib olinishiga	5110	4420
3.	Nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan summani boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish uchun yo'naltirganda	6410	4420
4.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda to'liq hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga	9430	6410
5.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda ilgari xom-ashyo va matyeriallar sotib olinganda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasining hisobga olinishiga	6410	4420
b.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda byudjetdan bo'lgan qarzdorlik hisob-kitob schyotidan o'tkazib byerilganda	6410	5110

Soliqlarning hisoblanishi, to'lanishi va ortiqcha to'langan mablag'ni byudjetdan qaytarilishini buxgaltyeriya hisobida aks ettirishni ko'rib o'tdik. Endi, bilvosita

solliqlarning soliq solinadigan bazasiga tuzatish kiritish haqida so'z yuritimiz.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- bitim shartlari o'zgarganda;
- narxlar o'zgarganida, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganida.

Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilishida qo'shimcha schyot-faktura yoziladi yoki tovarlar qaytarilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar taqdim etiladi. Mazkur hujjatlarda tovarlarning qaytarilishi bilan birga to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining tegishli qismi qaytarilishi ko'rsatilishi lozim.

Tovarlar qaytarilishi buxgalyeriya hisobida 9040-“Sotilgan tovarlarning qaytishi” schyotida aks ettirilishi belgilab byerilgan bo'lib, unga ko'ra mazkur schyotning debetida qaytarilgan tovarlar qiymati, tegishli pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan – xaridor va buyurtmachilar tomonidan qaytarilgan tovarlarning qiymati; olinadigan schyotlar bilan – qaytarilgan tovarlar bo'yicha bekor qilingan debitorlik qarzlari summasi; to'lanadigan schyotlar bilan mazkur tovarlar uchun xaridorlar va buyurtmachilardan olingan to'lovlar va bo'naklar bo'yicha vujudga kelgan qarz summasi aks ettiriladi.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga ko'ra ilgari hisoblangan qo'shilgan qiymat va aktsiz solig'i summasining tuzatilishiga Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari (turlari bo'yicha) larni hisobga oluvchi schyotlarning debeti, pul mablag'lari hamda olinadigan schyotlarning kreditida yozuv amalga oshiriladi (5.2-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, mahsulot sotilishi va uning qaytarilishi hech qanday to'lov amalga oshirilmaganda sodir bo'lgan. Ammo, mahsulotning qaytarilishi ko'pgina hollarda bunday tartibda ro'y byermaydi. Soliq qonunchiligiga ko'ra tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar(ish, xizmatlar) bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshirilishi belgilangan.

Tovarlar mazkur tovarning puli to'langanidan, byudjet bilan soliq bo'yicha hisoblashlar amalga oshirilib bo'linganidan keyin ham qaytariladi. Bunda 4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”ning krediti va 6410-“Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar (turlari bo'yicha) (turlari bo'yicha)” schyotining debetini bog'lagan holda soliq bazasiga tuzatish kiritib bo'lmaydi. Chunki mazkur schyotlar bo'yicha hisob kitoblar amalga oshirilib, qarzdorlik so'ndirilgan bo'ladi. Bir vaqtning o'zida 4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”ining debet tomonida qoldiq qolmagan bo'lsa, mazkur schyotni qanday 9040-“Sotilgan tovarlarning qaytishi” schyoti bilan bog'lash mumkin.

## 5.2-jadval

### Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilishida qo'shilgan qiymat solig'iga tuzatish kiritilishi va uni hisobda aks ettirish tartibi

t/ r	Xo'jalik muomalasi mazmuni	Summa, ming so'm	Provodka	
			Dt	Kt
1.	Xaridorga sotilgan tayyor mahsulotning shartnoma qiymatiga	1000	4010	9010
2.	Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga	200	4010	6410
3.	Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi hisobdan chiqarildi	700	9110	2810
4.	Sotilgan mahsulotning qaytarilishi, to'liq	1000	9040	4010
5.	Qo'shilgan qiymat solig'i tuzatildi	200	6410	4010
6.	Qaytarilgan tayyor mahsulotning tannarxi aks ettirilishiga	700	2810	9110
7.	Qaytarilgan tovar hisobiga tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlarni tuzatilishiga	1000	9010	9040

Yuqoridagi misolni barcha hisob-kitoblar amalga oshirib bo'lingandan keyin qaytarilishi ko'rib chiqaylik (5.3-jadval).

### 5.3-jadval

#### Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilishida qo'shilgan qiymat solig'iga tuzatish kiritilishi va uni hisobda aks ettirish tartibi

t/r	Xo'jalik muomalasi mazmuni	Summa, ming so'm	Provodka	
			Dt	Kt
1.	Xaridorga sotilgan tayyor mahsulotning shartnoma qiymatiga	1000	4010	9010
2.	Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga	200	4010	6410
3.	Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi hisobdan chiqarildi	700	9110	2810
4.	Sotilgan mahsulotning puli kelib tushdi, qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga	1200	5110	4010
5.	Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjetdan qarz o'tkazib byerildi	200	6410	5110
6.	Sotilgan mahsulotning qaytarilishi, to'liq	1000	9040	4010*
7.	Qo'shilgan qiymat solig'i tuzatildi	200	6410*	4010*
8.	Qaytarilgan tayyor mahsulotning tannarxi aks ettirilishiga	700	2810	9110
9.	Qaytarilgan tovar hisobiga tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlarni tuzatilishiga	1000	9010	9040

Mazkur holatda ham, yuqorida taklif etilgan 4420-“Byudjetga ortiqcha to'langan bilvosita soliqlar” schyotidan ochish va mazkur schyotdan foydalanish tavsiya etiladi. Qaytarilgan tovarlar bo'yicha xaridorlarga to'lanishi kyerak bo'lgan summaga esa, 6010-“Mol etkazib byeruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar” schyotidan foydalanish lozim (5.4-jadval) .

### 5.4-jadval

#### Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilishida qo'shilgan qiymat solig'iga tuzatish kiritilishi va uni hisobda aks ettirish tartibi

t/r	Xo'jalik muomalasi mazmuni	Summa, ming so'm	Provodka	
			Dt	Kt
1.	Xaridorga sotilgan tayyor mahsulotning shartnoma qiymatiga	1000	4010	9010
2.	Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga	200	4010	6410
3.	Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi hisobdan chiqarildi	700	9110	2810
4.	Sotilgan mahsulotning puli kelib tushdi, qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga	1200	5110	4010
5.	Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjetdan qarz o'tkazib byerildi	200	6410	5110
6.	Sotilgan mahsulotning qaytarilishi, to'liq	1000	9040	6010

7.	Qo'shilgan qiymat solig'i tuzatildi	200	4420	6010
8.	Byudjetdan qo'shilgan qiymat solig'ining qaytarilishi yoki boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorlik hisobiga hisobga olinishiga	200	5110, 6410	4420
9.	Mablag'ni xaridorga qaytarilishiga, qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga	1200	6010	5110
10.	Qaytarilgan tayyor mahsulotning tannarxi aks ettirilishiga	700	2810	9110
11.	Qaytarilgan tovar hisobiga tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlarni tuzatilishiga	1000	9010	9040

Dastlabki shartnomaga ko'ra xaridorlar tomonidan mahsulotning sotish narxi kelishilgan bo'lib, mahsulot yuklab jo'natilgandan keyin xaridorning to'lov imkoniyati bo'lmasligi yoki boshqa sababga ko'ra mahsulot pulini bo'lib-bo'lib to'lash taklifini kiritganida dastlabki shartnomadagi ayrim shartlarga o'zgartirish kiritgan holda qo'shimcha shartnoma tuziladi hamda qo'shimcha schyot faktura taqdim etiladi. Mazkur holatda mahsulotning summasi dastlabki shartnomanikidan yuqoriroq bo'ladi.

Misol, xaridor 15 % bo'nak to'lovini to'lagan holda mol etkazib byeruvchidan mahsulotni sotib oldi. Mahsulot yuklab jo'natilgandan keyin qolgan mablag'ni ma'lum bir summani qo'shgan holda kechiktirib to'lash shartini taklif qildi (5.5-jadval).

### 5.5-jadval

#### Bitim sharti o'zgarganida qo'shilgan qiymat solig'iga tuzatish kiritilishi va uni hisobda aks ettirish tartibi

t/r	Xo'jalik muomalasi mazmuni	Summa, ming so'm	Provodka	
			Dt	Kt
1.	Xaridorga sotilgan tayyor mahsulotning shartnoma qiymatiga	1000	4010	9010
2.	Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga	200	4010	6410
3.	Olingan avans summasiga	150	5110	6310
4.	Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi hisobdan chiqarildi	700	9110	2810
5.	Bitim sharti o'zgartirildi, qo'shimcha shartnoma	200	4010	9010
6.	Qo'shimcha hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga	40	4010	6410
7.	Sotilgan mahsulotning puli kelib tushdi, qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga (bo'lib-bo'lib, uch oy davomida)	1290	5110	4010
8.	Olingan avans summasining hisobdan chiqarilishiga	150	6310	4010
9.	Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjetdan qarz o'tkazib byerildi	240	6410	5110



Narxlar o'zgarishi, sotib oluvchi chegirmadan foydalanganda soliq solinadigan bazaga o'zgartirishida ham byerilgan chegirma summasiga alohida schyot-faktura rasmiylashtiriladi hamda buxgalyeriya hisobida mazkur o'zgartirish 9050 – “Xaridor va buyurtmachilarga byerilgan chegirmalar” schyoti orqali aks ettiriladi.

Chegirma hisobiga soliq solinadigan bazaning o'zgarishiga quyidagicha buxgalyeriya provodkasi byeriladi (5.6-jadval).

**5.6-jadval**

**Chegirmalar byerilishida qo'shilgan qiymat solig'iga tuzatish kiritilishi va uni hisobda aks ettirish tartibi**

t/r	Xo'jalik muomalasi mazmuni	Summa, ming so'm	Provodka	
			Dt	Kt
1.	Xaridorga sotilgan tayyor mahsulotning shartnoma qiymatiga	1000	4010	9010
2.	Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga	200	4010	6410
3.	Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi hisobdan chiqarildi	700	9110	2810
4.	Sotilgan mahsulotga chegirma byerilishiga(5 foiz)	50	9050	4010
5.	Byerilgan chegirma hisobiga soliq solinadigan bazaning tuzatilishi	10	6410	4010
6.	Sotilgan mahsulotning puli kelib tushdi, qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga	1140	5110	4010
7.	Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjetdan qarz o'tkazib byerildi	190	6410	5110
8.	Byerilgan chegirma hisobiga tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlarni tuzatilishiga	50	9010	9050

Bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish xuddi mahsulotlar to'liq yoki qisman qaytarilgandagidek hisobda aks ettirish bilan o'xshash bo'ladi. YA'ni, bunda soliqqa tortiladigan baza to'liq summaga kamaytiriladi(5.7-jadval).

**5.7-jadval**

**Bajarilgan ish va xizmatlardan voz kechilganda qo'shilgan qiymat solig'iga tuzatish kiritilishi va uni hisobda aks ettirish tartibi**

t/r	Xo'jalik muomalasi mazmuni	Summa, ming so'm	Provodka	
			Dt	Kt
1.	Ish bajarish, xizmat ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnoma qiymatiga	1000	4010	9030
2.	Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga	200	4010	6410
3.	Sotilgan mahsulotning qaytarilishi, to'liq	1000	9030	4010
4.	Qo'shilgan qiymat solig'i tuzatildi	200	6410	4010

Ma'lumki, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatlarini rivojlantirib, kengaytirishlari uchun bir qator soliqlar bilan bog'liq imtiyozlar byerib boriladi. Masalan, ishlab chiqarishni modyernizatsiyalash, yangi texnika-texnologiyani xarid qilish yoki boshqa maqsadlarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar byeriladi. Bunda, birinchidan, soliq to'lovchi soliq bo'yicha imtiyozga ega bo'lib, byudjetga soliq to'lashdan ozod etiladi, ikkinchidan, mazkur imtiyoz hisobiga bo'shagan mablag' yangi texnologiyalar sotib olib, ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibiga o'tgan soliq to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'ining farqlangan stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	To'lovchilar	Soliq stavkalari soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuridik shaxslar, 2 - 6 bandlarda nazarda tutilganlar bundan mustasno	7
2.	Qurilish tashkilotlari	8
3.	CHakana, ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonolari	6
4.	Umumiy ovqatlanish, mehmonxona xo'jaligi korxonolari	10
5.	Kasbiy xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (auditorlik xizmatlari, soliq maslahati xizmatlari, konsalting xizmatlari, brokyerlik xizmatlari va boshqalar)	15
6.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, realizatsiya qiladigan yuridik shaxslar o'zining ishlab chiqarish mahsulotlari bundan mustasno	4

Qo'shilgan qiymat solig'ining turli farqlangan stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritish hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi kerak.


Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

### **5.3-§. Aktsiz solig'i hisobi va hisoboti**

Aktsiz solig'i bilvosita soliqlar turiga kirganligi sababli unga iqtisodiy nuqtai nazardan yondoshganimizda qo'shilgan qiymat solig'iga juda yaqin ekanligini ko'ramiz. Uning o'xshashligi yoki yaqinligi davlat bilan yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi ob'ektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali harakterlanadi. Bu ikki soliq turining o'zaro bog'liqligi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi milliy daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishda ko'proq namoyon bo'ladi. Bu ikki soliq turi orqali davlat byudjeti daromadining eng katta qismi shakllantirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 8-bo'lim 229-moddasiga asosan, aktsiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilar hisoblanadi (5.5-rasmga qarang).

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida aktsiz solig'ini to'lovchilar tarkibi keltirib o'tilgan bo'lsada, uchinchi va to'rtinchi tasnifiy qatorlarida aks ettirilgan aktsiz solig'i to'lovchilarining mohiyati etarlicha ochib byerilmagan. Ya'ni soliq to'lovchilarga sodda va tushunarli tilda bayon etilmagan. Shu sababli ham, ilmiy tadqiqotlarimizda aktsiz solig'ini to'lovchilar tarkibi mazmun va mohiyati jihatidan qayta ko'rib chiqildi hamda Soliq kodeksining 229-moddasini quyidagi tahrirda aniqlashtirish maqsadga muvofiq degan taklif kiritildi:



### **5.5-rasm. Aktsiz solig'i to'lovchilari.**

“Aktsiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilar hisoblanadi”:

- O'zbekiston Respublikasida aktsiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchilar;
- O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni (import) qiluvchilar;
- O'zbekiston Respublikasi hududidan ba'zi tovarlarni chiqarib ketuvchilar;
- Aktsiz solig'iga tortilgan tovarlarni ishlab chiquvchi yuridik shaxslar etib belgilanishi mumkin».

Aktsiz soliq turi sanoqli iste'mol tovarlarigagina joriy qilinishi bilan birga ikki xil ahamiyatga molikdir, ya'ni, birinchidan, davlat byudjeti daromad qismining asosiy manbalaridan biri bo'lsa, ikkinchidan, aktsiz to'lanadigan tovarlar (asosan ijtimoiy jihatdan zararli bo'lgan tovarlar)ga bo'lgan ehtiyojni cheklash hamda bu soliqni tovarlar talab va taklifining iqtisodiy regulyatori sifatida ko'pgina adabiyotlarda byerilgan.

Aktsiz solig'i miqdorlari tovarlar qiymatiga hamda uni ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita bog'lik bo'lmasdan, balki davlatning soliq siyosatiga bog'liq holda o'rnatiladi. Aktsiz solig'i summasi o'zida aktsiz to'lanadigan tovarlar qiymatini davlat byudjetiga undiriladigan qismini mujassam etadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar bo'yicha aktsiz

solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solish ob'ekti bo'lib bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan, tovarning bojxona rasmiylashtiruvi paytida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha so'mlarda qayta hisoblangan tovarning bojxona qiymati hisoblanadi.

Aktsiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{Ass } O * A : 100 \quad (2.1)$$

Bunda: O - o'z ichiga aktsiz solig'ini olgan, QQSsiz shartnomaviy(erkin) baho, A – aktsiz solig'i stavkasi.

Aktsiz solig'i summasi quyidagi formulalar bo'yicha aniqlanadi:

Suvsiz etil spirtining 1 litri uchun aktsiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan mahsulot bo'yicha mahsulot birligiga alkogolli mahsulot (kam spirtli vino, shampän vinosidan tashqari)

$$\text{Ass } (F \times A) / 100 \quad (2.3)$$

**Bunda:**

F - tayyor mahsulot tarkibidagi spirt (o'tkirligi), foizlarda (undan spirt tayyorlangan xom-ashyo turidan qat'i nazar);

A - aktsiz solig'ining qat'iy stavkasi, o'lchov birligiga, so'mlarda.

Tayyor mahsulot birligiga aktsiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan mahsulot bo'yicha (kam spirtli vino, shampän vinosi, vino matyeriallari, etil spirti, pivo, o'simlik (paxta) yog'i va tamaki mahsulotlari)

O x A, bunda:

O - tegishli o'lchov birliklarida sotilgan mahsulotning fizik hajmi;

A - aktsiz solig'ining qat'iy stavkasi, o'lchov birligiga so'mlarda.

Boshqa aktsizlanadigan mahsulotlar bo'yicha

$$(O \times A) / 100 \quad (2.3)$$

**Bunda:**

O - o'z ichiga aktsiz solig'ini oladigan narx, QQSsiz;

A - aktsiz solig'i stavkasi, foizlarda.

Aktsiz markalari bilan markalangan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i belgilangan tartibda hisoblab chiqiladi. Bunda aktsiz markalarining nominal qiymati aktsiz

solig'ini to'lash hisobiga kiritilmaydi.

Buyurtmachining xom-ashe ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan balansdan tashqarida hisobga olinadi. Buyurtmachi xom-ashyosidan mahsulot ishlab chiqilganda aktsiz solig'i uchun aktsiz solig'iga tortiladigan mahsulot oboroti shu tovarlarni ishlab chiqarishga sarflangan ishlarning qiymati va byerilgan buyurtmachi xom-ashyosi qiymati bilan aniqlanadi. SHartnomaviy erkin baho xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobli bahosi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\frac{S_{He.b} Sx100}{100-A} \quad (2.4)$$

**100-A**

**Bunda:**

**S** – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobli bahosi;

**A** – aktsiz solig'i stavkasi.

Bu tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i tovarlarning shartnomaviy erkin bahosi quyidagicha aniqlanadi:

$$As \frac{Osh.e.baho * A}{100} \quad (2.5)$$

100

Import tovarlar uchun soliq ob'ekti bojxona haqidagi qonun hujjatlarida belgilangan bojxona qiymati hisoblanadi.

Aktsiz solig'i O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan xom-ashyo dan (mahsulotdan) aktsiz solig'iga tortiladigan tovar ishlab chiqarilgan taqdirda, xom-ashyo (mahsulot) bo'yicha to'langan aktsiz solig'i summasi ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilmaydi, balki tayyor mahsulotning sotilgan hajmi bo'yicha byudjetga to'lanadigan aktsiz solig'i summasini aniqlash chog'ida hisobga olinishi kerak.

Hisobga olinadigan aktsiz solig'i hisobi summasi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun aktsizlanadigan xom-ashyo (mahsulot) etkazib byeruvchilar schyot-fakturalarda yuklab jo'natilgan xom-ashyo (mahsulot) bo'yicha aktsiz solig'i summasini ajratib ko'rsatilishi lozim.

Xarid qilinayotgan aktsizlanadigan xom-ashyo (mahsulot) bo'yicha aktsiz

solig'i hisobi summasi yangi qabul qilingan schyot-fakturada alohida ajratib ko'rsatilsa aktsiz solig'i hisobini yanada aniq yurilishiga xizmat qiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan o'z xom-ashyo va matyeriallaridan ishlab chiqarilgan yoki daval xom-ashyo yoki matyeriallardan aktsiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlarga to'lov sifatida olingan mahsulotlarining realizatsiyasini amalga oshiriladi.

Aktsiz solig'ining hisobini yuritish xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xo'jalik faoliyatida alohida o'rin egallaydi. SHu sababli aktsiz solig'ining hisobini yuritishni "Bog'izog'on" mas'uliyati cheklangan jamiyatining amaliy ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

Bunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar byudjet bilan bo'ladigan hisoblashish ishlarida bilvosita soliqlarning aniq bir turi bo'yicha hisob ishlarining yanada samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi degan umiddamiz. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda aktsiz to'lanadigan tovarlar realizatsiya qilinadigan buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Dt-4010- "Xaridorlar va buyurmachilardan olinadigan schyoti" 430511,5 (ming so'm);

Kt-6421-"Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga aktsiz solig'i bo'yicha byudjetga qarz schyoti" 430511,5 (ming so'm);

Xo'jalik sub'ektlarida ishlab chiqarilgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni, ishlab chiqarish jarayonida aktsiz solig'iga tortilmaydigan tovarlarni ishlatilganda, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'iga tortilmaydigan tovarlar, mahsulot tannarxiga kiritilishi buxgaltyeriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi.

D-t - 2010 –"Asosiy ishlab chiqarish schyoti" 430511,5 (ming so'm);

K-t-6421-"Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) ga aktsiz solig'i bo'yicha byudjetga qarz schyoti" 430511,5 (ming so'm);

Yuqoridagi byerilgan buxgaltyeriya provodkalari xo'jalik sub'ektlarida aktsiz solig'i bo'yicha sodir bo'lgan buxgaltyeriya operatsiyalarining takomillashiga xizmat

qiladi deb hisoblaymiz.

“O’zvinosanoat-xolding” XK tizimidagi xo’jalik yurituvchi sub’ektlari aktsiz solig’i bo’yicha byudjet bilan hisoblashishlar yuzasidan schyotlar korrespondentsiyasini 5.8-jadval ma’lumotlaridan ko’rish mumkin.


### 5.8 - jadval.

#### Aktsiz solig’i bo’yicha byudjet bilan hisoblashishda schyotlar korrespondentsiyasi

Byudjtga bo’lgan qarzdorlikning kamayishi	Korrespondentsiyalanu v-chi schyot	Byudjetga bo’lgan qarzdorlikning ko’payishi	Korrespondentsiyalanu v-chi schyot
<p>Mol etkazib byeruvchilarga to’langan va realizatsiya qilingan aktsiz to’lanadigan tovarlarini ishlab chiqarishda foydalanilgan aktsiz to’lanadigan tovarlar (xom-ashyo) bo’yicha aktsiz solig’i chiqarildi</p> <p>Realizatsiya qilingan tovarga aktsiz markalari bo’yicha to’lov hisoblndi.</p> <p>Aktsiz solig’i byudjetga to’landi</p>	<p>4420</p> <p>9430</p> <p>5110</p>	<p>Aktsiz solig’i hisoblandi:</p> <p>Tayyor mahsulot va tovarlar sotilishiga aktsiz hisoblandi;</p>	4020
		<p>Ishlab chiqaruvchida, ishlab chiqarilgan va tayyor mahsulot tarkibiga kiritilgan aktsiz to’lanadigan tovarlar bo’yicha</p>	4420
		<p>Aktsiz osti bo’lmagan tovarlarni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan, o’zi ishlab chiqargan aktsiz to’lanadigan tovarlar bo’yicha aktsiz solig’i hisoblandi.</p>	2010
		<p>Boshqa aktivlarni (matyeriallar) ni sotish va tekinga byerishda hisobdan chiqarilishida aktsiz solig’i hisoblanganda</p>	9220
		<p>Qaytarib olmaslik sharti bilan byerib yuborilgan aktsiz to’lanadigan tovarlar bo’yicha hisob-kitob bilan bog’liq bo’lsa</p>	9430
		<p>Aktsiz solig’ini byudjetdan qaytarilishi</p>	5110
		<b>Saldo</b> -aktsiz solig’i bo’yicha tashkilotning davr oxiriga qarzi.	

Xo’jalik sub’ektlarida byudjet bilan hisoblashishlar bo’yicha schyotlar korespondetsiyasini (5.6-rasm)dan ko’rish mumkin.





**5.6-rasm. Byudjet bilan aktsiz solig'i bo'yicha hisoblashish yuzasidan schyotlar korrespondentsiyasi.**

Ishlab chiqarish xo'jalik sub'ektlarida aktsiz solig'i bo'yicha byudjet bilan hisoblashishda schyotlar korospondentsiyasi soliqlarning to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida to'lanishiga yordam byeradi va soliqlar hisobining samaradorligini ta'minlaydi deb hisoblaymiz.

## **VI-BOB. MOL-MULK VA RESURS SOLIQLARI HISOBI VA HISOBOTI**

### **6.1-§. Mol-mulk solig'i hisobi va hisoboti**

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 265 moddasiga asosan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchidir.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilardir.

Mol-mulk solig'ining ob'ektlari quyidagilardir:

- a. Asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar;
- b. Tugallanmagan qurilish ob'ektlari;
- c. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" PQ-1887-sonli Qaroriga asosan nomoddiy aktivlar mol-mulk solig'ining ob'ektidan chiqarildi. Nomoddiy aktivlar mol-mulk solig'ining ob'ektidan chiqarilganligi munosabati bilan ulardan foydalanish huquqi ham soliq

solish ob'ekti hisoblanmaydi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- asosiy vositalar bo'yicha - asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati.

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

- Normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha - tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

- O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk ob'ektlariga nisbatan ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati.

Soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kundagi holatiga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Buni hisoblash uchun quyidagi hisob registridan foydalanish mumkin:

2019 yildan boshlab yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi miqdori kamayadi, uni kichik korxonalar to'lay boshlaydi. Bu 24.12.2018 yildagi O'RQ-508-son Qonunda<sup>31</sup> nazarda tutilgan.

Mol-mulkdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutilmoqda:

- normativ muddatlarda belgilanmagan jihozlar va normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlariga mol-mulk solig'i ikki karra oshirilgan stavkada to'lanadi;

- 4.09.2018 yildagi PQ-3928-son qarorda belgilangan tartibda samarasiz foydalanilayotganligi yuzasidan chiqarilgan xulosa asosida normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari, bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish

---

<sup>31</sup> "Soliq va byudjet siyosatining 2019 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-508-son Qonun. 2018 yil 24 dekabr.

maydonlari bo'yicha Soliq kodeksida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuzasidan nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilmaydi.

2019 yil 1 yanvardan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar – ishlovchilar soni va mahsulot realizatsiyasi hajmidan qat'i nazar, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lay boshladilar. Ilgari bu soliqni to'lamasdilar.

Ayni paytda quyidagilar saqlanib qoladi:

- yagona yer solig'ini to'lovchilarni mol-mulk solig'idan ozod qilish, ushbu soliq bo'yicha esa imtiyozlar byerish;

- bino va inshootlardan samarasiz foydalanayotgan yuridik shaxslar uchun, shu jumladan ilgari xususiylashtirilgan ob'ektlar, shuningdek normativ muddatda o'rnatilmagan jihoz va normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari bo'yicha soliq oshirilgan stavkalarda hisoblab chiqariladi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 269-moddasiga asosan qo'llaniladi.

Mol-mulkka solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga kamaytiriladi:

kommunal xo'jaligi ob'ektlarining. Kommunal xo'jaligi ob'ektlariga quyidagilar kiradi: vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);

madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlarining;

sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob'ektlarining;

tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarning. Ob'ektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarga kiritish tegishli ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral

truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

konsyervatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish ob'ektlarining;

soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlarning;

Quyidagilar mol-mulk solig'idan ozod qilinadi:

sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat va san'at tashkilotlari;

uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig'ishtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo'jalik boshqarmalari, o'to'chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo'jaligining xo'jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo'jaligi va shahar xo'jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalari kiradi;

yangi tashkil etilgan korxonalar - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar negizida tashkil etilgan korxonalariga, shuningdek boshqa korxonalar hududida shu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalardan foydalangan holda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi;

6.1-jadval

**Mol-mulk solig'ini hisoblash uchun asosiy vositalar  
o'rtacha qiymatining hisob-kitob registri (2018 yil)**

	Balansning qator kodi	2013yil 1 yanvar holatiga qoldiq						
		01.01.18	01.02.18	01.03.18	01.04.18	01.05.18	01.06.18	
<b>1</b>	Asosiy vositalar	010	36295340676	36658161730	36637405807	43652860794	43752540329	43770218329
<b>2</b>	Asosiy vositalarning eskirishi	011	1644923016	1809913925	1964276483	2131322347	231516315	2498043745
<b>3</b>	Mulkning qoldiq qiymati	012 022	37525448507	37673837452	37449574543	44248839237	44116180378	43901186519
<b>4</b>	Soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan qiymat (imtiyoz)		36848992371	37000278706	36791260033	43592557767	43457756504	43245189630
<b>5</b>	Soliqqa tortiladigan qiymat (3-4)		676456136	673558746	658314510	656281471	658423873	655996890
	Hisobot davrida soliqqa tortiladigan mulkning o'rtacha qoldiq qiymati		665787039		Soliqdan ozod qilingan mulkning o'rtacha qiymati		41653658899	

## 6.1-jadval davomi

№		Balansning qator kodi	2019 yil 1 yanvar holatiga qoldiq						
			01.07.18	01.08.18	01.09.18	01.10.18	01.11.18	01.12.18	01.01.19
1	Asosiy vositalar	010	44064681247	44074431174	44075331174	44076681174	44079001174	44078811174	44078811174
2	Asosiy vositalarning eskirishi	011	2681631044	2866912461	3052243212	3237577712	3422920650	3608268172	3793616067
3	Mulkning qoldiq qiymati	012 022	43962917710	43738241792	43519074103	43285700980	43057996531	42822990604	42588174304
4	Soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan qiymat (imtiyoz)		43289924223	43066107997	42848489134	42617568586	42389996713	42157637945	41925286721
5	Soliqqa tortiladigan qiymat (3-4)		672993487	672133795	670584969	668132394	667999818	665352659	662887583

ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Mol-mulk solig'ining stavkasi quyidagi hollarda kamaytiriladi:

Eksport qiluvchi korxonalar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha 2016 yil uchun, realizatsiyaning umumiy hajmida o'zi ishlab chiqarilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar, ularni bajarish, ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) eksportning erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushiga bog'liq holda soliq solishning regressiv shkalasi qo'llaniladi.

Bunda eksportning ulushi realizatsiyaning ulushi hajmida,

15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda – belgilangan stavka 30 foizga pasaytiriladi;

- 30 va undan ko'p bo'lganda – belgilangan stavka 50 foizga pasaytiriladi.

## 6.2-jadval.

### Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq STAVKASI

<i>No</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1.	Yuridik shaxslar	2
2.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun, bundan ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan xom ashyo tovarlari mustasno:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

Mol-mulk solig'i bo'yicha soliq davri kalendar yil hisoblanadi.



## **Mol-mulk solig'i bo'yicha joriy to'lov va soliqni hisoblash tartibi.**

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lov to'laydi.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash bo'yicha ma'lumotnoma shaklini to'ldirishda quyidagilar ko'rsatiladi:

1) 010-satrdan – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olinganlariniki;

2) 020-satrdan – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning foizlarda belgilangan stavkasi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2 foiz

3) 030-satrdan – 010 va 020-satrlar qiymatlarining ko'paytmasi sifatida hisoblab chiqarilgan soliq summasi ( $030\text{-satr} = 010\text{-satr} \times 020\text{-satr}$ );

4) 040-satrdan – me'yoriy muddatda bitkazilmagan qurilish ob'ektining taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qiymati, u bino va inshootlarni barpo etish, uskunalari, asboblari, inventarlar hamda smetalar, smeta-moliyaviy hisob-kitoblar va kapital qurilishga doir titul ro'yxatlarda nazarda tutilgan boshqa predmetlarni xarid qilish bo'yicha (ushbu qurilish pudrat yoki xo'jalik usulida amalga oshirilishidan qat'i nazar) taxmin qilinayotgan xarajatlarni, ya'ni tugallanmagan qurilishni hisobga olish hisobvarag'ida hisobga olinadigan ob'ekt bo'yicha ishlar va xarajatlarning butun hajmini (belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ekti qismida) o'z ichiga oladi;

5) 050-satrda – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning foizlarda belgilangan stavkasi.

Me'yoriy muddatlarda foydalanishga topshirilmagan tugallanmagan qurilish qiymatiga eksportchi korxonalar uchun nazarda tutilgan pasaytirilgan stavkalar qo'llanmaydi;

6) 060-satrda – 040 va 050-satrlar qiymatlarining ko'paytmasi sifatida hisoblab chiqarilgan soliq summasi ( $060\text{-satr} = 040\text{-satr} \times 050\text{-satr}$ );

7) 070-satrda – belgilangan muddatda foydalanishga topshirilmagan uskunaning (bunday uskunalar montaj qilishni talab etadigan hamda kapital qo'yilmalar hisobiga rekonstruktsiya va (yoki) modyernizatsiya qilinadigan ob'ektlarda foydalanishga topshiriladigan uskunalar kiradi) taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qiymati;

8) 080-satrda – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning foizlarda belgilangan stavkasi.

Hisoblab chiqarilgan joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda soliq to'lovchi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to'lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha

joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

### **Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.**

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish Soliq Kodeks 267-moddasining birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to'lovchi - O'zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Agar ko'chmas mulk soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, hisob-kitob ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davrida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda soliq to'lovchi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to'lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to'lanishi kyerak.

Mol-mulk solig'i bo'yicha joriy to'lovlar hamda hisob-kitobga asosan aniqlangan soliq summalarini buxgaltyeriya hisobi schyotlarida aks ettirish

uslubiyotini ko'rib chiqamiz.

Mol-mulk solig'i bo'yicha joriy to'lovlar va soliq summasini aks ettirish uchun quyidagi schyotlardan foydalanamiz:

▪ 4410 "Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari" scheti;

▪ 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari" schyoti.

***Mol-mulk solig'i bo'yicha joriy to'lov byudjetga o'tkazildi (har chorakda):***

**Debet** – 4410 "Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari" – 500 000 so'm.

**Kredit** – 5110 "Hisob-kitob schyoti" – 500 000 so'm

***Mol-mulk solig'i hisoblandi:***

**Debet** – 9430 "Boshqa operatsion harajatlar" – 2 500 000 so'm.

**Kredit** – 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari" – 2 500 000 so'm

***Mol-mulk solig'i bo'yicha yil davomida o'tkazilgan joriy to'lovlar, yakuniy hisob-kitoblarga asosan:***

**Debet** – 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari" – 2 000 000 so'm.

**Kredit** – 4410 "Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari" – 2 000 000 so'm

***Hisoblangan mol-mulk solig'ining joriy to'lovdan qolgan qismi byudjetga o'tkazildi:***

**Debet** – 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari" – 500 000 so'm.

**Kredit** – 5110 "Hisob-kitob schyoti" – 500 000 so'm

## **6.2-§. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining**

### **hisobi va hisoboti**

Soliq qodeksining 279-moddasiga asosan, mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilaridir.

Ko'chmas mulk ijaraga byerilgan taqdirda, ijaraga byeruvchi yer solig'ini

to'lovchi bo'ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

Quyidagilar yer solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari bo'yicha yer solig'i to'lovchilar bo'ladi. Bunda Soliq Kodeksining 132-moddasida ko'rsatilgan boshqa daromadlarni olish tadbirkorlik faoliyati sifatida qaralmaydi.

Soliq qodeksining 280-moddasiga asosan, Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish ob'ektidir.

Quyidagilarga soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar;

aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig'ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);

zaxira yerlar.

Soliq Kodeksining 281-moddasiga asosan, yer uchastkasining Soliq Kodeksi 282-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy *maydoni soliq solinadigan bazadir*.

Qaysi yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha yer

uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

Yer solig'ini to'lovchi yer solig'ini to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkalari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmaganda, soliq solinadigan baza olinadigan sof tushumning umumiy hajmida yer solig'ini to'lash nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma salmog'idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq qodeksining 282-moddasiga asosan, *yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:*

1) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari - o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;

2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chyernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

3) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida

belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

*Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:*

1) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;

2) davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfyera rezyervatlarining, milliy bog'larning yerlari, yuqorida ko'rsatilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlari bundan mustasno;

3) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga byerilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

4) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga byerilgan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga byerilgan moddiy madaniy myeros ob'ektlari, xotira bog'lari egallagan yerlar.

6) suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda byerilgan suv havzalari hamda boshqa suv ob'ektlari sohillari bo'ylab ajratilgan mintaqa yerlari kiradi;

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstantsiyalari va inshootlari egallagan



yerlar;

8) umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

9) madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash ob'ektlari egallagan yerlar;

10) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

11) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'llar stantsiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga byerilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

12) shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stantsiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

13) sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

14) aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stantsiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukyerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

15) magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stantsiyalari, yong'inga qarshi va avariya qarshi stantsiyalar, truboprovodlarni katodli himoyalash stantsiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, truboprovodlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

16) magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stantsiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, tsirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

17) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari egallagan yerlar;

18) O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlariga kiritilgan ob'ektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;

19) konsyervatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan ob'ektlar egallagan yerlar, ularning konsyervatsiyasi davrida;

20) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stantsiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

21) yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan ob'ektlar egallagan yerlar;

22) ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv ob'ektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sohadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlarning temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari; cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar; shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonalar atrofidagi o'rmonlar; suv ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o'rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar;

23) qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni

o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

24) melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

25) yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun byeriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

26) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning selektsiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Yuridik shaxslar - davlat mulki ob'ektlarini sotib oluvchilar uchun yer solig'i summasi davlat mulki ob'ektlariga to'g'ri keladigan soliq summasiga kamaytirilib, bo'shagan mablag'lar xususiylashtirilgan ob'ektlarni modyernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ularni rivojlantirishga maqsadli tarzda yo'naltiriladi. Ushbu imtiyoz oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan e'tiboran 12 oy mobaynida qo'llaniladi.

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga ushbu moddada belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Soliq qodeksining 283-moddasiga asosan, yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan

to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida to'lanadi.

Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari, bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari joylashgan yer uchastkalari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i ulardan samarasiz foydalanilayotganligi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chiqarilgan xulosa asosida, oshirilgan stavkalar bo'yicha to'lanadi hamda ushbu Kodeksning 282-moddasida ko'rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq qodeksining 285-moddasiga asosan, yer solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 10 yanvariga qadar taqdim etiladi.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish ushbu Kodeksning 281-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

*Yer solig'ining stavkalari*, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining navbatdagi yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rastkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan har yili tasdiqlanadi.

Soliq hisobotlari Adliya vazirligida 2019 yil 21 yanvarda 3126-son bilan

ro'yxatga olingan "Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo'mitalarining 2019 yil 7 yanvardagi 2019-05, 2-son qarorlari bilan *tasdiqlangan shakllar asosida* to'ldiriladi.

Soliq qodeksining 286-moddasiga asosan, *yer solig'ini to'lash*, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yer solig'i yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-sanasigacha;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - yer solig'i yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-sanasigacha.

Soliq davri mobaynida yer solig'i to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1 sentyabriga qadar - yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1 dekabrigha qadar - soliqning qolgan summasi.

"Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq hisoboti shakllari"asosida:

Hisobot shaklining «Joriy soliq davrining 1 yanvardagi holat bo'yicha qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'lmagan yerlar uchun to'lanadigan yer solig'i hisob-kitobi» shaklining 010-satri – Yer uchastkasining umumiy maydoni (Mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 3-ustuni yoki 020-satr 3-ustuni) – 1,67 gektar.

020-satri – Soliq solinmaydigan yer maydoni (Mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 4-ustuni yoki 020-satr 4-ustuni) – 0.

Agar soliq to'lovchining yer solig'idan imtiyozi bo'lsa, mazkur hisob-kitobning 2-ilovasida Soliq kodeksi moddasi, bandlari yoki normativ-huquqiy xujjatlar ko'rsatilgan holda yer maydoni kiritiladi.

030-satri – Soliq solinadigan baza (Mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010 satr 5-ustuni yoki 020 satr 5-ustuni) – 1,67 gektar.

030-satri – Yil uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan jami soliq summasi

(Mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 7-ustuni yoki 020-satr 7-ustuni) – 5 006 867 so'm.

0401-satri – I chorak uchun 15 fevralgacha – 1251717 so'm;

0402-satri – II chorak uchun 15 maygacha – 1251717 so'm;

0403-satri – III chorak uchun 15 avgustgacha – 1251717 so'm;

0404-satri – IV chorak uchun 15 noyabrgacha – 1251716 so'm;

Yer solig'ining buxgalyeriya hisobini o'rganishda joriy to'lovlar va tuzilgan soliq hisobotiga asosan aniqlangan soliq summaları schyotlarda quyidagicha aks ettiriladi.

№	Opyeratsiya mazmuni	Schyotlar korrespondentsiyasi		Summa ming so'm
		Debet	Kredit	
1.	Soliq davri mobaynida to'lab borilgan yer solig'i bo'yicha to'lovlar	4410 "Byudjetga soliqlar va majburiy bo'yicha to'lovlari" schyoti	5110 "Hisob-kitob va boshqa to'lovlar bo'nak bo'yicha to'lovlari" schyoti	
2.	Soliq davrining oxirida joriy to'lovlar .	6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari" schyoti	4410 "Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari" schyoti	
3.	Soliq davri uchun tuzilgan soliq hisobotiga asosan hisoblangan yer solig'i summasiga	9430 "Boshqa opyeration xarajatlar" schyoti	6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari" schyoti	
4.	Yer solig'i byudjetga o'tkazildi	6410 "Byudjetga to'lovlar qarzlari" schyoti	5110 "Hisob-kitob bo'yicha schyoti"	

### 6.3-§. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisobi va hisoboti.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 257-moddasiga asosan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardir:

yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;

tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar; yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv etkazib byerishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir.

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish ob'ektidir.

Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vyertikal va gorizontall drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

Foydalanilgan suvning hajmi ushbu Kodeks 261-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq soliqqa tortilmaydigan suv hajmi chegirilgan holda soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalyeriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv ob'ektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan

foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv etkazib byeruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga joriy soliq davrining 15 yanvariga qadar taqdim etishlari kyerak. Davlat soliq xizmati organlari besh kun ichida ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga etkazishi lozim.

Soliq to'lovchi issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq solinadigan bazani ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda soliq solinadigan baza suv etkazib byeruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga byeruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida joylarni ijaraga olgan va suv etkazib byeruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv etkazib byerilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.



Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun soliq solinadigan baza ushbu moddaning to'qqizinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan suv resurslarining hajmi hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy hajmida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog'idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan Soliq kodeksining 261-moddasiga asosan imtiyozlar byerilgan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

suv uchun byudjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;

ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar - tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti minyeral suvlari hajmiga, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;

shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

5) gidroelektr stantsiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

6) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

7) issiqlik elektr stantsiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv hajmiga.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi (Soliq stavkalari 2019 yil 1 yanvardan 6.3-jadvalda keltirilgan).

### 6.3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-son qaroriga 14-ILOVA

#### Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI

№	To'lovchilar	1 kub metr uchun stavka (so'm)	
		Yer usti suv resurslari manbalari	Yer osti suv resurslari manbalari
2.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalarini (2-4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari)	360	430
3.	Avtoulavlarni yuvishga ixtisoslashgan korxonalar	1 200	1 500
4.	Elektr stantsiyalari	30	50
5.	Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini	60	80
6.	Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchilar:		
	Suv hajmi bo'yicha, alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarishda	19 040	19 040
	Boshqa maqsadlar uchun	120	150

Soliq davri mobaynida soliq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlarni to'laydilar.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlarni to'laydilar, bundan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari mustasno.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 25 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (foydalaniladigan suv hajmidan) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) - har oyning 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;

soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kamni tashkil etadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - yilning har choragi uchinchi

oyining 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash joriy to'lovlar hisobga olingan holda soliq to'lovchilar tomonidan, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi, bundan yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari mustasno.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

1) 010-satrdan –suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suvdan foydalanishning taxmin qilinayotgan hajmi (kub metrda) (8-9-illovalar).

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslari hajmlarining hisobini alohida-alohida yuritadilar, ular tegishincha 4 va 5-ustunlarda aks ettiriladi hamda vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlarining nisbatiga asosan belgilanadi.

Ushbu alohida hisob soliq to'lovchilar e'tiboriga soliq organlari tomonidan joriy soliq davrining 20 yanvarigacha etkaziladi.

3-ustun ("Jami") 010-satrlarining qiymati 010-satrlar 4 va 5-ustunlari qiymatlari yig'indisi (010-satrlar = 4-ustun + 5-ustun) sifatida aniqlanadi;

2) 4-ustunning 020-satrida – 2013 yil uchun belgilangan, soliq to'lovchining toifasiga bog'liq holda 1 kub metr uchun so'mda yer usti manbalaridagi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi;

5-ustunning 020-satrida – 2013 yil uchun belgilangan, soliq to'lovchining toifasiga bog'liq holda 1 kub metr uchun so'mda yer osti manbalaridan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi.

3) 4-ustunning 030-satrida – 2013 yilda byudjetga to'lanishi taxmin qilinayotgan yer usti manbalaridagi suv resurslari uchun soliq summasi, u 4-ustun 010 va 020-satrlari qiymatlari ko'paytmasi ( $4\text{-ustun} = 010\text{-satr} \times 020\text{-satr}$ ) sifatida hisoblab chiqariladi;

5-ustunning 030-satrida – 2013 yilda byudjetga to'lanishi taxmin qilinayotgan yer osti manbalaridagi suv resurslari uchun soliq summasi, u 5-ustun 010 va 020-satrlari qiymatlari ko'paytmasi ( $5\text{-ustun} = 010\text{-satr} \times 020\text{-satr}$ ) sifatida hisoblab chiqariladi;

3-ustun («Jami») 030-satrida – 2013 yilda byudjetga to'lanishi taxmin qilinayotgan soliq summasi, u 4 va 5-ustunlar qiymatlari yig'indisi sifatida hisoblab chiqariladi ( $030\text{-satr} = 4\text{-ustun} + 5\text{-ustun}$ );

4) 040-satrd:

bir yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning umumiy summasi EKIHning 200 baravaridan oshadigan yuridik shaxslar uchun (mikrofirmalar va kichik korxonalaridan tashqari) – oylik joriy to'lovlarning 030-satr qiymatini 12 ga bo'lishdan hosil bo'lgan bo'linma sifatida hisoblab chiqarilgan taxmin qilinayotgan summasi ( $040\text{-satr} = 030\text{ satr} / 12$ );

bir yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning umumiy summasi EKIHning 200 baravaridan kamni tashkil qiladigan yuridik shaxslar, mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun – choraklik joriy to'lovlarning 030-satr qiymatini 4 ga bo'lishdan hosil bo'lgan bo'linma sifatida hisoblab chiqarilgan taxmin qilinayotgan summasi ( $040\text{-satr} = 030\text{-satr} / 4$ ).

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi

to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10%dan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, soliq organi joriy to'lovlarni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

Bu soliq hisobotiga asosan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi aniqlanadi.

***Hisobotga asosan hisoblangan soliq summasiga quyidagi buxgaltyeriya yozuvi qilinadi:***

**Debet** – 9430 “Boshqa o'pyeratsion xarajatlar”

**Kredit** – 6410 “Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlilar”

**Soliq davri mobaynida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha amalga oshirilgan joriy to'lovlar buxgaltyeriya schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi:**

**Debet** – 4410 “Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari”

**Kredit** – 5110 “Hisob-kitob schyoti”

**YAkuniy hisob-kitob bo'yicha to'langan joriy to'lovlar summasi schyotlarda quyidagicha aks ettirildi:**

**Debet** – 6410 “Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlilar”

**Kredit** – 4410 “Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari”

***YAkuniy hisob-kitobga asosan aniqlangan soliq summasi bilan joriy to'lovlar o'rtasidagi farq aniqlandi va byudjetga o'tkazib byerildi. Bu buxgaltyeriya***

**hisobi schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi:**

**Debet** – 6410 “Byudjetga to’lovlar bo’yicha qarzar”

**Kredit** – 5110 “Hisob-kitob schyoti”

YUqoridagi buxgaltyeriya yozuvlari soliq hisobining sintetik va analitik registrlariga o’tkaziladi.

#### **6.4-§. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar va bonuslar hisobi**

Yer qa’ridan foydalanuvchilar to’laydigan soliqlar va maxsus to’lovlar, O’zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, minyeral xom ashyodan va (yoki) texnogen minyeral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa’ridan foydalanuvchilardir.

Yer qa’ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to’lovlarni to’laydilar:

yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qo’shimcha foyda solig’i;

bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni to’lovchilar quyidagilardir:

yer qa’ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, minyeral xom ashyodan va (yoki) texnogen minyeral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa’ridan foydalanuvchilar;

foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa’ridan foydalanuvchilar.

Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob’ektidir. Tayyor mahsulotlar ro’yxati O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya

qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul byerish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Soliq solish ob'ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodorodlar uchun soliq solish ob'ekti quyidagilardir:

sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen minyeral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish ob'ektidir.

Ushbu moddaning oltinchi qismida ko'rsatilganlardan tashqari, quyidagilar qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliq solish ob'ektidir:

kavlab olingan (shu jumladan qo'shilib chiqadigan) foydali qazilmalar;

foydali qazilmalardan, minyeral xom ashyodan, texnogen minyeral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar;

Soliq to'lovchilarga byerilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, agar ushbu moddaning oltinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun



o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizatsiya qilinmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning o'rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o'rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizatsiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o'rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklaratsiya qilinayotgan baholardan yuqori bo'lmasligi kerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Hisobot davri quyidagilardir:

yuridik shaxslar uchun - yil choragi;

jismoniy shaxslar uchun - kalendar yil.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Foydali qazilmalarning alohida turlari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda belgilanadi, lekin u yer qa'ridan foydalanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan soliq summasidan past bo'lmasligi kyerak.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

yuridik shaxslar tomonidan - ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

jismoniy shaxslar tomonidan - yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lash har oyda keyingi oyning 25-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar quyidagilardir:

ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kavlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar;

foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilmagan boshqa shaxslar qo'shimcha foyda solig'i to'lovchisi etib belgilanishi mumkin.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi.

Realizatsiya qilishdan olingan sof tushum bilan qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan daromadning bir qismi (qo'shimcha foyda) qo'shimcha foyda solig'ini solish ob'ektidir.

Qo'shimcha foyda summasi bilan qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblab chiqarilgan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida

aniqlanadigan sof qo'shimcha foyda soliq solinadigan bazadir.

Foydali qazilmalar va soliq solinadigan mahsulot ro'yxati, soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Qo'shimcha foyda solig'i solinadigan foydali qazilmalar va mahsulot turlari ro'yxati, shuningdek soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bonus yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovdir.

Yer qa'ridan foydalanuvchi quyidagi turdagi bonuslarni to'laydi:

imzoli bonus;

tijoratbop topilma bonusu.

Davlat boshqaruvi organlari bonuslar to'lamaydi.

Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdir.

Imzoli bonus litsenziya olingan kundan e'tiboran soliq to'lovchi tomonidan o'ttiz kundan kechiktirmay byudjetga to'lanadi va bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi.

Tijoratbop topilma bonusu tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdir. Tijoratbop topilma bonusu, agar avval mazkur kon bo'yicha tijoratbop topilma bonusu to'lanmagan bo'lsa, foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olishda yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan ham to'lanadi.

Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kavlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilma bonusu to'lanmaydi.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralari hajmi soliq solish ob'ektidir.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati soliq solinadigan bazadir. Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati quyidagicha hisoblab chiqiladi:

Tovar bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat reestriga kiritilgan yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun - foydali qazilmaning mazkur turi uchun tasdiqlangan deklaratsiya qilingan narxi bo'yicha;

boshqa yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xalqaro birjada belgilangan birja narxi bo'yicha, jahon bozorida narx mavjud bo'lmagan taqdirda esa, foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati - belgilangan tartibda kelishilgan tegishli konni sanoat yo'sinida o'zlashtirish bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslarda nazarda tutilgan kavlab olishning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib, uni 20 foiz oshirgan holda.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymatini aniqlash va tijoratbop topilma bonusini to'lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tijoratbop topilma bonusining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga foydali qazilmalarni kavlab olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini byeradigan litsenziya olingan kundan e'tiboran yigirma besh kundan kechiktirmay soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Tijoratbop topilma bonusini to'lash foydali qazilmalarni kavlab olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini byeradigan litsenziya olingan kundan e'tiboran to'qson kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

## VII BOB. SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBIDA TO'LANADIGAN SOLIQLAR HISOBI.

### 7.1-§. Yagona soliq to'lovi hisobi va hisoboti.

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bilan birgalikda soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlar ham amal qiladi.

**Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi deganda** – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-sonli “O'zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish Kontseptsiyasi to'g'risida”gi Farmonida.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga etibor qaratilgan.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertyrlarning tavsiyalaridan kelib chiqib:

1. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

- iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

- soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq

hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;

- makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;

- soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini kuchaytirish;

- soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

- xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

- soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish ob'ektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfyer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish lozimligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar yillik aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lgan soliq to'lovchilar uchun aylanmadan soliqni 4 % miqdordagi bazaviy stavkadan kelib chiqib hisoblash va to'lash tartibini hamda ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash imkoniyatini belgilanadi;

uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladilar. Bunda soliq organlariga davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblar alohida taqdim etilmaydi, shuningdek pensiya, yo'l va ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi jamg'armalariga majburiy ajratmalar summalarini alohida to'lanmaydi.

Soliq Kodeksida belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning

soddalashtirilgan tartibda to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

- yagona soliq to'lovi;
- yagonayer solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

**Yagona soliq to'lovi to'lovchilar quyidagilardir:**

1) mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilganlar mustasno;

2) xodimlarning sonidan qat'i nazar:

savdo korxonalari va umumiy ovqatlanish korxonalari;

xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar;

lotyereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.

Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi:

- aktsiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi va yyer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

- yagona yyer solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

- mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga.

Soddalashtirilgan tartibda yagona soliq to'lovi to'lovchilar uchun soliq solish ob'ekti yalpi tushum hisoblanadi, soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum tushuniladi.

Soliq Kodeksning 355-moddasiga muvofiq chegirmalar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Yagona soliq to'lovini hisoblashda ayrim hollarda yalpi tushumga tuzatishlar kiritishga to'g'ri keladi. Soliq to'lovchida yalpi tushumga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlari faoliyat munosabatlaridan kelib chiqib soliqqa tortishda umumbelgilangan hamda sodalashtirilgan tartibdagi soliqlar bo'yicha byudjet bilan hisoblashishlarni amalga oshiradi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

1) soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan yuridik shaxslar;

2) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) shyerik (ishtirokchi) - soliq davrida oddiy shirkat faoliyatidan olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkor;

3) soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, bundan ushbu moddaning 4-bandida ko'rsatilganlar mustasno;

4) soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bir milliard so'mdan oshmagan:

meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchi;

Elektron tijorat sub'ektlarining milliy reestriga kiritilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

5) soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan oilaviy korxonalar;

6) notijorat tashkilotlar daromadlarining soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan qismi bo'yicha, soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari bir milliard so'mdan oshmasligi sharti bilan.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar yillik aylanmaning (tushumning) belgilangan chegaraviy miqdorini tovar aylanmasidan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi.

Yagona soliq to'lovi:

aktsiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga



oshiruvchi;

aktsiz solig'iga tortiladigan mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi;

ushbu Kodeksning 57-bobiga muvofiq yagona yer solig'i to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi;

mahsulot taqsimotiga oid bitimlarning ishtirokchilari bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli.

Yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, yagona soliq to'lovini to'lashga o'tilayotgan joriy hisobot davri birinchi oyining 10-sanasidan kechiktirmay xabardor qiladi.

Yangi tuzilayotgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran tadbirkorlik faoliyati sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazish chog'ida tanlangan soliq solish tartibini ko'rsatish orqali yagona soliq to'lovini to'lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Soliq to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda, hisobot davri tugaganidan so'ng o'n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tadi.

Soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar belgilangan chegaraviy miqdor oshib ketgan oydan keyingi oyning boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tadi.

Turli soliq solish ob'ektlari va (yoki) yagona soliq to'lovi stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar shu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari kyerak. Bunda ushbu Kodeks 355-moddasining ikkinchi

qismi 2-bandida ko'rsatilgan daromadlarga asosiy (soha) faoliyat turi uchun belgilangan yagona soliq to'lovi stavkalari bo'yicha soliq solinadi.

Yalpi tushum soliq solish ob'ektidir. Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini, va aktsiz solig'ini chegirgan holda (ushbu soliqlarni to'laydigan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun - o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni matyeriallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu matyeriallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi matyeriallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun - tovar oboroti;

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) byeruvchi yuridik shaxslar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun - ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

lotyereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum;

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) realizatsiya

qiluvchi, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tekin byeruvchi yuridik shaxslar uchun - agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Bunda baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi. O'zi ishlab chiqargan tovarlarni jahon bozorida haqiqiy vujudga kelgan narxlar bo'yicha, shu jumladan tannarxidan past narxlar bo'yicha eksport qilish masalalarini ko'rib chiquvchi maxsus vakolatli organning qarorlari asosida ushbu tovarlarning tannarxidan past narxlar bo'yicha xorijiy valyutaga eksport qilinganda, soliq solish maqsadida tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushum tovarlarni realizatsiya qilishning haqiqiy bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga bepul byeriladigan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

2) agar ushbu moddaning to'rtinchi va beshinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Kodeksning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushadigan tushum ushbu Kodeks 130-moddasining ettinchi - o'ninchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda hisobot davri mobaynida uzoq muddatli kontraktlarni haqiqatda bosqichma-bosqich ijro etishga oid qismida hisobga olinadi.

Quyidagilarga soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aktsiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari

(ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib byerilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi shyerigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) byudjetdan byerilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

9) notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta'minoti va ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko'ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag'lar.

10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq byeruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno);

12) ob'ekt qiymatining ijaraga byeruvchi (lizing byeruvchi) tomonidan olingan

ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

13) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

14) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish ob'ektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

15) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish ob'ekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

2) to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;

4) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kyerak;

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot etkazib byeruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi

summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar;

Soliq solinadigan baza ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

2) lotyereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga;

3) brokyerlik tashkilotlari uchun - bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun - realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga.

5) turistik faoliyat sub'ektlari uchun - turistik xizmatlarni onlayn-bronlashtirish va sotish bo'yicha dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga.

6) kalendar yil mobaynida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan belgilangan eng yuqori chegaraviy miqdordan oshganligi sababli yagona soliq to'lovini to'lashga o'tganda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - qat'iy belgilangan soliqni to'lash davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasiga.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:

yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini syertifikatlashtirishdan o'tkazishga, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar olishga, biroq soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik asbob-uskuna bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yil ichida amalga oshiriladi;

yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

Soliq to'lovchida yalpi tushumga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;
- 3) baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Yalpi tushumga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi. Yalpi tushumga tuzatish kiritish yuz byerganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (ishni, xizmatni) etkazib byeruvchi yalpi tushumga tuzatish kiritishni Soliq Kodeksning 222-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz byergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Kalendar yil soliq davridir. Yil choragi hisobot davridir.

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa

yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovi quyidagicha to'lanadi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan tushum soliq to'lovchining yalpi tushumiga to'liq miqdorda qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan foyda solig'ining summasi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasida yagona soliq to'lovini to'lash chog'ida hisobga olinadi.

To'lov xabarnomasi, chet davlat soliq organining ma'lumotnomasi yoki chet elda soliq to'langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat chet elda to'langan foyda solig'ining summasini hisobga olish uchun asos bo'ladi.

#### **7.2-§. Yagona yer solig'i hisobi va hisoboti.**

Yagona yer solig'ini to'lovchilar quyidagilardir:

qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;

qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Agar ushbu moddaning uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob byeradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish asosiy faoliyat turi



bo'lgan yuridik shaxslar;

qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda byerilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Quyidagilar yagona yer solig'ini to'lovchilar sifatida qaralmaydi:

o'rmon va ovchilik xo'jaliklari;

yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1 fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan soliqlarni to'lashi shart.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar uchun Soliq Kodeksning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar bundan mustasno.

Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer solig'i to'lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Yer uchastkalari ob'ektlari va maydonlaridan samarasiz foydalanilganligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlangan taqdirda, yagona yer solig'ini to'lovchilar ushbu yer uchastkalari ob'ektlari va maydonlari bo'yicha yuridik

shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini belgilangan tartibda to'laydi.

Yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) byerilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijaraga byeruvchining zimmasida saqlanib qoladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga byerilgan yer uchastkasi soliq solish ob'ektidir.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

Yagona yer solig'i stavkasi qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Kalendar yil soliq davridir. Yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida byerilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi byerilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:  
hisobot yilining 1 sentyabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi;  
hisobot yilining 1 dekabrigacha - soliqning qolgan summasi.

### **7.3-§. Qat'iy belgilangan soliq hisobi va hisoboti.**

Bir kalendar yilda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar hisoblanadi.

Bir kalendar yil davomida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan miqdor oshgan oyning keyingi oyidan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashga o'tadi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosigina qat'iy belgilangan soliqni to'lovchi bo'ladi.

Quyidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar hisoblanmaydi:

meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchilar;

Elektron tijorat ishtirokchilarining milliy reestriga kiritilganlar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida quyidagilarni ham to'laydi.

1) bojxona to'lovlari;

2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;

3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik

faoliyati uchun foydalanilganda;

4) aktsiz solig'i - aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;

5) yagona ijtimoiy to'lov;

6) davlat boji;

7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, Soliq Kodeksida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza byerish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi. Bunda xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda byerilgan hisobga olish kartochkalarini ham belgilangan muddatlarda topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risidagi arizani olgan tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ kelgusi ish kuni tugaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari quyidagilardir:

chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kyerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, - yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

“Xodimlarni yollagan holda faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliqni ushbu moddada nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda mazkur bobda belgilangan tartibga muvofiq

to'laydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor zimmasiga Soliq Kodeksning 311-moddasida belgilangan tartibda yagona ijtimoiy to'lov to'lash majburiyati yuklatiladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun har bir yollangan xodimga yagona ijtimoiy to'lovni hisoblashni to'xtatib turishga asos bo'ladi.

Agar o'z faoliyatini to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkor davlat soliq xizmati organiga yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkalarini belgilangan muddatlarda taqdim etmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni va yagona ijtimoiy to'lovni hisoblash to'xtatilmaydi.

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 10-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik sub'ekti qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to'laydi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan keyin o'n ikki oy

ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan e'tiboran qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan olti oy muddatga ozod etiladi. YAKka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tilgan paytdan boshlab o'n ikki oy ichida faoliyat tugatilgan yoki faoliyat uch va undan ko'p oyga to'xtatilgan taqdirda, qat'iy belgilangan soliq faoliyat amalga oshirilgan butun davr uchun to'lanadi.

## **VIII BOB. BYUDJETDANT ASHQARI MAQSADLI JAMG'ARMALARGA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBI VA HISOBOTI**

### **8.1-§. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning davlat tomonidan tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va uning huquqiy asoslari**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat jamiyatimizdagi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi va olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart - sharoitlarni yaratib byerdi. Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va milliy iqtisodiyotni modyernizatsiyalashning bugungi jarayoni jamiyatda aholi daromadlarini qayta taqsimlashning moliyaviy mexanizmini takomillashtirishni qat'iy talab qo'ymoqda.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari ixtiyoridagi qat'iy maqsadli xususiyatga ega bo'lgan moliyaviy mablag'lar yig'indisidir. Ular har bir alohida davlat moliya tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Bu jamg'armalarni moliyaviy mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va resurslardan maqsadli yo'lda foydalanishi bevosita moliyaviy me'yoriy - huquqiy hujjatlar bilan muvofiqlashtiriladi va tartibga solinadi.

Iqtisodiyotni modyernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillaridan tadbirkorona foydalangan holda, bir tomondan xalqimizning hayot ehtiyojlarini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa davlatimiz o'z zimmasiga olgan ijtimoiy kafolatlarining moliyaviy bazasini mustahkamlash tadbirlarini shiddat bilan amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Soliq tizimi orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi bozor munosabatlarini rivojlantirishga, tadbirkorlikning taraqqiy etishiga yordam byerish va bir vaqtning o'zida aholining kam ta'minlangan qatlami turmush tarzini yaxshilanishini ta'minlash amalga oshirilishi lozim.

Kuchli, maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va aholini ijtimoiy himoyalashning ta'sirchan mexanizmini yaratish mamlakatda bozor



iqtisodiyotini shakllantirishning va ijtimoiy - siyosiy barqarorlikka erishishning omili hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari aholi daromadlari darajasining o'sishiga ishonchli zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida, davlatning amaldagi iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan aholining pul daromadlari shakllanishi va ularni qayta taqsimlanishini ijro etuvchi davlat moliya mexanizmlarini takomillashirish talabini o'rtaga asosiy muammo qilib qo'ymoqda. Bu jihatdan O'zbekistonda mehnat faoliyatidagi fuqarolarni ijtimoiy va pensiya sug'urtalash bugungi kunda o'ta muhim ijtimoiy va iqtisodiy omil hisoblanadi. Mamlakatimizning tanlagan yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti bozor mexanizmining samarali ishlashini, aholi turmushining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi, kuchli ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutib, bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi isloxotlarning o'ziga xos "o'zbek modeli»ning asosiy tamoyilidir.

Mamlakatimizda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishda yuksak natija va yutuqlarning qo'lga kiritilishida aholi turmush darajasining oshirilishi hamda ijtimoiy himoya tizimining yuqori darajada tashkil etilishi kabi jihatlarning o'rni va ahamiyati muhimdir.

Makroiqtisodiy muvozanatni barqarorlashtirish yo'lini izchillik bilan amalga oshirish iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modyernizatsiyalash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, pensiya ta'minotini to'liq amalga oshirish hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha pensiya va nafaqalarni to'lashga xarajatlarni to'liq moliyalash imkonini byerdi.

Ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyot tajribalaridan ma'lumki, mamlakat iqtisodiyoti uni rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlarini, iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlarini, milliy qadriyat va xususiyatlarini, ma'naviy boyliklarini to'la hisobga oluvchi, mukammal iqtisodiy siyosat ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilgan sharoitdagina barqaror va mutanosib rivojlana oladi. Aynan mana shunday omillarni o'z mazmun - mohiyatiga singdirgan, bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan to'liq e'tirof etilayotgan taraqqiyotning "o'zbek modeli» mamlakatimizning jadal ravnaq topishi,

xalqimiz moddiy va ma'naviy hayotining tez sur'atlar bilan yuksalib borishi uchun mustahkam negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizdagi islohotlarning barcha bosqichlarida ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari bo'yicha maqsadli jamg'armalar shakllantirildi. Albatta, shu kungacha bu jamg'armalarning amal qilishi aholini ijtimoiy himoyalashning jamiyatimiz boyligiga aylangan yutuqlariga hissa bo'lib qo'shilmogda. Endilikda bozor iqtisodiyotining yangi bosqichi talablariga muvofiq, ob'ektiv ravishda maqsadli jamg'armalar sonini ko'paytirish va ularning barchasini amal qilish samaradorligini oshirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmogda.

Mamlakatda iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining yuqori turmush darajasini ta'minlash va kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga asoslangan demokratik jamiyat qurish kabi maqsadli vazifa qo'yilar ekan, bunda byudjetdan tashqari jamg'armalarning hozirgi va istiqboldagi rivojlanishining xususiyatlarini hisobga olishimiz kerak bo'ladi.

Respublikamizning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotda to'g'ri yo'l tutganligi, uning rivojlanishi asosida qabul qilingan tamoyillarning mantiqiy yaxlitligi va keng qamrovi, eng muhimi, ularning xalqimiz hayoti mazmun - mohiyatini chuqur ifodalay olganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, 2008 yilda boshlangan hamda bugungi kunda hamon o'zining ta'sir oqibatlarini ko'rsatib kelayotgan jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimiz, uning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotining milliy modeli yana bir bor sinovdan muvaffaqiyatli o'tganligi e'tirofga loyiqdir.

Aholini ijtimoiy himoya qilish borasida ham bir qancha huquqiy va tashkiliy ishlar amalga oshirilib, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi va ularni samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilib kelinmogda.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar markaziy yoki mintaqaviy (mahalliy) hukumat organlari tasarrufida bo'lgan va maqsadli vazifalarga yo'naltiriladigan moliyaviy vositalar yig'indisini ifodalaydi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar - milliy daromadning davlat tomonidan

aholining ma'lum bir guruhleri foydasiga qayta taqsimlash usullaridan biridir. Davlat aholi daromadlarining bir qismini o'z chora - tadbirlarini moliyalashtirish uchun jalb qiladi. Ularning shakllanishi maxsus jamg'armalar va hisobraqamlar shaklidagi davlatning umumiy pul jamg'armasi – byudjet vujudga kelgan, hozirda byudjet bilan birgalikda byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati ham ortib bormoqda. SHuningdek, byudjetdan tashqari jamg'armalarning maqsadga muvofiq amal qilishi muhim ijtimoiy tadbirlarni moliyalashtirishni operativ amalga oshirish imkonini byeradi.

O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi qonunida “**davlat maqsadli jamg'armalari** - Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi me'yorlari va shartlari, uningdek shu mablag'laridan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi”<sup>32</sup> deb ta'riflangan.

**Byudjetdan tashqari jamg'armalar o'z maqsadli yo'nalishlari bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiyga, boshqarish darajasi bo'yicha esa davlat va mahalliy jamg'armalarga bo'linadi.**

Jahon tajribasida byudjetdan tashqari jamg'armalarning juda ko'p turlari mavjud. G'arb mamlakatlarida bunday jamg'armalarning soni 30 dan 80 gacha tashkil etadi. Lekin bu jamg'armalarni ikki katta guruhga ajratish mumkin:

- ijtimoiy yo'naltirilgan jamg'armalar (pensiya jamg'armalari, majburiy tibbiy sug'urta jamg'armalari, davlat bandlik jamg'armalari, ijtimoiy sug'urta jamg'armalari, aholini ijtimoiy qo'llab - quvvatlash umummilliy jamg'armalari);

- iqtisodiy yo'naltirilgan jamg'armalar (o'z yo'nalishi va manbalariga ega).

Gyermaniyada ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tarkibida juda ko'p avtonom jamg'armalar bor, ular ijtimoiy sug'urtaning alohida turlarini qamrab oladi. “Ishchi va xizmatchilarning pensiya jamg'armasi”, “Bemorligi uchun sug'urta jamg'armasi», “Ishsizlikdan sug'urtalash jamg'armasi” va boshqalar.

Buyuk Britaniyada ikkita asosiy ijtimoiy jamg'arma mavjud: “Milliy sug'urtalash jamg'armasi” va “Davlat tashkilotlarining pensiya jamg'armasi”.

---

<sup>32</sup>O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuni, 3-modda

Yaponiyada byudjetdan tashqari jamg'armalarning faoliyati - milliy daromadni davlat tomonidan aholining ma'lum ijtimoiy guruhlariga foydasiga qayta taqsimlash usulidir. Yaponiyada quyidagi byudjetdan tashqari jamg'armalar faoliyat ko'rsatadi: "Sog'liqni saqlashni sug'urtalash jamg'armasi", "Milliy pensiya jamg'armasi", "Ishlab chiqarishda zarar ko'rganda sug'urtalash jamg'armasi", "Ishsizlikni sug'urtalash jamg'armasi".


Frantsiyada, ikkinchi jahon urushi tugatilgandan so'ng, modyernizatsiya jamg'armasi tashkil etilgan bo'lib, keyinchalik, boshqa jamg'armalarga qo'shib yuborilishi natijasida "Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish jamg'armasi"ga aylantirildi. Unga byudjet ajratmalari bilan bir qatorda, ssuda kapitali bozoridagi qarz mablag'lari ham kelib tushadi. Jamg'arma asosan, investitsion dasturlarni moliyalashtirish bilan birga, hududiy rivojlantirish rejalari, mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, ish kuchini qayta tayyorlash va sanoat markazlaridagi korxonalarni qoloq hududlarga o'tkazish ishlarini amalga oshiradi. Mablag'lar umumdavlat rivojlantirish dasturiga ko'ra investitsiya qilgan milliy va xususiy korxonalariga qaytarilmas moliyaviy yordam yoki uzoq muddatli kreditlar shaklida byeriladi.

Frantsiyada alohida ahamiyatli jamg'armalarga quyidagilar kiradi: "Bemorligi, nogironligi, bolaliligi uchun sug'urta jamg'armasi", "Pensiya jamg'armasi", "Oilalarga yordam jamg'armasi", "Ishsizlarga yordam milliy jamg'armasi".

Ta'kidlash joizki, jamg'armalar sonining oshishi va hajmining kattalashishi an'anasi kuzatiladi. Maxsus jamg'armalarning ko'payib ketishi ma'lum moliyaviy noqulayliklarni keltirib chiqardi va ularni boshqarishda qo'shimcha xarajatlar qilishga majbur bo'ladi. Bu jamg'armalar hajmining kengayishiga bir qator sabablar mavjud: birinchidan, davlat organlarida tadbirkorlikning xo'jalik hayotiga aralashishi va ularni moliyaviy qo'llab - quvvatlash uchun qo'shimcha mablag'lar paydo bo'lmoqda, ikkinchidan, bu jamg'armalar byudjetdan mustaqil holda davlat tomonidan alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan, uchinchidan, byudjetdan tashqari jamg'armalar ma'lum sharoitlarda, ya'ni aktiv qoldiqqa ega bo'lganda byudjet taqchilligini qoplash uchun ishlatilishi mumkin. Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni

ko'rsatadiki, aksariyat davlatlardagi amaldagi byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar faoliyati mamlakat ijtimoiy holatini yanada yaxshilash, kichik tadbirkorlik taraqqiyotiga keng yo'l ochib byerish bilan birga, ilm - fan sohasini yanada takomillashtirish va shu orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

Funksional jihatiga ko'ra va boshqaruv darajasiga ko'ra byudjetdan tashqari jamg'armalar turli xil bo'ladilar. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning tegishlilik darajasiga ko'ra ular davlat va nodavlat jamg'armalariga bo'linadi (8.1 - rasmga qaralsin).



**8.1-rasm Byudjetdan tashqari jamg'armalarning ijtimoiy - iqtisodiy xususiyatlariga ko'ra guruhlanishi.**

Boshqaruv darajasiga qarab esa umumdavlat, respublika va regional jamg'armalarga bo'lish mumkin. Byudjet mablag'laridan foydalanishni hukumat organlari qonun asosida kat'iy tasdiqlab byersa, byudjetdan tashqari jamg'armalar esa ijroiya organlari orqali belgilanadi. Qonun asosida tasdiqlangan byudjet parlament tomonidan nazorat qilinadi, byudjetdan tashqari jamg'armalar esa qonun chiqaruvchi organlar tomonidan nazorat qilinmaydi. Bu ham byudjetdan tashqari jamg'armalarni iqtisodiy sharoitga operativ moslashishini tezlatadi. Byudjetdan tashqari

jamg'armalarni tashkil etilishining muvofiqligini ta'minlovchi yana bir muhim omil – bu byudjet taqchilligidir. Xarajatlarni daromaddan o'sib ketishi kuchayishiga moliyaviy resurslarni faqat qidirib topishda emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag'larni qayta guruhlanishini xam talab etadi. Va nihoyat, xo'jalik yuritishning va xususiylashtirishning ko'p qirrali shakllari, byudjet shakllari bilan bir qatorda jamiyatda pul mablag'larni qayta taqsimlashni yangi usullarini qo'llash zaruriyatini qat'iy talab etadi.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari ijtimoiy – iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, muayyan bir aholi qatlami yoki investitsion dastur ehtiyojlarini nazarda tutib, mamlakatda yaratilayotgan milliy daromadni qayta taqsimlash orqali tashkil etiladi. Davlat umumjamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan ijtimoiy - iqtisodiy chora - tadbirlarnio'z vaqtida va to'liq amalga oshirish uchun jismoniy va yuridik shaxslarda shakllanayotgan moliyaviy resurslarning bir qismini Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari ixtiyoriga moliyaning taqsimlash funktsiyasi orqali jalb qiladi.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibidagi ijtimoiy - madaniy tadbir xarajatlari yil sayin oshib borgan. Oxirgi yillarda jami byudjet xarajatlarining 59 - 60 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilib kelinmoqda, bu esa, jahondagi barcha davlatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etadiki, o'z navbatida Respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning uzoq, strategik ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir. Ushbu xarajatlarning tarkibida maorif, sog'liqni saqlash, oilalarga ijtimoiy nafaqalar asosiy salmoqqa ega bo'lmoqda. Aholining turmush darajasini yanada oshirish va ularning daromadlarini izchil oshirish, ya'ni ish haqi, stipendiya, ijtimoiy nafaqa va pensiya miqdorini ko'paytirish yo'li bilan fuqarolarni ijtimoiy qo'llab - quvvatlash tizimi kuchaytirildi.

O'zbekistonda davlatning maqsadli jamg'armalarini shakllantirishda ularning tashkil qilinishi bo'yicha jahon tajribasi o'rganilib, mamlakatdagi mavjud ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar e'tiborga olingan. Ushbu jamg'armalarning ba'zilari boshqa mamlakatlardagiga o'xshash bo'lsa, boshqalari esa o'xshashi yo'q, ya'ni orginal bo'lib, bozor munosabatlariga o'tishda o'ziga xos, milliy yo'limiz borligini tasdiqlab turibdi.

Iqtisodiyotni modyernizatsiyalash va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish natijasi o'laroq keyingi yillarda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Bunda makroiqtisodiy tartibga solish tizimining muhim vositalaridan biri bo'lgan davlat byudjetining ahamiyati g'oyat yuksakdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, mamlakatda Davlat byudjetini mustahkamlash bilan birga, Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarini hamtashkil etishga zarurat tug'ildi. Bu jamg'armalarni tashkil etish uchun bir qator omillar ta'sir etadi, albatta. Ularning asosiylari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- iqtisodiyot qisman nobarqaror bo'lgan bir sharoitda, tijorat va tadbirkorlikni qo'llab - quvvatlash, zarur bo'lgan sharoitlarda ularning moliyaviy operatsiyalarini rag'batlantirish uchun davlat boshqaruv organlari ortiqcha moliyaviy resurslar hisobidan yangi shakldagi qo'shimcha Davlat fondlarini tashkil etadi;

- Davlat byudjetidan xoli bo'lgan Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari muayyan bir muammoni bartaraf etish yoxud mavjud muammolar ko'lamini qisqartirishga qaratilgan bo'lib, davlat tomonidan qat'iy e'tiborga molik bo'ladi. Aynan ushbu jamg'armalar qat'iy maqsadli yo'nalishga ega bo'lib, ularning moliyaviy resurslarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishni davlat tomonidan samarali nazorat qilish imkoniyati tug'iladi;

- Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari muayyan bir sharoitlarda, ya'ni daromadlariga nisbatan xarajatlari kam bo'lganhollarda, ortiqcha mablag'lardan Davlat byudjeti defitsitinikreditshaklida qisqartiradi yoki moliyaviy bozordan foiz va dividendshaklida manba olib, daromadlar hajmini yanada ko'paytiradi.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etish tartibi va shakllantirish metodlari. Rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalariga tayangan holda mumkinki, odatda Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari quyidagi shartli ikki yo'l orqali tashkil etiladi:

1. Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan muhim umumjamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolarni hal etish uchun ma'lum bir xarajatlarni

tashkil etish;

2.Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armasini shaxsiy (o'zlik), maxsus ajratma va badal mablag'lari hisobidan shakllantirish.

Masalan, qator davlatlarda daromadi cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini moliyaviy qo'llab - quvvatlash maqsadida Davlat byudjeti ko'magida maxsus ijtimoiy sug'urta fondlari tashkil etilgan. Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etish, avval ma'lum bo'lmagan, ammo ishlab chiqarishning rivojlanishi, xizmat ko'rsatish ko'laminin kengayishi yo'lidasiyosatning o'zgarishi natijasida paydo bo'ladigan muammolarni maqsadli yo'lda bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi. SHunday vaziyat shakllangan holda hukumat davlat byudjetidan tashqari jamg'armasini ham tashkil etish uchun maxsus qaror qabul qiladi. Bizda ham yuqorida qayd etilgan vaziyatga o'xshash holat vujudga kelishi va mamlakatning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o'tishi munosabati bilan 2004 - 2009 moliya yillarini o'zida qamrab olgan davlatning byudjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasi tashkil etildi.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armasi har qanday maqsadli xususiyatga ega bo'lib, odatda uning nomida qanday maqsad uchun tashkil etilayotganligi aks etadi. Masalan, Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi va h.k.

Moliya tizimining boshqa bo'g'inlari kabi Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etishning moddiy manbalari milliy daromad hisoblanadi. Bunday jamg'armalarning aksariyat qismi milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida vujudga keladi.

Amaliyotda milliy daromadni qayta taqsimlash jarayoni orqali Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadini shakllantirishning asosiy metodlari quyidagilar hisoblanadi:

- 1.Maxsus soliqlar, yig'imlar va ajratmalar;
- 2.Davlat byudjeti mablag'lari va zayomlar.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlarini tashkil etishning



asosiy metodi maxsus soliqlar, yig'imlar va ajratmalar hisoblanadi. Ushbu manbalalar hisobidan jamg'armalar daromadlarining 80 - 90 foiz va hatto 100 foiz ham shakllanishi mumkin.

Davlat byudjeti hisobidan shakllanayotgan mablag'lar amaliyotda qaytarib byermaslik sharti bilan dotatsiya va subvensiya ko'rinishida byeriladi. Ayrim hollarda fond daromadlariga har xil muddat va qiymatda (foizli, foizsiz) bo'lgan zayomlar ham byerilishim mumkin.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etish va ularni davlat talabidan kelib chiqqan holda davrga moslashtirish chora - tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda. 2002 moliya yiliga qadar bunday jamg'armalarning alohida moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan maqsadli yo'nalishlarda foydalanish keng qo'llanilib kelinardi. Ammo ayrim byudjetdan tashqari jamg'armalarda o'z vaqtida va to'liq moliyaviy resurslarni shakllantirmaslik, aholiga byerilayotgan va tarqatilayotgan moliyaviy resurslarda kechikish, uzilish hollari tez - tez uchray boshladi. Buning oldini olish maqsadida 2002 yildan boshlab umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan ayrim davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasarrufida bo'lishi ma'qul deb topildi. Ammo shuni alohida qayd etish lozimki, ularning muxtoriyatliligi to'liq saqlanib qoldi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida bir qator Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi O'zbekiston Respublikasi aholisining bandligini qo'llab - quvvatlash jamg'armasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim va tibbiyot

muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi "Sug'oriladigan yerlarni meliorativ yaxshilash" jamg'armasi.

6. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi.

## **8.2-§. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga yagona ijtimoiy to'lov hisobi va hisoboti.**

Yagona ijtimoiy to'lov hisoblab chiqarish va to'lash tartibi Soliq kodeksining (SK) 51 - bobi bilan tartibga solinadi. Yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari YaIT to'lovchilaridir.

Yagona ijtimoiy to'lov solish ob'ekti bo'lib SKning 172 - moddasida ko'rsatilgan quyidagi mehnat haqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi:

– mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

– rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar (SKning 173 - moddasi);

– kompensatsiya to'lovlari (SKning 174 - moddasi);

– ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash (SKning 175 - moddasi).

YaIT hisoblab yozish uchun soliq solinadigan baza SKning 308-moddasiga ko'ra imtiyozlar chegirilgan holda mehnat haqi tarzidagi daromadlar summasi sifatida belgilanadi. Yuridik shaxslarga jismoniy shaxs manfaatlarida tovarlar (ishlar, xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to'lash, shujumladan:

– sanatoriy - kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash;

– yuridik shaxsning jismoniy shaxs daromadi bo'lgan boshqa xarajatlari;

– soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekinga, shu jumladan hadya shartnomasi asosida byerilgan mol - mulk, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati - soliq to'lovchi yuridik shaxsdan olgan, YaIT va sug'urta badallari

solinadigan ob'ekt bo'lib hisoblanmaydigan moddiy naf tarzidagi daromadlar hisoblanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov (*YaIT*), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (*JSHDS*), byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga fuqarolarning sug'urta badallari (*sug'urta badallari*) mehnatga haq to'lash jamg'armasidan kelib chiqib hisoblanadi. Ko'pincha korxonalarining rahbarlari soliq yukini kamaytirish maqsadida ta'til byerish, umumdavlat bayramlari chog'ida xodimlarni rag'batlantiradilar, biroq buyruqda ushbu to'lovlar "moddiy yordam" deb nomlanadi. Soliq kodeksi (*bundan keyin - SK*) 178 - moddasining 16 - bandiga ko'ra jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga:

- vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga byeriladigan;

- mehnatda mayib bo'lish, kasb kasalligi bilan kasallanish yoki sog'liqqa boshqacha shikast etishi munosabati bilan xodimga byeriladigan;

- favqulodda holatlar munosabati bilan byeriladigan;

- maqsadli tusda bo'lgan va xodimlar bilan yuz byergan, shaxsiy tusdagi voqealar, hollar va tadbirlar taqozo etmagan va bajariladigan ish natijalari bilan bog'lanmagan to'lov tarzidagi;

- qishloq xo'jaligi mahsuloti yoki uni xarid qilishga mablag'lar byerish tarzidagi moddiy yordam kiradi.

Ta'til, umumdavlat bayramlariga pul mablag'lari to'lanishi maqsadli tusga ega emas va xodimlar bilan yuz byergan, shaxsiy tusdagi voqealar, hollar va tadbirlar taqozo etmagan hamda o'z mohiyatiga ko'ra rag'batlantiruvchi to'lovlarga kiradi. Tegishincha, ularga *YAIT* solinadi va ulardan Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari ushlanadi.

**MISOL.** *MCHJ rahbariyati 2013 yil 8 martga o'z xodimlarini taqdirlashga qaror qilib, ularga 12000 ming so'm moddiy yordam to'lash to'g'risida buyruq chiqardi. Ushbu summadan YAIT hisoblanmadi va sug'urta badallari ushlanmadi. Mazkur holda 25%lik stavka bo'yicha 3 000 ming so'm YAITni qo'shimcha hisoblash va fuqarolardan 600 ming so'm badal (6%) ushlab qolish lozim.*

Xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganida ham ta'tildan foydalanmaganlik uchun kompensatsiya to'loviga YAIT hisoblamaslik yana bir tez - tez uchraydigan xatodir.

Ba'zi korxonalar pensionerlarga qo'shimcha haq to'laydilar va ushbu summalardan YAIT hamda sug'urta badallarini to'lamaydilar. Agar pensioner mazkur korxonada endi ishlamayotgan bo'lsa, bu to'g'ri (*SK 178 - moddasining 18 - bandi*). Biroq agar pensioner ishlasa, vaziyat boshqacha tus oladi. Pensiya va nafaqalarga qo'shimcha haqlar, yuridik shaxs mablag'i hisobidan to'lanadigan stipendiyalar mehnat haqi tarzidagi daromad hisoblanadi (*SK 175 - moddasining 15 - bandi*), shu bois ularga YAIT va sug'urta badallari hisoblanmaydi.

2012 yil 1 yanvardan boshlab ish byeruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan va mehnat shartnomasi bo'yicha ish bajaradigan jismoniy shaxslarga yoki fuqarolik - huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha jismoniy shaxslarga to'lanadigan oziq - ovqat va yo'l chiptalarining qiymati yoki oziq - ovqat va yo'l chiptalarining qiymatini qoplash kompensatsiya to'lovlariga kiritiladi (*SKning 174 - moddasi*), ularga YAIT va sug'urta badallari solinadi (*30.12.2011 yildagi O'RQ - 313 - son Qonun to'rtinchi moddasining 14, 15 - bandlari*).

Xodimlar va ularning oila a'zolariga profilaktoriy, pansionat, dam olish zonasida, shuningdek xodimlarning bolalariga sog'lomlashtirish oromgohlarida byerilgan oziq - ovqat ularning qiymatiga kirsa ham, yo'llanmalar **moddiy naf tarzidagi daromadlarga kiradi** hamda ularga YaIT va sug'urta badallari solinmaydi.

Xodimlarning davolanishga va sportchilarning yig'inlar yoki musobaqalar o'tkazish joyiga borishlariga to'lanadigan yo'l haqi ham moddiy naf tarzidagi daromadlarga kiradi hamda ularga YaIT va sug'urta badallari solinmaydi, chunki mazkur to'lovlar yo'l chiptasi ham, ularning qiymatini qoplash ham hisoblanmaydi.

Bolalarning sog'lomlashtirish oromgohlarida ishlaydigan xodimlaringizning ovqatlanish qiymatiga haq to'lashga, xodimlaringiz bo'lgan sportchilarning ovqatlanish qiymatini qoplashga esa 2012 yil 1 yanvardan boshlab YaIT va sug'urta badallari solinadi.

Bundan tashqari, Soliq kodeksining 179 - moddasida xodimlarning ba'zi daromadlari bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga doir imtiyozlar nazarda tutilgan.

<b>Yagona ijtimoiy to'lov miqdori</b>		
<b>25 %, Shu jumladan:</b>		
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga	Davlat bandlikka ko'maklashish fondiga	Kasaba uyushmalari fedyeratsiyasi Kengashiga
24,8%	0,1%	0,1%

To'lanayotgan yagona ijtimoiy to'lov summasini 100 foiz deb qabul qilish chog'ida kundalik ajratmalarning miqdorlari quyidagicha bo'lishi kyerak:

- Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga - 95,8%;
- Davlat bandlikka ko'maklashish fondiga - 2,7%;
- Kasaba uyushmalari fedyeratsiyasi Kengashiga - 1,5%.

#### **Yagona ijtimoiy to'lov imtiyozlari**

<b>Imtiyoz byerilgan koronalar</b>	<b>Yagona ijtimoiy to'lov miqdori</b>
Ixtisoslashtirilgan tsexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironlar mehnatidan foydalanuvchi yuridik shaxslar	4,7%*
“SOS - O'zbekistan bolalar ” assotsiatsiyasi	7%

*\*)nogironlarning mehnatga haq to'lash fondidan*

Yuridik shaxslar **yagona ijtimoiy to'lov** bo'yicha hisob - kitoblarni o'zlari to'lovchilar sifatida ro'yxatga olingan tuman soliq inspeksiyalari bilan yuritadilar.

#### **Xo'jalik hisobida bo'lgan korxonalar va tashkilotlar bo'yicha:**

Pensiyajamg'armasigaajratmalarni

hisobgaolishdaquyidagischyotlardanfoydalaniladi:

4520 – “Davlat maqsadli jamg'armalariga bo'nak to'lovlari”;

6520 – “Davlat maqsadli jamg’armalariga to’lovlar”.

4520 – “Davlat maqsadli jamg’armalariga bo’nak to’lovlari” schyotida korxon va tashkilotlar tomonidan Pensiya jamg’armasiga hisobot davrida o’tkazib byerilgan bo’nak to’lovlari hisobga olinadi.

Bu muomalaga quyidagicha provodka byeriladi:

D - t 4520 – “Davlat maqsadli jamg’armalariga bo’nak to’lovlari”

K - t 5110 – “Hisob - kitob schyoti”;

6520 – “Davlat maqsadli jamg’armalariga to’lovlar” schyotida korxon va tashkilotlar tomonidan Pensiya jamg’armasiga to’lanadigan ajratmalar haqidagi ma’lumotlar umumlashtiriladi. Pensiya jamg’armasiga ajratmalar hisoblanganida quyidagicha provodkalar byeriladi:

*Kapital qo’yilmalar bo’yicha sug’urta to’lovlari hisoblandi:*

D - t 0810 - 0890;

K - t 6520 – “Davlat maqsadli jamg’armalariga to’lovlar”.

*Xarajatlarga tegishli sug’urta to’lovlari hisoblandi:*

D - t 2010, 2310, 2510, 9420;

K - t 6520 – “Davlat maqsadli jamg’armalariga to’lovlar”.

*Xodimning ish haqidani ushlanadigan sug’urta to’lovlari hisoblandi:*

D - t 6710 – “Xodimlar bilan mehnat haqi hisobidan hisoblashishlar»;

K - t 6520 - «Davlat maqsadli jamg’armalariga to’lovlar”.

*Hisobot davri yakunida Pensiya jamg’armasiga ilgari to’langan bo’nak to’lovlari yakuniy hisob - kitob qilish uchun 6520 – “Davlat maqsadli jamg’armalariga to’lovlar” schyotiga o’tkaziladi:*

D - t 6520 – “Davlat maqsadli jamg’armalariga to’lovlar”

K - t 4520 – “Davlat maqsadli jamg’armalariga bo’nak to’lovlari”.

*SHundan so’ng Pensiya jamg’armasiga bo’lgan qarz to’lovlari o’tkazib byeriladi:*

D - t 6520 – “Davlat maqsadli jamg’armalariga to’lovlar”;

K - t 5110 – “Hisob - kitob schyoti”.

**Yagona ijtimoiy to’lovni hisoblab chiqarish hamda to’lash tartibi.** YAgona

ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o'tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to'lovning hisob - kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25 - kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10 - kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Prezidentning 2012 yil 16 iyul kuni **“Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat byerish tartib - taomillarini tubdan qisqartirish chora - tadbirlari to'g'risida”gi 4453 - sonli Farmoniga** asosan 2013 yildan e'tiboran YAgona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallari soliq hisobotlari barcha soliq to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan chorakda bir marotaba taqdim etilishi belgilandi.

T/r	2013 yil 1 yanvardan boshlab birlashtiriladigan soliq hisoboti shakllari	Birlashtirish natijasida yuzaga keladigan soliq hisoboti shakllari
<b>Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha</b>		
1	Yagona ijtimoiy to'lovi hisob - kitobi	Yagona ijtimoiy to'lovi va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisob – kitobi
2	Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisob - kitobi	

## IX BOB. BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBI VA HISOBOTI

**9.1-§. Noshirlik va matbaa korxonalarining bosma mahsulotlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq tahrir, matbaa va noshirlik xizmatlari ko'rsatishdan tushgan tushumidan majburiy ajratmalar hisobi va hisoboti.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Ijod" fondini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-1292-son qaroriga muvofiq noshirlik va matbaa korxonalari tomonidan O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi huzuridagi "Ijod" fondiga bosma mahsulotlarini realizatsiya qilishdan, shuningdek bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq tahrir, matbaa va noshirlik xizmatlari ko'rsatishdan tushgan tushumlardan 1 foizli ajratmalar to'lash joriy etildi. Ushbu qarorga asosan O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston matbuot va axborot agentligining 7-yu/b-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Adliya vazirligi tomonidan **2010 yil 4 sentyabrda 2139-son "Noshirlik va matbaa korxonalari tomonidan O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi huzuridagi "Ijod" fondiga ajratmalarni to'lash tartibi to'g'risidagi"** Nizom tasdiqlagan.

<b>To'lovlarni to'lovchilar</b>	<b>To'lov ob'ekti</b>
Noshirlik faoliyati uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar	Bosma mahsulotlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq tahrir, matbaa va noshirlik xizmatlari ko'rsatishdan tushgan tushum

Majburiy ajratmalar summasi ajratma to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda, buxgaltyeriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, bosma mahsulotlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek bosma mahsulotlarni ishlab



chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq tahrir, matbaa va noshirlik xizmatlari ko'rsatishdan tushgan tushumning 1 foizi miqdorida hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yagona soliq to'lovi hamda davlat maqsadli jamg'armalariga va byudjetdan tashqari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza Fondga o'tkaziladigan majburiy ajratmalar summasiga kamaytiriladi.

To'lovchilar	Muddati	
	Hisob – kitobni topshirish	Majburiy ajratmalarni to'lash
Noshirlik faoliyati uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar	Hisob – kitob topshiriladi: - yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda	hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Ajratma to'lovchilar majburiy ajratmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni muvofiq o'sib boruvchi yakun bilan korxonaga muhri, rahbari va bosh hisobchisi imzolari bilan tasdiqlangan holda, shaxsan yoki pochta (elektron pochta) yoxud faks orqali taqdim etib boradi.

Fondga majburiy ajratmalarni to'lash har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

*Misol. Yagona soliq to'lovchi yuridik shaxsning matbaa faoliyatidan tushumi:*

*yanvar oyida 10 000 ming so'mni;*

*fevral oyida 8 000 ming so'mni;*

*mart oyida 6 000 ming so'mni tashkil etgan.*

*Jami birinchi chorakda ushbu faoliyat turidan tushgan tushum 24 000 ming so'm hisoblangan.*

*Yuqoridagi tushumdan Fondga quyidagicha ajratmalar hisoblanadi:*

*Yanvar oyida - 100 ming so'mni;*

*Fevral oyida - 80 ming so'mni;*

*Mart oyida - 60 ming so'mni tashkil etgan.*

*Jami birinchi chorak uchun Fondga 240 ming so'm ajratmalar hisoblanadi.*

*Yagona soliq to'lovi to'lovchisi bo'lgan yuridik shaxs davlat soliq xizmati organlariga hisob-kitoblarni taqdim etishda soliq solinadigan baza 240 ming so'mga kamaytiriladi, ya'ni yagona soliq to'lovi hisob-kitobining "soliq solinadigan yalpi tushumni kamaytirish" 0502-satrida hisobga olinadi.*

*Xuddi shunday tartib umumbelgilangan tartibda soliq (foyda solig'i) to'lovchi yuridik shaxslarga ham qo'llaniladi. Ular (yagona soliq to'lovi to'lovchilardan farqli ravishda) soliq hisoboti shakllarini to'ldirishda:*

- *byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarishda sof tushum summasini kamaytirib hisoblaydi;*

- *foyda solig'ini hisoblab chiqarishda "Ijod" fondiga o'tkazilgan ajratmalar summasi chegiriladigan xarajatlarga olib boradi.*

**Bosma mahsulotlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq tahrir, noshirlik va matbaa xizmatlari ko'rsatishdan tushgan tushumlar bo'yicha hisoblangan ajratmalar to'g'risida 2013 yil 1 chorak uchun**

**M A ' L U M O T**

<b>N</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
1.	Bosma mahsulotlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq tahrir, matbaa va noshirlik xizmatlari ko'rsatishdan tushgan tushum (yil boshidan hisobot davri uchun)	010	24 000
	Bosma mahsulotlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq tahrir, matbaa va noshirlik xizmatlari ko'rsatishdan tushgan tushum (hisobot choragida)	011	24 000
	hisobot choragining birinchi oyi uchun	012	10 000
	hisobot choragining ikkinchi oyi uchun	013	8 000
	hisobot choragining uchinchi oyi uchun	014	6 000
2.	Ajratma miqdori, %	020	1%
	<b>Majburiy ajratma hisoblandi</b>		240
3.	Yil boshidan boshlab hisobot davri uchun	030	240
	Hisobot choragi uchun	031	240
	Hisobot choragining birinchi oyi uchun	032	100
	Hisobot choragining ikkinchi oyi uchun	033	80
	Hisobot choragining uchinchi oyi uchun	034	60

**“Ijod” fondiga majburiy ajratmalar bo’yicha soliq hisoboti shakllarini to’ldirish tartibi asosida buxgaltyeriya o’tkazmalari:**

<b>T/r</b>	<b>Opyeratsiyaning mazmuni</b>	<b>Debet</b>	<b>Kredit</b>	<b>Summa</b>
1	Bosma mahsulotlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog’liq tahrir, matbaa va noshirlik xizmatlari ko’rsatishdan tushgan tushum	4010	9010	24000,0
2	"Ijod" fondiga majburiy ajratma hisoblandi	9430	6520	240,0
3	Hisoblangan "Ijod" fondiga to’lovlar hisob-kitob schyotidan o’tkazildi.	6520	5110	240,0

**Abonent raqamidan foydalanganlik uchun to’lovlar hisobi.**

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi 2011 yil 30dekabrdagi PQ-1675-sonli qaroriga asosan 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab mobil aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun oyiga 400 so’m miqdorida to’lov joriy etildi. Ushbu qarorga asosan O’zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qarori bilan tasdiqlangan Adliya vazirligi tomonidan 2012 yil 21 fevralda 2329-son bilan ro’yxatga olingan “Mobil aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to’lovlarni hisoblash va to’lash tartibi to’g’risida”gi Nizom tasdiqlagan.

<b>To’lovlarni to’lovchilar</b>	<b>To’lov ob’ekti</b>
Mobil aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari)	Uyali aloqa kompaniyalari tomonidan mobil aloqa abonentlariga ajratilgan abonent raqamlari

To’lov har bir abonent raqami uchun amalga oshiriladi. Abonent raqamlarining soni to’lov amalga oshiriladigan oyning oxirgi sanasi holatiga ko’ra aniqlanadi.

**Hisobot davri**- bir oy hisoblanadi.

To’lovning hisob-kitobi O’zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligiga har oyda o’sib bormaydigan yakun bo’yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasi

kechiktirmay to'lovchi (kompaniyaning bosh tashkiloti) tomonidan taqdim etiladi.

To'lovchilar	Muddati	
	Hisob – kitobni topshirish	Majburiy ajratmalarni to'lash
<b>O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligiga</b>		
Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyaning bosh tashkiloti)	Hisob – kitob topshiriladi: hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasicha	Hisob – kitoblarni topshirish muddatigacha

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovning hisoblangan va to'langan summalari to'g'risidagi yig'ma axborotni har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

*“UCCELL” uyali aloqa kompaniyasi*

(yuridik shaxsning nomi)

**2012 yil Noyabr oyi uchun  
Abonentraqamidan foydalanganlik uchun  
TO'LOV HISOB-KITOBI**

Abonent raqamlarining soni (birl.)*	Belgilangan to'lov miqdori (so'm)	To'lov summasi (ming so'm)
7820500	400	312820,0

*\*) Abonent raqamlarining soni to'lov amalga oshiriladigan oyning oxirgi sanasi holatiga ko'ra aniqlanadi.*

**Abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovlarni hisoblash va byudjetga to'lash quyidagi buxgaltyeriya o'tkazmalari:**

T/r	Opyeratsiyaning mazmuni	Debet	Kredit	Summa
1	Abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovlar hisoblandi	9430	6410	312820,0
2	Hisoblangan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovlar hisob-kitob schyotidan o'tkazildi.	6410	5110	312820,0

Abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov summasi yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan foydani aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 145-moddasiga muvofiq chegirib tashlanadi.

### **Ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskunalar uchun to'lov hisobi va hisoboti**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda PQ-1449-son "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qaroriga asosan 2011 yilning 1 yanvaridan boshlab ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskunalar uchun to'lov joriy etildi. Ushbu qarorga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi qarorlari bilan tasdiqlangan Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 21 fevralda 2199-son bilan ro'yxatga olingan "**Ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskunalar uchun to'lovni undirish tartibi to'g'risidagi**" Nizom tasdiqlagan.

<b>To'lovlarni to'lovchilar</b>	<b>To'lov ob'ekti</b>
Korxonada balansida asosiy vositalar sifatida hisobga olingan to'liq eskirgan asbob-uskunalar o'zining ishlab chiqarish faoliyatida foydalanilayotgan yuridik shaxslar	Asbob-uskunaning o'rnatilgan umumli foydalanish muddati

### **To'lov undiriladigan asbob-uskunalar ro'yxati va ularning umumli foydalanish muddatlari**

<b>Asbob-uskunalar</b>	<b>Kodlar (shifrlar)</b>	<b>Umumli foydalanish muddati (yillarda)</b>
<b>Kuchlanish asbob-uskunalari</b>	<b>40</b>	
Teplotexnik asbob-uskunalar	400	25
Turbina asbob-uskunalari	401	33
Elektrodvigatellar va dizel-genyatorlar	402	20
Kompleks qurilmalar	403	22
Ichki yonuv dvigatellari	404	10

Boshqa kuchlanish asbob-uskunalar	407	19
<b>Ishchi asbob-uskunalar</b>	<b>41-46</b>	
Metall kesuvchi asbob-uskunalar	410	12
Quymachilik ishlab chiqarishi uchun asbob-uskunalar	411	20
Temirchilik va presslash asbob-uskunalar	412	20
Abraziv metallar va olmos ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar	413	12
Kompressor asbob-uskunalar	414	19
Nasoslar	415	10
Gaz tozalovchi uskunalar va ventilyatsion mashina va asbob-uskunalar	416	14
YUk ko'tarish-transport va yuklash-tushirish asbob-uskunalar	417	25
Yer va kon ishlari uchun asbob-uskunalar	418	15
Gidromexanizatsiya asbob-uskunalar	419	12
Beton va pardozlash ishlari uchun asbob-uskunalar	420	8
Yo'l qurilishi asbob-uskunalar	421	23
Qoziq qoqish ishlari uchun asbob-uskunalar	422	14
Kabel (o'rash) o'tkazish uchun asbob-uskunalar	423	33
Suv osti texnik ishlari uchun asbob-uskunalar	424	21
Elektrogazosvarka va kesish uchun asbob-uskunalar	425	15
Maydalash, saralash va boyitish uchun asbob-uskunalar	426	20
Geologiya-qidiruv asbob-uskunalar	427	10
Yer osti va ochiq tog' ishlari uchun asbob-uskunalar	428	12
Texnologik jarayonlar uchun mo'ljallangan barcha turdagi maxsus sig'imler	429	16
Qora metallurgiya asbob-uskunalar	430	20
Rangli metallurgiya asbob-uskunalar	431	20
Kimyo sanoati va minyeral o'g'itlar sanoati asbob-uskunalar	432	18
Issiqlik almashinuvchi uskunalar, kimyo sanoati pechi va boshqa maxsus asbob-uskunalar	433	15
Neft va gaz qazish va burg'ulash uchun asbob-uskunalar	434	18
Neftni qayta ishlash sanoati asbob-uskunalar	435	13
Neft-kimyo sanoati asbob-uskunalar	436	16
Gaz sanoati asbob-uskunalar	438	20
Elektron sanoat asbob-uskunalar	440	9
Qurilish matyeriallari sanoati asbob-uskunalar	441	17
Oynachilik sanoati asbob-uskunalar	442	16
Kabel sanoati asbob-uskunalar	443	18
O'rmon sanoati asbob-uskunalar	444	10
YOg'ochni qayta ishlash sanoati asbob-uskunalar	445	11
TSellyuloza-qog'oz sanoati asbob-uskunalar	446	18
Poligrafiya sanoati asbob-uskunalar	448	13
Engil sanoat asbob-uskunalar	449	13
Oziq-ovqat sanoati texnologik asbob-uskunalar	450	13
Go'sht va sut sanoati asbob-uskunalar	451	13
Medsitina va mikrobiologiya sanoati asbob-uskunalar	460	16

*Izoh: asbob-uskunalar kodlari (shifrlari) 1990 yildagi asbob-uskunalarining yagona amortizatsiya normalariga (UYAAN) muvofiq keltirilgan.*

To'lov hisoblash uchun **baza bo'lib**, asbob-uskunaning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati hisoblanadi;

- asbob-uskuna Nizomning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan asbob-uskunalar guruhi ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa;

- asbob-uskuna bo'yicha yuz foizlik eskirish (amortizatsiya) hisoblangan bo'lsa;

- asbob-uskuna umumli foydalanish muddatidan ortiq muddatlarda foydalanilayotgan bo'lsa;

Guruhlar bo'yicha asbob-uskunaning umumli foydalanish muddati quyidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda qo'llaniladi:

- agarda 1-ilovasiga muvofiq o'rnatilgan asbob-uskunaning umumli foydalanish muddati texnik hujjatlarda ko'rsatilgan muddatlardan yuqori o'rnatilgan bo'lsa, asbob-uskunaning umumli foydalanish muddati texnik hujjat asosida hisobga olinadi;

- agarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrda 271-son "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbir haqida"gi qaroriga muvofiq vakolatli organ tomonidan asbob-uskunani texnik diagnostikadan o'tkazish natijasida, uning foydalanish muddati uzaytiriladigan bo'lsa, asbob-uskunaning o'rnatilgan umumli foydalanish muddati uzaytirilgan muddatni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Quyidagi asbob-uskunalar uchun to'lov ob'ekti hisoblanmaydi:

- moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga ko'ra olingan asbob-uskuna, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi muddati davomida;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konsyervatsiya qilinishi to'g'risida qaror qabul qilingan asbob-uskuna.

To'lov summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P = P_{st} \times S / 100, \text{ bu yerda:}$$

**P** - to'lov summasi;

**Pst** - asbob-uskunaning hisobot davri oxiridagi boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (31 dekabr);

**S** - foizda belgilangan to'lov miqdori.

Masalan, asbob-uskunaning hisobot davri oxiridagi (ya'ni, 31 dekabr holatiga) boshlang'ich qiymati 50000 ming so'mni tashkil etadi, 2011 yil uchun to'lov miqdori esa 0,25 foiz miqdorida belgilangan. U holda byudjetga to'lanadigan to'lov summasi 125 ming so'mni tashkil etadi ( $50000 \times 0,25 / 100$ ).

### **Hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lovni to'lash.**

<b>Muddati</b>	
<b>To'lov</b>	<b>Ma'lumotnoma-hisob-kitobi topshirish</b>
<b>Yilda bir</b> marta hisobot yilidan keyingi yilning 15 fevraliga qadar	

Soliq to'lovchilar to'lovni o'z vaqtida byudjetga o'tkazmaganlik uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda penya hisoblanadi, lekin 2011 yil 1 oktyabridan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2011 y. PF-4354-son "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan soliqlar, bojxona bojlari va yig'implari, shuningdek boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzganlik uchun penya miqdori kechiktirilgan har bir kun uchun penyani hisoblash tartibi saqlangan holda, amaldagi miqdoriga nisbatan uchdan bir qismga kamaytiriladi.



## **X-BOB. SOLIQ IMTIYOZLARINING HISOBI**

### **10.1-§. Soliq imtiyozlarining hisobi**

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda soliqlar bo'yicha imtiyozlar iqtisodiy ahamiyatga ega. Soliq imtiyozlari mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda muhim dastaklardan hisoblanadi.

Soliq imtiyozlarini nazariy jihatdan uch guruhga bo'lish mumkin:

- soliqdan to'liq yoki qisman ozod etish;
- soliqdan chegirmalar;
- soliq kreditlari (soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar).

Birinchi guruh soliq imtiyozlariga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni Soliq kodeksi va boshqa me'yoriy hujjatlarga asosan soliqlardan to'liq yoki qisman ozod etish kiradi. Soliq chegirmalari – bu soliqqa tortish bazasini kamaytirish bilan bog'liq soliq imtiyozlardir. Masalan, soliq solinadigan foydadan chegiriladigan xarajatlar.

Soliq krediti – bu soliqning umumiy summasini kamaytirishga qaratilgan imtiyozlardir. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i uchun nol darajali stavkani qo'llanishi bilan summani byudjetdan qaytarilishi (qoplanishi), soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq to'lash muddatini kechiktirish soliq to'lovining muddatini o'zgartirish va boshqalar.

Soliq kodeksining 30- moddasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar quyidagicha, "... soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga byeriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar" ta'rif byerilgan<sup>33</sup>.

J.O'rmonov bu tushunchalarga ta'rif byergan: "Soliq imtiyozi – Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, soliq to'lovchilarga soliq majburiyatini

---

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: - T.: "ADOLAT", 2019 yil, 30-modda, 21 bet.

qisqartirish, soliq stavkasi va soliq bazasini kamaytirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati”;

“Soliq pferentsiyasi – (praeferentis - afzalliklar) lotincha so'zidan olingan bo'lib, Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, iqtisodiyotni tartibga solish va rivojlantirish maqsadida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliq to'lovchilar uchun soliq majburiyatini bajarishda qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha taqdim qilinadigan afzallik va ustuvorliklar”.<sup>34</sup>

Soliq imtiyozlar muayyan maqsadga yo'naltirish sharti bilan byeriladi va maqsadsiz byeriladigan imtiyozlarga bo'linadi.

Soliq qonunchiligiga asosan soliq imtiyozlaridan bo'shagan mablag'larni boshqa maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilangan maqsadda foydalanilgan summa o'rnatilgan tartibda peniya hisoblangan holda byudjetga to'liq undirib olinadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byerilgan imtiyozlar munosabati bilan bo'shagan hamda ushbu imtiyozlarning amal qilish muddati ichida foydalanilmagan mablag'larning summasi imtiyozlar byerilayotgan chog'da belgilangan maqsadlarga mazkur imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan keyin bir yil mobaynida yo'naltirilishi mumkin. Bunda ko'rsatilgan muddatda foydalanilmagan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga o'tkaziladi.

Soliq imtiyozlarining mohiyatini tushunib olganimizdan so'ng hisoblangan soliqlar va ular bo'yicha byerilgan imtiyozlar summalarini buxgaltyeriya hisobining schyotlarda aks ettirish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Soliq imtiyozlarining buxgaltyeriya hisobi O'zbekiston Respublikasi buxgaltyeriya hisobining “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy – xo'jalik faoliyatining buxgaltyeriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma” nomli 21 sonli milliy standarti (*O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2002 yil 23 oktyabr 1181- son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan*), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining 2005 yil 24 fevraldagi 29,2005-25, 01-02/8-3 sonli qarori bilan tasdiqlangan

---

<sup>34</sup> Урмонов Ж.Ж. Тadbirkorлик субъектларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш масалалари: Монография/ Т.: “Iqtisod-Moliya”, -2018 й. 240 б.

“YUridik shaxslarga soliqlar bojlar va majburiy to’lovlarni byudjetga to’lash bo’yicha byerilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalyerlik hisobida aks ettirish tartibi to’g’risida”gi Nizom (Adliya vazirligidan 2005 yil 2 aprelda 1463-son bilan ro’yxatga olingan) lar asosida yuritiladi.

Soliq imtiyozlari xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga:

1. Bo’shayotgan mablag’larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo’naltirish sharti bilan (miqsadli imtiyozlar);

2. Bo’shayotgan mablag’larni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan holda byeriladi.

YUqoridagilarga ko’ra soliq imtiyozlarini buxgalyeriya hisobida aks ettirish tartibi bir-biridan farq qiladi.

Birinchi navbatda, iqtisodiy jixatdan alohida ahamiyatga ega bo’lgan maqsadli soliq imtiyozlarini buxgalyeriya hisobida aks ettirish metodikasini ko’rib chiqamiz. Bu imtiyozlarning buxgalyeriya hisobi 8840 “Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari” schyotida yuritiladi.

O’zbekiston Respublikasi buxgalyeriya hisobining 21-sonli milliy standartida soliqlar, soliq imtiyozlarini hisobga olish uchun quyidagi schyotlar ko’zda tutilgan:

-4410 “Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar bo’yicha bo’nak to’lovlari (turlari bo’yicha)” schet;

- 6410 “Byudjetga to’lovlar bo’yicha qarzlari (turlari bo’yicha)” schyot;

- 6520 “Maqsadli davlat jamg’armalariga to’lovlar scheti”;

- 6900 “Import chog’ida QQS va aktsizlar bo’yicha hisoblab yozilgan soliq imtiyozlari” scheti;

- 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti;

- 013 “Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo’yicha)” balansdan tashqari schyot.

Endi bu schyotlar bilan bog’liq xo’jalik operatsiyalarni buxgalyeriya hisobida aks ettirishni ko’rib chiqamiz.

1. Tovarlar – moddiy zaxiralar import chog’ida QQS va aktsiz solig’i to’lashdan ozod qilish natijasida bo’shagan mablag’lar summasiga:

Debet – 6990 “Import chog’ida QQS va aktsizlar bo’yicha hisoblab yozilgan

soliq imtiyozlari” schyoti 75000 000

Kredit - 8840 Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” 75000 000.

2. Mahsulotlarni realizatsiya xajmida eksportga sotilgan mahsulotlarning ulushi 56 foizni tashkil qilganligi tufayli foyda solig’idan byerilgan imtiyoz summasiga:

Debet – 6410 “Byudjetga to’lovlar bo’yicha qarzarlar (turlari bo’yicha)” schyot 658943000

Kredit – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti 658943000

3. Soliq imtiyozlari natijasida bo’shagan mablag’lar asosiy vositalarning xarid qilishga, asosiy vositalarni rekonstruktsiya va texnologiyalarni modyernizatsiya qilishga yo’naltirilganda:

Debet – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti 500 000 000

Kredit – 8530 “Tekinga olingan mulk” schyoti 500 000 000.

4. Soliq imtiyozlari natijasida bo’shagan mablag’lar joriy majburiyalarni qoplashga yo’naltiradi:

a) olingan tovarlar bo’yicha qarzni qoplashga yo’naltiriladi;

Debet – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti 500 000 000

Kredit – 6010 “Mol etkazib byeruvchilar va pudratchilarga to’lanadigan schyotlar” schyoti 500 000 000

b) ish haqi hisoblashga yo’naltiriladi:

Debet – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti 500 000 000

Kredit – 6710 “Mehnat haqi bo’yicha xodimlar bilan hisoblashishlar” schyoti 500 000 000.

V) Ish haqiga nisbatan maqsadli jamg’armalarga ajratmalarga:

Debet – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti 14000 000

Kredit – 6520 “Maqsadli davlat jamg’armalariga to’lovlar” schyoti 14 000 000

5. Imtiyozli davri tugaganda va hisobot yilining oxirida ishlatilmasdan qolgan imtiyoz summalari O’zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga o’tkaziladi (2-4 operatsiyalar bo’yicha):

Debet - 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti 44943000

Kredit–6410 “Byudjetga to’lovlar bo’yicha qarzarlar (turlari bo’yicha)” schyoti 44943000/

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Almardonov M. YUridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho’lpon nomidagi NMIU”, 2013. -296 b.
2. Vahobov A., Jo’raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. -408 b.
3. Jo’raev A., Usmanova M. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O’quv qo’llanma. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. –232 b.
4. Joraev A.S., Safarov G'.A, Meliyev O.R. Soliq nazariyasi. O’quv qo’llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 325 b.
5. Egamberdiyeva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O’quv qo’llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b.
6. Kuljonov O., Xusinov I., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –237 b.
7. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.
8. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S., Xalilov Sh. Moliyaviy hisob va hisobot. O’quv qo’llanma. –T.:Iqtisod-moliya, 2018. - 400 b.
9. Kuljonov O., Ortiqov X., Yugay L., Tuxsanov X., M.Xayitboyev Moliyaviy hisob. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –246 b.
10. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.
11. Misirov K., Kurbanov Z., Abdibaeva T., Ochilov O. Teoriya buxgaltyerskogo ucheta. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –260 b.
12. Misirov K.M. Билвосита молиқларнинг молиявий ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш . Монография. –T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017. – 1416.
13. Norbekov D., Maxmudov A., Muxammedova D. Buxgalteriya hisobi. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –236 b.
14. Norbekov D., Misirov K., Tashmanov G’. Moliyaviy va boshqaruv

hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b

15. Norbekov D., Misirov K., Tashmanov G'. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.

16. Pardayev A., Pardayev B. “Boshqaruv hisobi” T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2014 yil 251 b.

17. Xasanov B., G'aniev Z., Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –279 b.

18. Хотамов К.Р. Билвосита солиқлар ҳисоби, таҳлили ва аудитини такомиллашириш. Монография . –T.: Молия, 2016. –168 б.

19. Qurbonov Z.N. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi. / O'quv qo'llanma. -T.: “Fan va texnologiyalar”, 2010. – 172 b.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. –T .: “Adolat”, 2017

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi “Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora - tadbirlari to'g'risida” gi PF-5116-son Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontsepsiyasi to'g'risida”gi PF-5468-sonli Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini

7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

8. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.

9. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kyerak. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.

10. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.

11. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017.-48 b.

12. Karimov A., Muqumov Z, Tulayev M., Kurbanbayev J., Raxmonov Sh. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.

13. Бахолдина И. В., Голышева Н. И. Бухгалтерский финансовый учет: Учебное пособие/ - М.: Форум, НИЦ ИНФРА-М, 2016.

14. Сотиволдиев А., Болибеков Б. Сборник задач по предмету “Теория бухгалтерского учета” Т.: 2013

15. Мирошниченко Т.А. Бухгалтерский финансовый учет и отчетность (продвинутый уровень): учебник. Персиановский: изд-во ДонГАУ, 2015

16. An Introduction to Accounting Theory, 1st edition. UWS, Australia, 2016.

17. Intermediate Accounting (15th Edition) English, 557 pages, Kieso, Weygandt and Warfield, 2013.

18. Wan Madznah Wan Ibrahim Mohd Rizal Palil “Fundamentals of Business Accounting” 2nd edition Published by Oxford Fajar Sdn. Bhd. Selangor Darul Ehsan, Malaysia, 2014.

19. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Ducae “Financial and

Managerial Accounting” 12th edition, South-Western, Cengage Learning, USA, 2014.

20. Goncharenko L.I. Nalogooblojenie organizatsiy.Uchebnik. Moskva, KNORUS. 2018, 385-str

21. Isroilov B., Isroilov J. Yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortish, uning hisobi va tahlil qilish yo’llari. O’quv qo’llanma. –T.: “Fan va texnologiyalar, 2010. - 274 b.

22. Romanov A.N., Kolchin S.P. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. Moskva, Infra-M. 2018, 385-str

### **Intyernet saytlari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) (O’zbekiston Respublikasi hukumat portali)
2. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) (Axborot ta’lim tarmog’i)
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)
5. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O’zbekiston Respublikasi Statistika Qo’mitasi)
6. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) (O’zbekiston Respublikasi Soliq Qo’mitasi)
7. [www.accountingtools.som](http://www.accountingtools.som) (Buxgalyerlar uchun qo’llanmalar sayti)
8. [www.ifrs.org](http://www.ifrs.org) (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi sayti)



# ILOVALAR

1-ilova

## Daromad summasi va ushlab qolingani soliqning jami summasi to'g'risida MA'LUMOTNOMA

Soliq agenti to'g'risida ma'lumotlar	Daromad oluvchi - yuridik shaxs to'g'risida ma'lumotlar			
1. To'liq nomi				
2. Soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organining nomi				
3. STIR				
4. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma raqam				
5. Yuridik shaxsning pochta manzili				
6. Telefon:				
kod	raqam	kod	raqam	so'm

Hisoblangan sana	To'lov sanasi	Daromad turi	Soliq stavkasi	To'langan daromad summasi	Ushlab qolingani soliq summasi	Imtiyozlar summasi (mavjud bo'lgan taqdirda)	Imtiyozlarni qo'llash uchun asos

2-ilova

## O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan to'lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining HISOB-KITOB

STIR

Soliq davri

Norezidentning to'liq nomi \_\_\_\_\_

O'zbekiston Respublikasidagi ishchilar soni  kishi

Rezidentlik mamlakatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma

Doimiy muassasaning joylashgan yeri \_\_\_\_\_

Doimiy muassasaning pochta manzili \_\_\_\_\_

Bosh kompaniya to'g'risidagi ma'lumotlar::  
Soliq idoralaridagi ro'yxat raqami

Joylashgan yeri \_\_\_\_\_

Pochta manzili \_\_\_\_\_

Telefon: kod  raqami

Hisob-kitobni taqdim etish muddati (kun/oy/yil)

ga taqdim etiladi

(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

O'lchov birligi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan daromadlar (mazkur Hisob-kitobning 1-ilovasi ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinadi)	010	
Doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (mazkur Hisob-kitobning 1-ilovasi ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinadi)	020	
Foyda solig'i to'langunga qadar bo'lgan foyda (zarar) (010-satr - 020-satr)	030	
Soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekinga olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar, xizmatlar (010-satrdan ko'rsatilganlardan tashqari)	040	
Chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga qayta qo'shiladigan xarajatlar) (mazkur Hisob-kitobning 2-ilovasi 010-satri)	050	
Kelgusida soliq solinadigan foydadan chegiriladigan hisobot davrining xarajatlari (mazkur Hisob-kitobning 3-ilovasi 010-satri 3-ustun - 4-ustun)	060	
Olingan (olinishi lozim bo'lgan) dividendlar va foizlar	070	
Soliq solinadigan foyda ((030-satr + 040-satr + 050-satr + 060-satr - 070-satr), biroq 020-satrning 7%dan kam bo'lmagan miqdorda)	080	
Soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi (mazkur Hisob-kitobning 4-ilovasi 010-satri)	090	
Soliq solinadigan baza, jami (080-satr - 090-satr)	100	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasi, foizda	110	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi (100-satr x 110-satr)	120	

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaq 

0	1
---	---

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Doimiy muassasa sifatida hisobga qo'yilguniga qadar to'lov manbaida ushlab qolinggan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi*	130	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan summasi**	140	

\* Doimiy muassasa sifatida hisobga qo'yilguniga qadar to'lov manbaida ushlab qolinggan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasini hisobga olish uchun ushbu hisob-kitobga soliq agenti tomonidan taqdim etilgan Daromad summasi va ushlab qolinggan soliqning jami summasi to'g'risida ma'lumotnoma ilova qilinadi.

\*\* Agar O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash bo'yicha to'liq ozod etish ko'rinishida imtiyoz byerilgan bo'lsa, quyidagi izoh bilan ushbu satrda "0" qiymati qo'yiladi:

\_\_\_\_\_ ga muvofiq ozod etilgan. (normativ-

huquqiy hujjatning turi, sanasi, raqami, nomi va uning tegishli bandi ko'rsatiladi)

STIR 

--	--	--	--	--	--	--	--	--

To'lovchining to'liq nomi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ ga taqdim etiladi.

(soliq hisobiga olish joyidagi va (yoki) ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organi nomi)

**\_\_\_\_\_ yildagi soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga  
solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash bo'yicha  
(mikrofirmalar va kichik korxonalaridan tashqari)**

**MA'LUMOTNOMA**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summasi
Soliq solinadigan ko'chmas mulkning, shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan ko'chmas mulkning taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qoldiq qiymati	010	
Soliq stavkasi, foizda	020	
Soliq summasi (010-satr x 020-satr)	030	
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektining soliq solinadigan taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qiymati	040	
Soliq stavkasi, foizda	050	
Soliq summasi (040-satr x 050-satr)	060	
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan soliq solinadigan uskunaning taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qiymati	070	
Soliq stavkasi, foizda	080	
Soliq summasi (070-satr x 080-satr)	090	
YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning umumiy summasi (030-satr + 060-satr + 090-satr)	100	
Har oylik joriy to'lovlar summasi (100-satr / 12)	110	

**Izoh:**

*Ma'lumotnoma joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar taqdim etiladi. Yangi tashkil qilingan yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davrida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.*

*Ma'lumotnomani ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etishda ma'lumotnoma faqatgina ko'chmas mulk ob'ekti (binolar, inshootlar va normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob'ektlar) bo'yicha to'ldiriladi, bunda ushbu ko'chmas mulk soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga ma'lumotnomani taqdim etishda hisobga olinmaydi.*

*YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 10-kunidan kechiktirmasdan to'lanadi.*

*Agar normativ-huquqiy hujjatlarda to'liq ozod bo'lish ko'rinishida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyoz byerilgan bo'lsa, 010, 040, 070 va 110-satrlarda "0" qo'yiladi.*

*Ko'chmas mulkka binolar, inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar, uzatish qurilmalari, belgilangan normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va boshqa yer bilan uzviy bog'liq bo'lgan ob'ektlar taalluqlidir.*

STIR 

--	--	--	--	--	--	--	--

To'lovchining to'liq nomi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ ga taqdim etiladi.

(soliq hisobiga olish joyidagi va (yoki) ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organi nomi)

**\_\_\_\_\_ yildagi soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga  
solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash bo'yicha  
(mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun)  
MA'LUMOTNOMA**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summasi
Soliq solinadigan ko'chmas mulkning, shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan ko'chmas mulkning taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qoldiq qiymati	010	
Soliq stavkasi, foizda	020	
Soliq summasi (010-satr x 020-satr)	030	
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektining soliq solinadigan taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qiymati	040	
Soliq stavkasi, foizda	050	
Soliq summasi (040-satr x 050-satr)	060	
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan soliq solinadigan uskunaning taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qiymati	070	
Soliq stavkasi, foizda	080	
Soliq summasi (070-satr x 080-satr)	090	
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning umumiy summasi (030-satr + 060-satr + 090-satr)	100	
Har choraklik joriy to'lovlar summasi (100-satr / 4)	110	

**Izoh:**

Ma'lumotnoma joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar taqdim etiladi. Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davrida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Ma'lumotnomani ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etishda ma'lumotnoma faqatgina ko'chmas mulk ob'ekti (binolar, inshootlar va normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob'ektlar) bo'yicha to'ldiriladi, bunda ushbu ko'chmas mulk soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga ma'lumotnomani taqdim etishda hisobga olinmaydi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar har chorak uchinchi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan to'lanadi.

Agar normativ-huquqiy hujjatlarda to'liq ozod bo'lish ko'rinishida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyoz byerilgan bo'lsa, 010, 040, 070 va 110-satrlarda "0" qo'yiladi.

Ko'chmas mulkka binolar, inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar, uzatish qurilmalari, belgilangan normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va boshqa yer bilan uzviy bog'liq bo'lgan ob'ektlar taalluqlidir.

**YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq  
HISOB-KITOB**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
Soliq solinadigan ko'chmas mulklar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 030-satri 15-ustuni)	010	
shu jumladan:		x
binolar va inshootlar	0101	
ko'p yillik dov-daraxtlar	0102	
yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol-mulk	0103	
Soliq solinadigan bazani kamaytirish (YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 4-ilovaning 010-satri)	020	
shu jumladan:		X
binolar va inshootlar	0201	
ko'p yillik dov-daraxtlar	0202	
yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol-mulk	0203	
YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash uchun soliq solinadigan baza (010-satr - 020-satr)	030	
Soliqning belgilangan stavkasi, foizda	040	
Soliq summasi (030-satr x 040-satr)	050	
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati (YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 040-satri 15-ustuni)	060	
Korxonalar bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lashdan to'liq ozod etish ko'rinishida imtiyoz byerilishi munosabati bilan soliq solinmaydigan normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati (ushbu YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i hisob-kitobining 060-satri)*	061	
YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq solish bazasi (normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati) (060-satr - 061-satr)	062	
Soliq stavkasi, foizda	070	
Soliq summasi (062-satr x 070-satr)	080	
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning o'rtacha yillik qiymati (YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 050-satri 15-ustuni)	090	
Korxonalar bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lashdan to'liq ozod etish ko'rinishida imtiyoz byerilishi munosabati bilan soliq solinmaydigan belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning o'rtacha yillik qiymati (ushbu YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i hisob-kitobining 090-satri)*	0901	
YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq solish bazasi (belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning o'rtacha yillik qiymati) (090-satr - 0901-satr)	0902	
Soliq stavkasi, foizda	100	
Soliq summasi (0902-satr x 100-satr)	110	
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari, bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq samarasiz foydalanilayotgani uchun chiqqan xulosaga asosan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 5-ilovaning 060-satri 10-ustuni)	120	
Byudjetga to'lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi (050-satr + 080-satr + 110-satr+120 satr)	130	
Soliq davri uchun joriy to'lovlar bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan	140	

soliqning hisoblangan summasi		
Qo'shimcha to'lashga	150	
Kamaytirishga	160	
Ma'lumot uchun:		
Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i summasi, butun korxonaga bo'yicha, jami (1701-satr + 1702-satr)	170	
shu jumladan:		
solig bo'yicha hisobga olish joyi bo'yicha (ushbu Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i hisob-kitobining 120-satri)	1701	
ko'chmas mulkning joylashgan joyi bo'yicha - jami (ko'chmas mulkning joylashgan joyi bo'yicha taqdim etiladigan Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i hisob-kitobining 120-satri)	1702	
shu jumladan: (ko'chmas mulkning joylashgan yeri ko'rsatiladi)		
	17021	
	17022	
	17023	

\*) 061 va 0901-satrlar yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lashdan to'liq ozod etish ko'rinishidagi imtiyozlar byerilgan tashkilotlar tomonidan to'ldiriladi. Boshqa tashkilotlar bu satrlarga "0" qiymatini qo'yadi.

**Izoh:**

1. Hisob-kitobni ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etishda ushbu Hisob-kitob faqatgina ko'chmas mulk ob'ektining (bino, inshoot va normativ muddatlarda qurilishi tugallanmagan ob'ektlar) haqiqatda joylashgan yeri bo'yicha to'ldiriladi, bunda ushbu ko'chmas mulk soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga Hisob-kitobni taqdim etishda hisobga olinmaydi.

2. 170-satr va boshqalar Hisob-kitobni faqatgina soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishda to'ldiriladi.

**6-ilova**

**Joriy soliq davrining 1 yanvaridagi holat bo'yicha  
qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'lmagan  
yerlar uchun to'lanadigan yer solig'i  
HISOB-KITOB  
(mikrofirma va kichik korxonalaridan tashqari)**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	O'lchov birligi	Yer maydoni	Summa
Yer uchastkasining umumiy maydoni, mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010 satr 3-ustuni + 8-ustuni yoki 020 satr 3-ustuni + 8-ustuni	010	gektar		x
Soliq solinmaydigan yer maydoni - mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010 satr 4-ustuni yoki 020 satr 4-ustuni	020	gektar		x
Soliq solinadigan baza mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 5-ustuni + 8-ustuni yoki 020-satr 5-ustuni + 8-ustuni	030	gektar		x
Yil uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan jami soliq summasi mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 7-ustuni + 10-ustuni yoki 020-satr 7-ustuni + 10-ustuni	040	so'm	x	
Xar oylik yer solig'i summasi (040-satr / 12)	050	so'm	x	
Yerdan samarasiz foydalanilayotgan ob'ektlarga chiqqan xulosa bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i. Mazkur hisob-kitobga 3-sonli ilovaning 060 satr 10 ustuni	060			

**Joriy soliq davrining 1 yanvaridagi holati  
bo'yicha qishloq xo'jaligi ahamiyatiga  
molik yerlar uchun to'lanadigan yer solig'i  
HISOB-KITOB**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Maydoni, gektar	YUridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining 1 gektar uchun stavkasi, so'm	YUridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining summasi
<b>Jami yerlar -</b> Mazkur hisob-kitobning 1-ilovasi 010-satri yoki 020-satri	010			
shu jumladan:				
<b>Sug'oriladigan jamoa qishloq xo'jaligi yerlari - jami:</b>	011			
1-klass (0 - 10 ball)	0111			
2-klass (11 - 20 ball)	0112			
3-klass (21 - 30 ball)	0113			
4-klass (31 - 40 ball)	0114			
5-klass (41 - 50 ball)	0115			
6-klass (51 - 60 ball)	0116			
7-klass (61 - 70 ball)	0117			
8-klass (71 - 80 ball)	0118			
9-klass (81 - 90 ball)	0119			
10-klass (91 - 100 ball)	0120			
Baholanmagan yerlar	0121			
<b>Lalmikor ekinzorlar, qo'riq yerlar va sug'orilmaydigan ko'p yillik daraxtlar - jami:</b>	013			
tekislik (yog'inlar bilan ta'minlanmagan) zonada	0131			
tekislik-tepalik (yog'inlar bilan yarim ta'minlangan) zonada	0132			
tog'oldi va tog'li (yog'inlar bilan ta'minlangan) zonalarda	0133			
<b>Sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar - jami:</b>	014			
"CHo'l" mintaqasida	0141			
"Adir" mintaqasida	0142			
"Tog'" mintaqasida	0143			

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Maydoni, gektar	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining 1 gektar uchun stavkasi, so'm	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining summasi
Qishloq va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalanilmaydigan boshqa yerlar - jami	015			
Suv havzalari, kanallar, kollektorlar, yo'llar bilan band bo'lgan yerlar	0151			
Jamoat imoratlari va hovlilari bilan band bo'lgan yerlar	0152			
Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar	0153			
Soliq solinmaydigan yerlar - jami - mazkur hisob-kitobning 2-ilovasi 010-satri	020			
Soliq solinadigan baza: (010-satr - 020-satr)	030			
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining umumiy summasi, shu jumladan:	040			
1 sentyabrgacha (30%)	0401			
1 dekabrgacha (qolgan soliq summasi)	0402			

**8-ilova**

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

To'lovchining to'liq nomi \_\_\_\_\_

ga taqdim etiladi.

(suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organi nomi)

**\_\_\_\_\_ yildagi soliq davri uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash bo'yicha MA'LUMOTNOMA**

(soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kamni tashkil etadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish korxonalari bundan mustasno))

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	SHu jumladan:	
			yer usti manbalari	yer osti manbalari
Soliq solinadigan foydalaniladigan suvning taxmin qilinayotgan hajmi, metr kub	010			
Joriy yilga 1 metr kub uchun belgilangan soliq stavkasi (so'm)	020			
Soliq summasi (010-satr x 020-satr)	030			
Har oylik joriy to'lovlar summasi (030-satr/4)	040			

**Izoh:** Ma'lumotnoma joriy soliq davrining 25 yanvariga qadar taqdim etiladi. Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlar har chorak uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay to'lanadi.



STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

To'lovchining to'liq nomi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ ga taqdim etiladi.

(suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organi nomi)

\_\_\_\_\_ yildagi soliq davri uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash bo'yicha

**MA'LUMOTNOMA**

(alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish korxonalarini uchun)

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	SHu jumladan:	
			yer usti manbalari	yer osti manbalari
Soliq solinadigan foydalaniladigan suvning taxmin qilinayotgan hajmi, metr kub (0101-satr + 0102-satr)	010			
shu jumladan:				
alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun ishlatilgan suv hajmi, metr kub	0101			
boshqa maqsadlar uchun ishlatilgan suv hajmi, metr kub	0102			
Joriy yil uchun 1 metr kub uchun belgilangan soliq stavkasi (so'm):	020	x	x	x
shu jumladan:				
alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun ishlatilgan suv hajmiga	0201	x		
boshqa maqsadlar uchun ishlatilgan suv hajmiga	0202	x		
Soliq summasi, (0301-satr + 0302-satr)	030			
shu jumladan:				
alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun ishlatilgan suv hajmi bo'yicha (0101-satr x 0201-satr)	0301			
boshqa maqsadlar uchun ishlatilgan suv hajmi bo'yicha (0102-satr x 0202-satr)	0302			
Har oylik (choraklik) joriy to'lovlar summasi (030-satr / 12) yoki (030-satr / 4)	040			

**Izoh:**

Ma'lumotnoma joriy soliq davrining 25 yanvariga qadar taqdim etiladi. Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda to'lanadi.

O'quv qo'llanma Toshkent moliya instituti Ilmiy Kengashi tomonidan 2019 yil "\_\_\_" yig'ilishida muhokama qilingan va (\_\_\_ bayonnoma) nashr uchun tavsiya etilgan.

## M U N D A R I J A

<b>KIRISH</b>	<b>3</b>
<b>1-BOB. SOLIQLAR HISOBINING NAZARIY ASOSLARI</b>	<b>5</b>
1.1. Soliq hisobining mohiyati	5
1.2. Soliq hisobini tashkil etishning xorij tajribasi	10
<b>2-BOB. SOLIQ HISOBINING OB'EKTI VA PREDMETI</b>	<b>17</b>
2.1. Soliq hisobining ob'ekti va predmeti haqida tushuncha	17
2.2. Soliq hisobi tamoyillari va metodi.	19
2.3. Soliq hisobining registrarlari	25
2.4. Soliq hisobotini tuzish tartibi	27
<b>3-BOB. SOLIQ HISOBI TIZIMI VA HISOB SIYOSATI</b>	<b>34</b>
3.1. Soliq hisobini tashkil etish va soliq hisobi siyosati	34
3.2. Soliq bo'yicha operatsiyalarni hisobga olish	39
<b>4-BOB. BEVOSITA SOLIQLAR HISOBI VA HISOBOTI</b>	<b>48</b>
4.1. Bevosita soliqlar hisobini yuritishning ahamiyati va hisob registrarlari	48
4.2. Bevosita soliqlar hisobi ob'ektlari va ular hisobini tashkil etish.	51
4.3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisobi va hisoboti.	61
4.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobotini tuzish va taqdim etish.	71
<b>5-BOB. BILVOSITA SOLIQLARNING HISOBI.</b>	<b>80</b>
5.1. Bilvosita soliqlar moliyaviy hisobining nazariy masalalari va uning vazifalari	80
5.2. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobi va hisoboti.	87
5.3. Aktsiz solig'i hisobi va hisoboti.	107
<b>6-BOB. MOL-MULK VA RESURS SOLIQLARI HISOBI VA HISOBOTI.</b>	<b>114</b>
6.1. Mol-mulk solig'i hisobi va hisoboti.	114
6.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i hisobi va hisoboti.	119
6.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisobi va hisoboti.	128
6.4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va bonuslar hisobi.	137
<b>7-BOB. SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBIDA TO'LANADIGAN SOLIQLAR HISOBI.</b>	<b>143</b>
7.1. Yagona soliq to'lovi hisobi va hisoboti.	143

7.2.	Yagona yer solig'i hisobi va hisoboti.	<i>154</i>
7.3.	Qat'iy belgilangan soliq hisobi va hisoboti.	<i>157</i>
<b>8-BOB.</b>	<b>BYUDJETDAN TASHQARI MAQSADLI JAMG'ARMALARGA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBI VA HISOBOTI</b>	<i>162</i>
8.1.	Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning davlat tomonidan tartibga solishning ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati va uning huquqiy asoslari	<i>162</i>
8.2.	Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga yagona ijtimoiy to'lov hisobi va hisoboti.	<i>172</i>
<b>9-BOB.</b>	<b>BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBI VA HISOBOTI</b>	<i>178</i>
9.1.	Noshirlik va matbaa korxonalarining bosma mahsulotlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek, bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq tahrir, matbaa va noshirlik xizmatlari ko'rsatishdan tushgan tushumidan majburiy ajratmalar hisobi va hisoboti.	<i>178</i>
<b>10-BOB.</b>	<b>SOLIQ IMTIYOZLARINING HISOBI</b>	<i>187</i>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b>	<i>191</i>
	<b>ILOVALAR</b>	<i>195</i>

Учебное пособие обсуждено на заседании Научного Совета Ташкентского финансового института от “\_\_” \_\_\_\_\_ 2019 года и рекомендовано к изданию ( протокол за №\_\_\_\_\_).

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ</b>	<b>3</b>
<b>Глава 1 ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НАЛОГОВОГО УЧЕТА</b>	<b>5</b>
1.1. Сущность налогового учета	5
1.2. Зарубежный опыт организации налогового учета	10
<b>Глава 2 ОБЪЕКТ И ПРЕДМЕТ НАЛОГОВОГО УЧЕТА</b>	<b>17</b>
2.1. Понятие об объекте и предмете налогового учета	17
2.2. Принципы и методы налогового учета	19
2.3. Регистры налогового учета	25
2.4. Порядок составления налоговой отчетности	27
<b>Глава 3 СИСТЕМА И УЧЕТНАЯ ПОЛИТИКА НАЛОГОВОГО УЧЕТА</b>	<b>34</b>
3.1. Организация и учетная политика налогового учета	34
3.2. Учет операции по налогам	39
<b>Глава 4 УЧЕТ И ОТЧЕТНОСТЬ ПРЯМЫХ НАЛОГОВ</b>	<b>48</b>
4.1. Сущность ведения и регистры учета прямых налогов	48
4.2. Объекты учета прямых налогов и организация их учета	51
4.3. Учет и отчетность налога на доходы юридических лиц	61
4.4. Составление и представление отчетности по налогу на доходы с физических лиц	71
<b>Глава 5 УЧЕТ КОСВЕННЫХ НАЛОГОВ</b>	<b>80</b>
5.1. Теоретические основы и задачи финансового учета косвенных налогов	80
5.2. Учет и отчетность налога на добавленную стоимость	87
5.3. Учет и отчетность акцизного налога	107
<b>Глава 6 УЧЕТ И ОТЧЕТНОСТЬ НАЛОГОВ НА ИМУЩЕСТВА И РЕСУРСЫ</b>	<b>114</b>
6.1. Учет и отчетность налога на имущества	114
6.2. Учет и отчетность налога на землю с юридических лиц.	119
6.3. Учет и отчетность налога за использование водных ресурсов	128
6.4. Учет налога за пользование недрами и бонусов	137
<b>Глава 7 УЧЕТ НАЛОГОВ ПРИ УПРОЩЕННОЙ СИСТЕМЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ</b>	<b>143</b>

7.1.	Учет и отчетность единого налогового платежа	<i>143</i>
7.2.	Учет и отчетность единого налога на землю	<i>154</i>
7.3.	Учет и отчетность по фиксированному налогу	<i>157</i>
<b>Глава 8</b>	<b>УЧЕТ И ОТЧЕТНОСТЬ ОБЯЗАТЕЛЬНЫХ ПЛАТЕЖЕЙ ВО ВНЕБЮДЖЕТНЫЕ ЦЕЛЕВЫЕ ФОНДЫ</b>	<i>162</i>
8.1.	Социально-экономическая и правовая основы государственного регулирования Внебюджетных целевых фондов	<i>162</i>
8.2.	Учет и отчетность единого социального платежа во внебюджетный пенсионный фонд	<i>172</i>
<b>Глава 9</b>	<b>УЧЕТ И ОТЧЕТНОСТЬ ПРОЧИХ ОБЯЗАТЕЛЬНЫХ ПЛАТЕЖЕЙ</b>	<i>178</i>
9.1.	Учет и отчетность обязательных отчислений с выручки поступившей от реализации продукции издательско-полиграфических предприятий, от оказания редакционных, прессы и издательских услуг, связанных с производством и реализацией издательской продукции	<i>178</i>
<b>Глава 10</b>	<b>УЧЕТ НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ</b>	<i>187</i>
	<b>ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА</b>	<i>191</i>
	<b>ПРИЛОЖЕНИЯ</b>	<i>195</i>

<b>INTRODUCTION</b>	<b>3</b>
<b>Chapter 1 THE THEORETICAL BASIS OF TAX ACCOUNTING</b>	<b>5</b>
1.1. The essence of tax accounting	5
1.2. Foreign experience in organizing tax accounting	10
<b>Chapter 2 OBJECT AND SUBJECT OF TAX ACCOUNTING</b>	<b>17</b>
2.1. The concept of the object and subject of tax accounting	17
2.2. Principles and methods of tax accounting	19
2.3. Tax accounting registers	25
2.4. Tax reporting procedure	27
<b>Chapter 3 SYSTEM AND ACCOUNTING POLICY OF TAX ACCOUNTING</b>	<b>34</b>
3.1. Organization and accounting policy of tax accounting	34
3.2. Tax accounting	39
<b>Chapter 4 DIRECT TAX ACCOUNTING</b>	<b>48</b>
4.1. The essence of maintaining and direct tax accounting registers	48
4.2. Objects of accounting for direct taxes and the organization of their accounting	51
4.3. Accounting and reporting of corporate income tax	61
4.4. Preparation and submission of reports on personal income tax	71
<b>Chapter 5 INDIRECT TAX ACCOUNTING</b>	<b>80</b>
5.1. Theoretical foundations and tasks of financial accounting of indirect taxes	80
5.2. Accounting and reporting of value added tax	87
5.3. Excise tax accounting and reporting	107
<b>Chapter 6 ACCOUNTING AND REPORTING OF TAXES ON PROPERTY AND RESOURCES</b>	<b>114</b>
6.1. Property tax accounting and reporting	114
6.2. Accounting and reporting of land tax from legal entities	119
6.3. Accounting and reporting tax for the use of water resources	128
6.4. Accounting for tax for the use of mineral resources and bonuses	137
<b>Chapter 7 ACCOUNTING TAXES AT A SIMPLIFIED TAX SYSTEM</b>	<b>143</b>
7.1. Accounting and reporting of a single tax payment	143
7.2. Accounting and reporting of a single land tax	154
7.3. Fixed tax accounting and reporting	157

<b>Chapter 8</b>	<b>ACCOUNTING AND REPORTING OF MANDATORY PAYMENTS TO EXTRABUDGETARY TRUST FUNDS</b>	<b>162</b>
8.1.	Socio-economic and legal framework for government regulation of extrabudgetary trust funds	<b>162</b>
8.2.	Accounting and reporting of a single social payment to an extrabudgetary pension fund	<b>172</b>
<b>Chapter 9</b>	<b>ACCOUNTING AND REPORTING OF OTHER MANDATORY PAYMENTS</b>	<b>178</b>
9.1.	Accounting and reporting of mandatory deductions from the revenue received from the sale of products of publishing and printing enterprises, from the provision of editorial, press and publishing services related to the production and sale of publishing products	<b>178</b>
<b>Chapter 10</b>	<b>ACCOUNTING OF TAX BENEFITS</b>	<b>187</b>
	<b>REFERENCES</b>	<b>191</b>
	<b>APPENDICES</b>	<b>195</b>

**Z.N.QURBONOV, K.M.MISIROV,  
K.R.HOTAMOV, F.I.ISAYEV**

**SOLIQ HISOBOTI**

*O'QUV QO'LLANMA*